**O’ZBEKİSTON RESPUBLİKASİ XALQ TA’LİMI VAZİRLİGİ**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

Geografiya kafedrasi

**“Jahon mamlakatlarining iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”** fanidan ma’ruza matni.

Tuzgan: Katta o`qituvchi J.Abdiramanov

Assistent o`qituvchi N.Otenov

NUKUS – 2015

**Mavzu: Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga kirish.**

Mazkur kurs ijtimoiy-geografik fan bo'lib, u aholi va xo'jalikni butun dunyoda, ayrim hududlar va mamlakatlarda rivojlanish va joylanish qonuniyatlarini tadqiq etadi. Mazkur kurs butun jahon xalqaro munosabatlarini, insoniyat va jamiyat bilan tabiatning o'zaro aloqalari, global muammolar va jahon taraqqiyotining hozirgi bosqichlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Mazkur fanning shakllanish va taraqqiyotida bir qator iqtisodchi geograf olimlarning hissasi ko'p. Masalan: N.N.Baranskiy, I.A.Vitver, N.N.Kolosovskiy, V.P.Maksakovskiy, V.Ya.Rom, K.F. Stroev. O'zbek iqtisodchilaridan Z.Akramov, A. Soliev, A. Ro'ziev.

Jahon iqtisodiy va siyosiy geografiyasi ijtimoiy fan bo'lganligi uchun bir qator iqtisodiy va tabiiy fanlar bilan bog'langan. Masalan:iqtisod, tarix, falsafa, matematika, siyosiy va sotsial geografiya, aholi geografiyasi va tabiiy geografik fanlar biologiya, ximiya fanlari bilan bog'langan.

Tadqiqot metodlari ham tobora boyib, kengayib bormoqda. Statistik, kartografik va tarixiy metodlardan tashqari yangi metodlar, masalan: matematik modellashtyiriksh, kosmik metodlar paydo bo'ldi.

Iqtisodiy geografik tadqiqotlar xo'jalik tarmoqlarini joylashtyirikshda ilmiy asoslashga, qulay joylashtyiriklishiga, planli xo'jalik yuritilishiga, aholini sotsial sharoitini yaxshilash bilan birga material, yoqilg'i va asosiysi mablag'ni ko'p iqtisod qiladi.

Iqtisodiy-"ekonomicheskiy" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, xo'jalik yuritish degan ma'noni bildiradi. Mazkur fanni 1-bo'lib M.V.Lomonosov shunday deb atagan.

**Mavzu: Dunyo yuzining siyosiy xaritasining shakillanishi va rivojlanish bosqichlari. Dunyoning xozirgi zamon siyosiy xaritasi.**

**Maruza rejasi**

1. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari.
2. Dunyo xaritasidagi miqdor va sifat o'zgarishlari.
3. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy obektlari.
4. Dunyo xozirgi zamon siyosiy xaritasi
5. Davlatlarning hududlari va davlat tuzumi.
6. Dunyo mamalakatlari tipologiyasi.
7. Dunyo mamlakatlari asosiy tiplarining qisqacha tarifi.

***1. Dunyo siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari***

Hozirgi zamon dunyo siyosiy xaritasi kishilik jamiyatining uzoq davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining o'zgarishi, almashinuvi qonuniyatlarini o'zida to'la aks ettiradi. Dunyo siyosiy xaritasi - tarixiy davrlarning ko'zgusi, mamlakatlar, materiklar, qitalar, dunyo siyosiy-iqtisodiy bo'linishining o'ziga xos tasvyirikdir. Uning shakllanishi ijtimoiy mehnat taqsimoti, xususiy mulkchilikning paydo bo'lishi, jamiyatning sinflarga bo'linish davridan boshlangan. DSX ko'p asrlar davomida davlatlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va tarqab (yo'qolib) ketishi, chegaralarning o'zgarishi, metrapoliya va mustamlakalarning tashkil topishi, dunyoning xududiy bo'lishi, qayta bo'lib olinishi kabi tarixiy o'zgarishlar, jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Shu sababdan DSXning shakllanishi va tashkil topish davrlari ham dunyo tarixi davrlariga mos bo'lishi kerak. DSXning shakllanishi quyidagi davrlarga bo'linadi: qadimgi, o'rta asrlar, yangi davr va eng yangi davr.

<u>Qadimgi davr –</u> (davlatlarning dastlab paydo bo'lishining byirikinchi bosqichidan milodning V asrigacha) quldorlik tuzumi davrini o'z ichiga oladi. Er sharida byiriknchi davlatlarning paydo bo'lishi va halokatini aks ettiradi. Masalan, Qadimgi Misr, Karfagen, Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Rim, ulug' Xun imperiyasi (miloddan av. 207 yildan to milodning 216 yiligacha), ikkinchi Ulug' Xun imperiyasi kabi qadimiy davlatlar dunyo tsivilizatsiyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. Turkiy xalqlarning qadimgi avlodlari bo'lgan xunlar (skiflar) Markaziy Osiyo, Kaspiy dengiz bo'ylari, shimoliy Kakazgacha cho'zilgan katta hududlarda o'z davlatlarini barpo etganlar. Ular o'z yozuviga ega bo'lgan harbiy maqsadlarda xaritalardan foydalanishgan. Xun avlodlari Sharqiy va G'arbiy Evropaga borib, milodning 347 yilidan 469 yiligacha Evropada Xunlar

imperiyasini tuzganlar. Shu bilan bir qatorda bu davrda harbiy yurishlar hamda urushlar davlat chegaralari va hududlarning o’zgartyiriklishining asosiy sababi bo’lgan.

O’rta asrlar davri- (V-VI asrlar) DSX feodalizm davri bilan bog’liq holda shakllangan. Quldorlik imperiyalari parchalanib, ularning o’rnida ko’p sonli katta va kichik feodal davlatlar paydo bo’ldi. Feodal davlatlarning siyosiy funktsiyalari quldorlik davri davlatlariga nisbatan ancha murakkab va xilma-xil bo’lgan. Bu davrda ichki bozor shakllandi, regionlarning boshqalardan ajralgan holda berk yashashiga chek qo’yildi. Davlatlarning o’zlaridan uzoqda joylashgan hududlarni bosib olishga harakat qilish ishtiyoqi kuchaydi. Dunyo materiklari va qitalri turli davlatlar o’rtasida taqsimlab olindi. Bu davrda Muqaddas Rim imperiyasi, Angliya, İspaniya, Frantsiya, Portugaliya, Kiev Rusi, Hindiston, Xitoy, Eron hamda Temuriylar va boshqalar mavjud bo’lgan.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri dunyo xaritasida kuchli o’zgarishlar sodir bo’lishiga olib keldi. Bozorga va yangi boy hududlarga talab paydo bo’ldi. Shu munosabat bilan yangi erlarni kashf etish, dunyo bo’ylab sayohatlarga chiqishga ehtiyoj kuchaydi.

Yangi davr -(XV-XVI asrdan XXasrning I-jahon urushiga qadar) – kapitalizmning shakllanishi, rivojlanishi va qaror topishining butun bir tarixiy bosqichiga to’g’ri keladi. Buyuk geografik kashfiyotlar Evropa mustamlaka bosqinlari (ekspansiya) boshlanishiga, xalqaro xo’jalik aloqalarining butun dunyoga tarqalishiga asos bo’ldi. Bu davrda İspaniya va Portugaliya eng yirik mustamlakachilik davlatlariga aylandi. So’ngra manufaktura kapitalizmining rivojlanishiga bog’liq holda Angliya, Frantsiya, Niderlandiya, Germaniya, keyinchalik AQSh tarix sahnasiga chiqdilar. Mustamlakalar bosib olish kuchaydi. Rossiya imperiyasi ham Turon-Turkiston subregioni davlatlari ham Rossiya imperiyasi mustamlakalariga yoki unga qaram hududlarga aylandi.

XIX asrning oxyirik XX asrning boshlarida dunyo hududlari to’liq bosib olindi. 1900 yilda mustamlakachi davlatlar bosib olgan hududlar maydoni 73 mln kv km (dunyoning 55% maydoni) bo’lib, ularda 530 mln kishi (dunyo aholisining 35%) yashagan (bunga Rossiya mustamlakalari to’g’risidagi malumotlar kyiriktilmagan. Chunki, bunday malumotlar xanuzgacha ochiq elon qilinmagan). Masalan Buyuk Britaniya mustamlakalari maydoni 32.7 mln kv km (dunyo maydonining 24.6%), unda yashaydigan aholi 367.6 mln kishi. (dunyo aholisining 24.5%) bo’lgan. Frantsiya mustamlakalari shunga mos ravishda 11 mln kv km (8.3%), 50.1 mln kishi (3.3%), Germaniyaniki - 2.6 mln kv km (2%), 12 mln kishi (0.8%), Belgiyaniki – 2.4 mln kv km (1.8%), 19 mln kishi (1.3%), Niderlandiyaniki – 2.0 mln kv km (1.5%), 37.9 mln kishi (2.5%) bo’lgan. Metropoliya va mustamlakalar maydoni va aholisi o’rtasidagi nisbat mutanosib ravishda quyidagi miqdorni tashkil etgan: Buyuk Britaniyada – 100 va 8.8 marta, Niderlandiyada – 67 va 7.4, Portugaliya – 21 va 1.5, Frantsiya – 21 va 1.3, Belgiya – 80 va 2.8 marta, Daniya – 5 marta va 4.2 %, Germaniya – 5 marta va 21%, İspaniya – 40% va 3.8%, İtaliya – 1.7% va 2.2%, AQSh – 24,4% va 11.6%.

Shu davrdan boshlab dunyoni qayta bo’lib olish faqat urush va zo’ravonlik vositasida amalga oshishi mumkin edi. Shu sababdan ham dunyoning etakchi mamlakatlari o’rtasida bo’lingan dunyoni qayta bo’lib olish uchun kurash tobora keskinlashdi.

Eng yangi davr byiriknchi jahon urushi tugashi va 1917 yil Rossiyada Oktyabr to’ntarishidan boshlab to hozirgi kunlargacha bo’lgan davrni qamrab oladi. Bu davr quyidagi uch bosqichga bo’linadi.

Byirinchi bosqich (1917-1939 yillar) dunyo xaritasida SSSR (sotsialistik imperiya)ning paydo bo’lishi, Evropa va dunyoning boshqa qismlarida muhim hududiy o’zgarishlarning sodir bo’lishi bilan tavsiflanadi. Avstriya-Vengriya imperiyasi parchalandi, ko’p davlatlarning chegaralari o’zgardi. Yangi mustaqil mamlakatlar Polsha, Finlandiya, Chexoslavakiya, Yugoslaviya (Serbiya, Xorvatiya, Slovakiya qirolliklari) va boshqalar paydo bo’ldi. Buyuk Britaniya, Frantsiya, Belgiya, Yaponiya mustamlakalari ko’paydi hamda kengaydi.

İkkinchi bosqich (1939-1990 yillar) Evropa siyosiy xaritasida yuz bergan o’zgarishlardan tashqari, sotsialistik eksperimentning kengayishi, (Evropa va Osiyodagi ayrim davlatlarning sotsialistik yo’lga o’tishi), imperializm mustamlakachilik tizimining emyiriklishi oqibatida Osiyo,

Afrika, Lotin Amerikasi (Karib regionida), Okeaniyada 100dan ortiq mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi bilan nishonlanadi.

Uchinchi bosqich 1990 yildan boshlanib, hozirga qadar davom etmoqda. Dunyo siyosiy xaritasida butun dunyo hamkorligining ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotiga katta tasir ko'rsatgan yangi sifat o'zgarishlari quyidagilardir:

- 1991 yil SSSRning parchalanishi, sobiq ittifoqdosh respublikalarning siyosiy mustaqillikka erishishlari;
- Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining (MDH) paydo bo'lishi;
- Sharqiy Evropadagi sobiq sotsialistik davlatlarning tipik xalq demokratik inqiloblari g'alabasi orqali yangi mustaqil rivojlanish yo'liga o'tishlari (1989-90 yillar);
- 1991 yilda harbiy Varshava Shartnomasi Tashkiloti (VShT), O'zaro İqtisodiy yordam Tashkiloti Kengashi (O'İ{K) faoliyatining to'xtalishi va uning Evropa hamda butun dunyodagi siyosiy va iqtisodiy vaziyatga jiddiy tasir ko'rsatishi;
- Sotsialistik tizimning barbod bo'lishi;
- 1990 yil 3 oktyabr ikki German davlatining (GFR va GDR) birlashuvi;
- Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasining (YuSFR) parchalanishi oqibatida Sloveniya, Bosniya va Gertsegovina, Makedoniya, Xorvatiya, Yugoslaviya İttifoqi Respublikasi (Serbiya va Chernogoriya tarkibida) siyosiy mustaqilligining elon qilinishi, Sobiq Federatsiyadagi keskin siyosiy bo'hron (krizis) fuqarolar urushiga va millatlararo ziddiyatlarning kuchayishiga, ularning bugungi kunga qadar davom etishiga olib keldi;
- 1990 yil may oyida ikki arab davlati – Yaman Arab Respublikasi (YaAR) va Yaman Xalq Demokratik Respublikasi (YaXDR) – milliy-etnik asoslarda birlashdi (Yaman Respublikasi, poytaxti – Sana shahri);
- 1990-1991 yillarda mustamlakachilikning barbod bo'lishi jarayoni davom etib, quyidagi davlatlar mustaqillikka erishdilar: Namibiya (Afrikada eng so'nggi mustamlaka); Okeaniyada yangi davlatlar – Mikroneziya Federativ Shtatlari (Karolin orollari), Marshall orollari Respublikasi paydo bo'ldi;
- 1993 yil 1 yanvarda Sobiq Chexoslovakiya parchalanib, ikki mustaqil davlat - Chexiya va Slovakiya paydo bo'ldi;
- 1993 yil Eritreya davlatining (Efiopiyaning Qizil dengiz qirg'og'idagi sobiq provintsiya) mustaqilligi elon qilindi.

Mutaxasislarning takidlashiga ko'ra dunyo siyosiy xaritasining kelajakda o'zgarishi avvalo ko'p milatli mamlakatlarda etnik-milliy jarayonlarning rivoji, yo'nalishiga, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlarning tavsifiga bog'liq holda davom etishi mumkin.

### *2. Dunyo xaritasidagi miqdor va sifat o'zgarishlari*

DSXdagi o'zgarish hamda siljishlar asosan miqdor va sifat ko'rsatkichlari xususiyatlariga ega bo'ladi.

Miqdor o'zgarishlari hududlarni harbiy kuch bilan bosib olish yoki uni yo'qotish hisobiga, davlatlarning bir-birlariga hududlarni ixtiyoriy berishlari orqali sodir bo'ladi. Jahon urushlari, mustamlakalar bosib olish, mustamlakachi imperiyaning tashkil topishi, davlatlarning birlashuvi yoki ajralishi hududiy o'zgarishlarga olib kelgan.

Sifat o'zgarishlari odatda hududiy o'zgarishlarga olib kelmaydi. Uning asosiy mohiyatini bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumning boshqasi bilan almashinuvi, sobiq mustamlakalarning mustaqillikka erishishi, yangi davlat tuzilishi shakliga o'tish, davlatlararo siyosiy ittifoq va tashkilotlarning barpo etilishi va boshqalar belgilab beradi. Ko'p hollarda miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishlari bilan birgalikda sodir bo'ladi.

Umuman dunyo xaritasidagi miqdor o'zgarishlari asosan o'tmish davrlar uchun xos bo'lib, unda urushlar davlatlararo baxslar, munozaralar echimining odatdagi vositasi, "musht huquqi" esa siyosatning asosiy yo'nalishi bo'lgan. Ammo hozirgi paytda hududiy munozaralarni harbiy yo'l bilan hal etish o'zining ilgarigi ahamiyatini to'la yo'qotdi. Yadro asrida bu yo'l sayyoramizni ulkan

qabristonga aylantyiriksh xavfini keltyirikb chiqaradi. Shu sababdan barcha hududiy mojaroalarni muzokaralar orqali tinch yo’l bilan hal etish XXI asrda eng maqbul yo’ldir.

### *3. Dunyo siyosiy xaritasining asosiy obektlari*

Dunyo siyosiy xaritasining asosiy obektlari – mustaqil davlatlardir. 1900 yilda Er sharida jami 55 mustaqil davlat bo’lgan. U paytda g’oyat katta Britaniya imperiyasi, unga nisbatan miqyosi kichik Frantsiya imperiyasi mavjud bo’lgan. Ular byiriknchi jahon urushidan keyin ham o’z mustamlakalarini saqlab qolganlar. Ayni paytda Yaponiya, AQSh, Niderlandiya, Belgiya, Portugaliya, İspaniya, Rossiya mamlakatlari ham mustamlakaga ega bo’lganlar. İkkinchi jahon urushidan keyin imperializm mustamlakachilik tizimining barbod bo’lishi, milliy ozodlik harakatlarining tobora kuchayishi, xalqlarning mustaqillik uchun kurashlari DSXni tubdan o’zgartirdi. İkkinchi jahon urushi arafasida dunyoda 71 mustaqil davlat bo’lgan bo’lsa, 1947 yilda ularning soni 81 taga, 1959 yilda –92, 1990 yilda –171, 1995 yilda – 180taga va 1998 yilda esa 190taga etdi.

Mustaqil davlatlar bilan bir qatorda hozirgi zamonda 38dan 42 tagacha boshqa mamlakatlar bor. Ulardan 30 tadan ko’prog’i o’z-o’zini boshqarmaydigan hududlar bo’lsa, qolganlari turli huquqiy mavqega ega. Mazkur miqdoriy ko’rsatkichlardagi farqlar dunyo boshqaruv tizimida turli holatlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Masalan, sharqiy Timor BMT tomonidan mustamlaka deb hisoblanadi, İndoneziya esa uni o’z hududi deb hisoblaydi. Falastin davlati elon qilinishini (1988 yil) ko’p davlatlar tan olganlar, ayni paytda tan olmaydigan davlatlar ham bor. Aksariyat hollarda Okeaniyadagi orollar o’zlarini alohida yoki birgalikda hisoblaydilar. G’arbiy Saxroyi Kabir (Sobiq İspaniya mustamlakasi) statusi ham hanuzgacha noaniq. Bu mamlakatlarni shartli uch guruhga bo’lish mumkin:

- BMT rasmiy ro’yxatiga kyiriktilgan mustamlakalar (mustaqillik berilishi talab qilingan hududlar ro’yxati);
- BMT ro’yxatiga kyiriktilmagan, lekin amalda mustamlaka bo’lgan orol hududlar. Chunki ularni boshqaruvchi davlatlarning davolariga ko’ra hududlar "dengiz orti departamentlari", "erkin asotsiatsiyalashgan davlatlar" hisoblanadi;
- Taqdiri aniq belgilangan mustamlakalar;

Gongkong (Syangan, Britaniya) va Aomin (Makao, Portugaliya). Ularni birinchisi 1997 yilda Xitoy suverinetiga kiritildi, ikkinchisi – 2000 yilda shu statusga o’tdi.

Deyarli barcha mustamlakalarning maydoni kichik, aholisi kam. Bundan faqat Puerto-Riko (AQSh mustamlakasi) istisno (3.7 mln kishi). Barcha mustamlakalarga mustaqillik berish masalasi murakkab muammodir. Ularning ko’pchiligi metropoliyalar uchun harbiy – strategik obekt sifatida yoki boshqa maqsadlarda ahamiyatga ega. Masalan, AQShning o’nlab harbiy-dengiz va harbiy-havo bazalari Tinch va Atlantika okeanlaridagi orollardagi orol mustamlakalarda joylashgan.

Davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi g’oyat murakkab tarixiy jarayon bo’lib, ko’plab ichki va tashqi omillar- siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda etnik xususiyatlar bilan belgilanadi.

Xalqaro muammolar bo’yicha mutaxasislar dunyoda 300 ga yaqin punktlar bo’yicha hududiy, etnik, chegara baxslari, shu jumladan ularning 100dan ko’prog’i bo’yicha g’oyat jiddiy janjalli vaziyat mavjudligini aniqlaganlar.

Masalan, o’nlab yillar mobaynida İspaniya va Buyuk Britaniya Gibraltar suvereniteti to’g’risida baxslashmoqda. Folklend (Malvin) orollari uchun Buyuk Britaniya va Argentina o’rtasida 1282 yilda harbiy mojaro sodir bo’ldi. 1947 yildan buyon İsroil davlati chegaralari to’g’risida va Falastin davlatini tuzish xususida shartnoma tuzish bo’yicha muzokaralar davom etmoqda. Boshqa bir misol, İroq - Eron o’rtasida sakkiz yil davom etgan (1980-1988) qonli urush ham 508 kv km hudud to’g’risidagi baxslar orqali boshlangan. Mutaxasislar hisoblariga ko’ra ikkinchi jahon urushidan keyin to 1990 yilgacha ikki yoki ko’proq mamlakat ishtirok etgan turli miqiyosdagi 450ga yaqin qurolli harbiy mojarolar sodir bo’lgan, yoki yiliga o’rtacha 10ta mojaro to’g’ri kelgan. Mojarolarning sabablari ko’p va chuqur, ular hozirgi zamon siyosiy muhitining o’zgaruvchanligi, ziddiyatli ekanligidan dalolat beradi.

### *4. Dunyo siyosiy xaritasining ahamiyati*

Siyosat so'zi arabcha bo'lib, u lug'oviy jihatdan "boshqarish" degan manoni anglatadi. Malumki, qaerdaki boshqarish mavjud ekan shu erda ustunlikka intilish ham mavjud bo'ladi. Xususan dunyo mamlakatlarining shakllanishi hamda rivojlanishida ham aynan shunday jarayon kuzatiladi. Bugungi kunda dunyoda 230ga yaqin mamlakat mavjud ekan ular bir-byirikdan rivojlanish darajasiga ko'ra, davlat tuzumi va boshqarish shakliga ko'ra o'zaro farq qiladi.

Shu o'rinda takidlash joizki, dunyo siyosiy xaritasi bu dinamik yani o'zgaruvchan tarixiy kategoriyadir. Chunki, siyosiy xaritadagi davlatlar soni, ularning tuzumi, chegara kabi sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlari davriy nuqtai nazardan o'zgarib turadi.

Siyosiy xaritaning ahamiyati g'oyat katta bo'lib, u mamlakatlarning xalqaro o'rnini, dunyoda egallagan mavqeini, ularning ichki siyosiy mamuriy strukturasi xususiyatlarini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan bir qatorda dunyo siyosiy xaritasi o'zgarishining tarixiy bosqichlari davlat arboblari, siyosatchilar, diplomatlar, xalqaro iqtisodchilar, jurnalistlar va boshqa mutaxasislar uchun zarur bo'lgan qimmatli xujjatdir. Shu sababdan uni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti İ.A.Karimovning quyidagi so'zlari O'zbekistonning dunyo siyosiy xaritasidagi o'rnining mohiyatini to'la ochib beradi: "Markaziy Osiyoda jo'g'rofiy-siyosiy jihatdan markaziy o'rin tutgan O'zbekiston kuchlar tengligi va muvozanatini taminlash, strategik muhim bo'lgan ushbu mintaqada hamkorlikka mustahkam zamin yaratish jarayonida sezilarli rol o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega. Uning o'zining mavjud va potentsial tabiiy hamda xom ashyosi bilan hozirdayoq - XXI asr arafasida dunyoning siyosiy va iqtisodiy xaritasida alohida kasb etmoqda".[1]

### *5. Davlatlarning hududlari va davlat tuzimi*

Hududlar- davlat hududi, xalqaro va aralash tartibdagi hududlarga bo'linadi.

1. Davlat hududi-malum davlatning suvereniteti ostida bo'ladi. Uning tarkibiga chegara doirasidagi quruqlik va er osti boyliklari, ichki va hududiy suvlar, quruqlik va suv ustidagi atmosfera havosi kiradi. Dengiz bo'yi davlatlari (100 dan ko'proq) qirg'oqdan 3 dan 12 dengiz milyasigacha davom etadigan hududiy suvlarga egalik qiladi. Har bir davlat boshqa davlatlardan quruqlik va dengiz chegaralari orqali ajratilgan o'z davlat hududlariga ega. Bu chegaralar o'tmish voqealariga bog'liq holda tarixan tarkib topgan. Masalan, Amerikaning ko'pchilik davlatlari parallel va meridianlar bo'ylab o'tkazilgan to'g'ri chiziqli chegara konfiguratsiyasiga ega. Bu holat bir tomondan o'tmishda mustamlakachi davlatlar o'rtasidagi keskin raqobat bilan bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan etnik parchalanishni amalga oshyiriksh orqali yosh mustaqil davlatlar o'rtasida doimiy nizolar chiqarishni va shu asosda sobiq mustamlakalarni uzoq muddatlarda talash maqsadlarida amalga oshyiriklgan edi.

Xalqaro huquq boshqa davlatlarning chegaralarini buzish, ayniqsa kuch ishlatish yo'li bilan bosib olishni taqiqlaydi. Davlatlar o'rtasidagi barcha chegara baxslari, nizolari tinch yo'l vositalari bilan hal etilishi kerak. Xalqaro miqiyosda ikkinchi jahon urushidan keyin shakllangan davlat chegaralari daxlsizligi barchaga barobar tarzda umumiy etirof etilgan.

2. Xalqaro tartibdagi hududlarga davlat chegaralaridan tashqarida bo'lgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari foydalanadigan Er sharidagi bo'sh makonlar (joylar) kiradi. Bular kontinental (quruqlik) shelflaridan tashqaridagi ochiq dengiz, havo bo'shlig'ini qamrab oladi.

Bunda Shimoliy Muz okeanidagi ochiq dengizlarning arktik rayonidagi xalqaro huquqiy tartibdagi bazi xususiyatlarga egaligini ko'rsatish lozim. O'z vaqtida SSSR, Kanada va boshqa mamlakatlar uni qutbiy "sektorlar"ga bo'lgan edilar. "Qutbiy sektor" doirasidagi barcha er va orollar, qirg'oq bo'yidagi muzlik dalalari davlat chegaralari tarkibiga kiradi. "Qutbiy sektor" davlatlarning shimoliy chegaralaridan Shimoliy qutbgacha bo'lgan meridian bo'yicha ajratilgan makonlardan tashkil topgan.

---

[1] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997. 228-229 бетлар.

3. Aralash tartibdagi hududlarga quruqlik (kontinental) shelf va iqtisodiy mintaqalar kiradi. Quruqlik shelflari quyidagi uchta asosiy belgiga ko'ra ajratiladi:

1) davlat chegaralariga tutashishi;
2) suvning 200m gacha chuqurligi;
3) resurslardan foydalanishning texnik imkoniyatlari (maksimal uzoqlik qirg'oqdan 350 mil).

Mamlakatlar "o'z shelflari"ning tabiiy boyliklarini razvedka qilish (qidyiriksh), resurslardan foydalanishda alohida huquqlarga ega, lekin ular tegishli akvatoriyalarga suveren huquqga ega emas.

Masalan, suv osti konlaridan (shelfda qazib olish) neft qazib olishning dunyodagi hissasi umumiy ko'rsatkichning 40%ga yaqindir. Shelf va okean tubi temir, mis, marganets, nikel, kobalt va boshqa elementlarga boy.

Lotin Amerikasi mamlakatlari 60-yillarning oxyirikda Dunyo okeanida iqtisodiy mintaqalarini o'rnatish tashabbusi bilan chiqdilar. 80-yilarning o'rtalariga kelib dunyoning deyarli barcha davlatlari ularning bu tashabbuslariga qo'shildilar. Hozir iqtisodiy zonalar hissasiga dunyo okeani maydonining 40%, shu jumladan 96% baliq ovlanadigan rayonlar kiradi.

İqtisodiy mintaqalar hududiy suvlardan tashqarida qirg'oqdan 200 dengiz miliga yaqin kenglikda joylashgan rayonlar bo'lib, dengiz bo'yi mamlakatlari bu erda mineral resurslarni razvedka qilish (qidyiriksh), qazib olish, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, baliq ovlashni (resurslarga milliy yurisdiktsiya zonasi) amalga oshiradilar, boshqa mamlakatlar esa kema qatnovi erkinligidan foydalanadilar, baliq ovlashda belgilangan meyordan ortiqcha qismdan foydalanish huquqiga egalar.

Baliq ovlanadigan mintaqalar va shelflar ko'pincha davlatlarning quruqlik maydonidan ko'p bo'lib, ularning resurslar imkoniyatlarini keskin ko'tarish mumkin.

1959 yildagi Shartnomaga asosan Antarktida alohida xalqaro huquqiy tartibga o'tkazilgan. Materik to'liq demilitarizatsiya qilingan va ilmiy tadqiqot ishlari uchun barcha mamlakatlarga ochiqdir.

Dunyo siyosiy xaritasi mamlakatlarning g'oyat murakkab va rang-barang quramalardan tashkil topgan. Quruqlikning odamlar yashaydigan qismi va unga tutash keng dengiz makonlari siyosiy chegaralar bilan g'oyat ko'p bo'laklarga bo'lingan.

Mustaqil mamlakatlar davlatni tashkil etishning turli shakllariga ega. Ulardan eng muhimi davlat tuzumidir. U monarxiya va respublikaga bo'linadi.

Boshqarishning respublika shaklida davlat hokimiyatining oliy organlari saylanadi yoki umummilliy vakillar muassasasi parlament tomonidan tuziladi. **Respublika tuzumida** qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroya hokimiyat - hukumatga tegishlidir.

Bunda prezident juda katta vakolatga ega bo'lgan va hukumatni boshqaradigan prezident respublikasi (AQSh, Lotin Amerikasi mamlakatlarining ayrimlari) va prezidentning roli kamroq hukumatni esa bosh ministr boshqaradigan parlement respublikalari bir-byirikdan farq qiladi. Dunyoda respublikalar ko'pchilik bo'lib, ularning soni 140ga yaqin.

Boshqarishning ***monarxiya shaklida*** oliy davlat hokimiyati monarxlarga - qirol, knyaz, sulton, shoh, amirga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan avlodga o'tadi. Dunyo siyosiy xaratisida 30 monarxiya shaklidagi davlat mavjud, shu jumladan Osiyoda-14, Evropada-12, Afrikada-3, Okeaniyada-1. Monarxiya konstitutsion va mutlaq (absolyut) tiplarga bo'linadi. Ularning ko'pchiligi ***konstitutsion monarxiya*** bo'lib, unda monarx ramziy "podsholik" qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi (Buyuk Britaniya, Norvegiya, Shvetsiya) real qonun chiqaruvchi hokimiyat parlamentga, ijroiya hokimiyat – xukumatga qarashlidir. ***Mutlaq monarxiyada*** monarx hokimiyati deyarli cheklanmagan, xukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarx oldida javobgardir (Saudiya Arabisitoni, Birlashgan Arab Amirliklari, Omon, Bruney, Quvayt va boshqalar).

Boshqarishning yana bir keng tarqalgan shakli Buyuk Britaniya boshchilik qiladigan ***Britaniya Xamkorligidir.*** U huquqiy jihatdan 1931 yildayoq rasmiylashtyiriklgan bo'lib, uning tarkibiga Buyuk Britaniya dominionlari- Kanada, Avstriya, Janubiy Afrika İttifoqi, Nyufaundlend va İrlandiya kirgan edi. İkkinchi jahon urushida Britaniya imperiyasi barbod bo'lgach Hamkorlik tarkibiga Britaniya sobiq mustamlakalarining ko'pchiligi kirdi. Uning tarkibida dunyoning barcha

qitalarida joylashgan 50 mamlakat bo'lib, umumiy maydoni 30 mln $km^3$ dan ko'proq, aholisi 1,2 mlrd kishidan ortiqdir.

Hamkorlik tarkibiga siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy strukturasi, iqtisodiy rivojlanish darajasi, etnik va til, diniy xususiyatlari bo'yicha nihoyatda xilma-xil mamlakatlar kiradi. Ular orasiga rivojlangan (Buyuk Britaniya, Kanada va boshqalar)da rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan yirik, gigant (Hindiston), katta (Bangladesh, Shri Lanka, Malayziya, Nigeriya, Keniya, Tanzaniya va boshqalar), kichik hamda juda kichik orol mamlakatlari (Karib havzasi, Okeaniya) ham bor. Hamkorlik azolari undan bir tomonlama so'zsiz chiqish huquqiga ega, ular ichki va tashqi ishlarda to'liq mustaqildirlar. Hamkorlik konferentsiyalarining qarorlari ularni qabul qilish uchun ovoz bermagan mamlakatlarda qonuniy kuchga ega emas.

1991 yilda SSSR barbod bo'lgach dunyo xaritasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) paydo bo'lib, uning tarkibiga sobiq SSSR respublikalarining (Boltiq bo'yi davlatlaridan tashqari) barchasi kirgan.

Davlatlarning mamuriy hududiy bo'linishi (MHB) siyosiy xaritaning muhim elementi hisoblanadi. U bevosita siyosiy tuzum tavsifi va davlat boshqaruv shakllari bilan bog'liq bo'lib, aholining milliy-etnik (bazi hollarda diniy xususiyatlari ham), shuningdek, mamlakatning tarixiy-geografik xususiyatlarini ham aks ettiradi.

Mamlakatning MHB odatta iqtisodiy, tarixiy, milliy, tarkibiy va boshqa omillarini hisobga olgan holda amalga oshyirikladi. *Uning asosiy funktsiyalari:* davlat boshqaruvi va hokimiyati organlarini pog'onali joylashtyiriksh, soliq va axborotlarni to'plashni taminlash, markazning joylar ustidan nazorati, moslashuvchan iqtisodiy va ijtimoiy regional siyosatni amalga oshyiriksh, saylov kompaniyalarini o'tkazish va boshqalardan iborat.

G'arbni rivojlangan mamlakatlarining ko'pchiligi uchun MHB ning murakkabligi va ko'p bosqichliligi xosdir. Odatda MHB uch bosqichga bo'linadi, bazan esa juda ko'p bo'laklarga ajratiladi. Masalan, Frantsiyada 26 rayon, 100 departament, 36.5 ming kommuna bor. AQShda 50ta shtatga birlashtyiriklgan quyi birlik yoki "graflik" (ular jami 30 mingdan ko'proq) hisoblanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham MHBlarni qayta qurish ishlari 50-yillardan boshlangan bo'lib, ularda G'arb mamlakatlaridan farqli ravishda MHBlarni yiriklashtyiriksh asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Davlatning MHBlari asosiy shaklga – unitar va federativga bo'linadi. *Unitar davlatda* odatda yagona qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat, yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitutsiya mavjud bo'ladi. Bunday davlatlar dunyoda ko'pchilikdir.

*Federativ davlatda* yagona (federal) qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda boshqa davlat tuzilmalari – respublikalar, shtatlar, provintsiyalar, erlar (viloyatlar), kantonlar, hududlar bo'lib, ular "ikkinchi" darajali bo'lsada, o'zlarining qonunlari va hokimiyat organlariga egadirlar. Ko'pchilik federativ davlatlarda parlament ikki palatadan iborat bo'lib, ularning bittasi respublikalar, shtatlar va boshqalar vakolatini taminlaydi (masalan, AQSh kongressida senat shunday funktsiyaga ega). 1995 yilda dunyoda 23 federativ davlat mavjud bo'lgan (Rossiya Federatsiyasi, Belgiya qirolligi, Germaniya Federativ Respublikasi, Shveytsariya Konfederatsiyasi, Yugoslaviya İttifoqi Respublikasi, İspaniya, Hindiston Respublikasi, Malayziya, Myanma İttifoqi Federativ shtatlari, Kamor orollari Federativ İslom Respublikasi, Nigeriya Federativ Respublikasi, Venesuela Respublikasi, Kanada, Meksika Qo'shma Shtatlari, AQSh, Argentina).

Federatsiya hududiy va milliy belgilariga qarab tuziladi. Bu esa ko'p jihatdan davlat qurilishining tavsifi, mazmuni va strukturasini belgilaydi.

Davlatlar birlashuvining boshqa shakli – konfederatsiya – nisbatan kam uchraydi. Ular, qoida tariqasida, nihoyat cheklangan maqsadlarga (harbiy, tashqi-siyosiy va boshqalar) erishish uchun tuziladi. Ular uzoq faoliyat ko'rsatmaydi, parchalanib ketadilar yoki federatsiyalarga aylanadilar (masalan, Shvetsiya İttifoqi, Avstriya-Vengriya, AQSh va boshqalar).

### *6. Dunyo mamalakatlari tipologiyasi*

Dunyoning hozirgi siyosiy xaritasida 230 ga yaqin mamlakat va hududlar bor. Ularning 190 tasi BMTga azo va suveren davlatlardir, qolganlari asosan o'zini-o'zi boshqarmaydigan hududlar hisoblanadi. Ular o'rtasidagi farqlar g'oyat katta va xilma-xildir. Masalan, siyosiy xaritada, bir tomondan aholisi juda ko'p, hududi esa g'oyat katta mamlakatlar (Xitoy, Hindiston, Rossiya, AQSh), boshqa tomondan juda kichkina "mitti" mamlakatlar (Monako, Andorra, Vatikan, Lixtenshteyn) mavjud.

Dunyoda bir millatli (Yaponiya, Shvetsiya va boshqalar) va ko'p millatli (Hindiston, Rossiya, AQSh), tabiiy resurslari g'oyat boy va resurslari kam, dengiz bo'yida va materik ichkarisida (Chad, Mali, Markaziy Afrika Respublikasi, Mongoliya, Paragvay, Nepal, Butan) joylashgan mamlakatlar ham bor. Bazi mamlakatlar butun materikni (Avstraliya) boshqalari esa kichik bir orolni yoki orollar guruxini egallaydi. Mamlakatlarning geografik o'rni ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga tasir ko'rsatuvchi muhim omildir.

Dunyoning har bir mamlakati o'ziga xos takrorlanmas xususiyatga ega, lekin ularning o'xshashlik hamda farqlarini aniqlab, mamlakatlarni turli tiplarga ajratish mumkin. Tipologiya ham turli belgilar va mezonlarga, ko'zlangan maqsadlarga ko'ra turlicha bo'labi.
Bu tipdagi mamlakatlarning mavjudligi ularning rivojlanish sharoiti, surati, boshqaruv usullarining har xilligi bilan belgilanadi. Lekin mamlakatlar tipini bir yoki bir necha muhim mezonlarga asoslanib aniqlab bo'lmaydi. Byiriknchi bosqichda katta hajmdagi statistik malumotlar tahlil qilinib, so'ngra ular guruhlarga ajratiladi. Tipologiyaning o'zi ham har xil bo'ladi. Ularda malakatlarning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilovchi ko'plab ko'rsatkichlar, shuningdek tarixiy, siyosiy jihatlar (Masalan, demokratiyaning rivojlanish darajasi va boshqalar) hisobga olinadi. Kapitalizmning rivojlanishi aholining daromad darajasiga asoslangan ko'plab tipologiyalar mavjud. Davlatlarning geografik o'rni tashkil topish vaqtiga, etnik va diniy tarkibiga ko'ra ham guruhlash mumkin. Uzoq vaqt davlatlarning kapitalistik (bozor iqtisodiyoti bilan) yoki sotsialistik (rejali iqtisodiyot bilan) ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga mansubligiga asoslangan tipologiya xukmron bo'lib keldi. Shuningdek, rivojlanayotgan yani "uchinchi dunyo" mamlakatlari – sobiq mustamlaka va qaram davlatlar ham mavjud edi. Sotsialistik tuzumning barbod bo'lishiga mutanosib ravishda mazkur tipologiya ham o'z ahamiyatini yo'qotdi (lekin, sotsialistik mamlakatlar hozirda ham mavjud).

Tipologiya o'zining ilmiy qiymatidan tashqari, katta amaliy ahamiyatga ham ega. Masalan, shunday tipologiyalar asosida BMT dunyo mamlakatlarining uzoq kelajak rivojlanish yo'nalishlari dasturini ishlab chiqadi, moliyaviy hamda gumanitar yordam berish uchun eng kam rivojlangan mamlakatlar guruhini aniqlaydi. Bunday mamlakatlar quyidagi uchta asosiy mezonga asoslanadi:

1. Aholi jon boshiga juda kam daromad to'g'ri kelishi;
2. Xo'jalik strukturasida ishlab beruvchi sanoat salmog'ining 10%dan kam bo'lishi;
3. Voyaga etgan (katta yoshdagi) aholi o'rtasidagi savodsizlik darajasi 80%dan yuqoriligi.

1990-yillarda bu guruhdagi ro'yhatga 40 mamlakat kyiriktildi (Afg'oniston, Gaiti, Gvineya, Bangladesh, Laos, Nepal, Butan, Mali, Mozambik, Somali, Burundi, Chad, Efiopiya va yuoshqalar).

### *Asosiy tayanch tushunchalar*

***Aralash tartibdagi hududlar*** **-** quruqlik (kontinent), materik sayozlili (dengiz va okeanlarning 200 metr chuqurlikkacha bo'lgan shelfi) hamda iqtisodiy mintaqalar.

***Xalqaro tartibdagi hududlar*** – davlat chegaralaridan tashqarida bo'lgan va xalqaro huquqqa binoan dunyoning barcha davlatlari umumiy foydalanadigan Er sharidagi bo'sh makonlar.

***Konstitutsion monarxiya*** – monarx ramziy "podsholik" qiladi, lekin davlatni boshqarmaydi. Real qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroiya hokimiyati- xukumatga qaraydi.

***Monarxiya tizimi*** – davlat hokimiyati monarxlar (qirol, knyaz, sulton, shoh, amir)ga qarashli bo'lib, hokimiyat meros orqali avloddan-avlodga o'tadi.

***Mutlaq monarxiya*** – monarx hokimiyati cheklanmagan. Xukumat va boshqa hokimiyat organlari faqat monarx oldida masul va javobgardir.

***Respublika tuzumi*** – qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlamentga, ijroiya hokimiyati xukumatga tegishlidir.

***Unitar davlat*** - mamuriy hududiy birligiga ko’ra yagona qonun chiqaruvchi va ijroiya hokimiyat, yagona davlat organlari tizimi, yagona konstitutsiya mavjud bo’lgan davlat.

***Federativ davlat*** – yagona (federal) qonunlar va hokimiyat organlari bilan bir qatorda ikkinchi darajali bo’lsada, o’zlarining qonunlari va hokimiyat organlariga ega bo’lgan boshqa davlat tuzulmalari – respublikalar, shtatlar, provintsiyalar, viloyatlar, kantonlar, hududlar mavjud bo’lgan davlat.

**Takrorlash uchun savollar va topshyirikqlar**

1. Dunyo siyosiy xaritasining o’zgarishiga tasir ko’rsatuvchi omillarga tarif bering.
2. Siyosiy xaritaning shakllanishidagi asosiy bosqichlarni tariflang.
3. Dunyo mamlakatlari davlat tuzumiga ko’ra qanday guruhlarga ajratiladi?
4. Dunyo mamlakatlarining qanday tiplarini bilasiz? Ularni tariflang.
5. Monarxiya va respublika nima? Ularning qanday farqlari bor?
6. Unitar va federativ davlatlar deganda qanday davlatlar tushiniladi?

## Mavzu: Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar. Yangi industrial davlatlar

### *1. Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tiplari*

Xozirgi vaqtda iqtisodiy va siyosiy geografiyada jahon mamlakatlarini iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan ayrim tiplarga ajratish masalasi eng muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu murakkb va ko’p jihatdan “nozik” muammo fan yutuqlari va erishgan tajribalarga tayangan holda hal etildi.

Mamalakatlarni ayri tiplarga ajratish avvalambor ularda mavjud aholi jon boshiga xos bo’lgan YaMM qiymati hisobga olinda undan keyin bosqichlarda YaMM umumiy qiymat, sanoati, qishloq xo’jaliga va xizmat ko’rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi va ularning iqtisodiyotda egallagan o’rin inobatga olindi. Mazkur jarayonda u yoki bu davlatning jahon iqtisodiy va siyosiy xamjamiyatidagi o’rni va ahamiyatiga katta etibor berildi.

Shunday qilib, ana shu metodologik tamoyillarga tayangan holda jahonda mavjud bo’lgan barcha 229 mamlakat etti tipga bo’linadi (22- jadval).

Barcha iqtisodiy ko’rsatkichlar bo’yicha I tip “ettilik davlatlari” tengi yo’q hisoblanadi.

İkkinchi tip mamlakatlari ularga hos iqtisodiy ko’rsatkichlarga binoan “ettilik davlatlari”ga juda yaqin turadi. Ushbu mamlakatlar soni 1997 yilda Gonkong va 2000 yilda Makaoni Xitoy Xalq Respublikasiga tarkibiga qo’shilishi hisobiga 2 taga qisqardi.

Uchinchi tip davlatlari iqtisodiy rivojlanishi suratlariga binoan I va II tip mamlakatlaridan ustun turadi. Xamda ushbular qatorini to’ldyirikb turuvchi asosiy manba hisolanadi. Shunday davlatlar qatoriga rivojlangan zamoniay qayta ishlovchi sanoatga, qishloq xo’jaligi xamda xizmat ko’rsatish sohasiga ega bo’lgan İsroil, Koreya Respublikasi, Yangi Zilandiya va ayniqsa İspaniya va Portugaliyani qo’shish mumkin.

To’rtinchi tip mamlakatlari ichida uchinchi va undan xam yuqori tip mamlakatlariga o’tish uchun Argentina, Urugvay, Chexiya davlatlari barcha imkoniyatlarga egadir.

Beshinchi tip mamlakatlari qatoriga iqtisodiy rivojlanishining katta imkoniyatlari Ukraina, Xorvatiya, Slovakiya, Vengriya, Polsha, Turkiya, Malayziya, JAR, Braziliya, Chili davlatlarida mavjuddir. O’zbekiston va boshqa shu tipga kirgan sobiq itfoq respublikalarining imkoniyatlari ham yuqori baholanmoqda.

Oltinchi tip mamlakatlarining iqtisodiy taraqqiyoti ko’p jihatdan ularda mavjud siyosiy vaziyatning barqarorlashishi hamda rivojlanishning demokratik yo’lini tanlab olishiga bog’liqdir. Shunday muammolar dast avval Tojikiston, Turkmaniston, Albaniya, Kombodja, Laos, Nikaragua, Armeniya, Ojarbajon, Gruziya, Uganda, Bangladesh, Pokiston davlatlariga hosdir.

Ettinchi tip mamlakatlari soni unchali katta bo’lmasa ham aynan shularga xos ijtimoiy-iqtisodiy muammolar jahondagi barqarorlik va tenglikka xavf solishi mumkin. Binobarin Nigeriya, KDR, Niger, Chat, Ruanda, Burundi, Sudan, Efiopiya va Epitriya mamlakatlarida yuz bergan va davom

etayotgan millatlararo mojorolar, urushlar, Afrikada va butun dunyoda siyosiy beqarorlikni keltyirikb chiqarayotgan eng muhim sabablardir.

### *2. Jahon iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida ustun ahamiyatga ega bo'lgan "ettilik" mamlakatlarining iqtisodiy-geografik tavsifi*

"Ettilik" mamlakatlari yuqorida qayd etib o'tilgan dunyo miqyosida YaMMning deyarli 3/2 qismini etkazib beradi. "Ettilik" mamlakatlarining barchasi yuqori darajada rivojlangan sanoat va qishloq xujaligi ishlab chiqarishiga hamda xizmat ko'rsatish sohasiga egadirlar.(24-jadval)

**"Ettilik" mamlakatlari band aholining tarmoqlar tarkibi%**

| **Davlatlar** | **Jami band aholi** | **Shu jumladan** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | **Sanoat va qurilishda** | **Q/x** | **Transport va aloqada** | **Savdo, texnika taminoti,** | **Boshqa tarmoqda** |
| AQSh | 100 | 24 | 3 | 6 | 21 | 46 |
| Yaponiya | 100 | 34 | 6 | 6 | 22 | 32 |
| Germaniya | 100 | 38 | 3 | 6 | 17 | 36 |
| Frantsiya | 100 | 29 | 5 | 7 | 17 | 42 |
| Buyuk Britaniya | 100 | 27 | 2 | 6 | 20 | 45 |
| İtaliya | 100 | 32 | 8 | 5 | 22 | 33 |
| Kanada | 100 | 23 | 4 | 6 | 24 | 43 |
| O'zbekiston | 100 | 20.8 | 28 | 6.5 | 9.3 | 35.4 |

Jadval malumotlaridan ko'rinib turganidek barcha "ettilik" mamlakatlarida sanoat yuqori daraja rivojlangan shu bilan birga band aholi salmog'ining qishloq xo'jaligida past ko'rsatkichlarga ega. Ushbu tarmoqni yuqori darajada mexanizatsiyalashganligi, jarayonlarni zamonaviy kompyuterlar vositasida boshqarilishi bilan bog'langan. Mazkur davlatlarning ko'pchiligi (AQSh, Kanada, Frantsiya, İtaliya) qishloq xo'jaligi maxsulotlari va xom ashyosiga bo'lgan ehtiyojlarining o'zlarining ichki ishlab chiqarish imkoniyatlari hisobiga to'la taminlaydi. Germaniya, Yaponiya va Buyuk Britanya mamlakatlari ham jami istemol q ladigan qishlo xo'jaligi maxsuloti va xom ashyosining 20-30%ini import qiladi holos. Eeng muhimi import bilan bog'langan xarajatlar boshqa qishloq xo'jaligi maxusulotlari eksporti hisobiga nafaqat qoplanadi, balki daromad ham keltiradi.

"Ettilik" mamlakatlari iqtisodiyotini naqadar yuqori darajada rivojlanganligini ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotining bazi bir asosiy turlari hisobida ham ko'rishimiz mumkin.

3. Rivojlanayotgan mamlakatlarning boshqa qutbida boshqa guruh va hududlar – "yangi industrial mamlakatlar" (YaİM) ajralib turadi. Bular qatoriga Singapur, Koreya Respublikasi, Tayvan, Braziliya, Meksika, Argentina kiradi. So'nggi yillarda ular qatoriga yana Tailand, Malayziya, İndoneziya, Filippin kabi davlatlar ham qo'shiladi. Bu mamlakatlarning iqtisodiyoti industrializatsiyaning yuqori suratlari, xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi.

***"Yangi industrial mamlakatlar" ning umumiy xarakteristikasi.*** (YaİM)

YaİM iktisodiy modellarining uziga xos tomonlari.

YaİM –xalkaro mexnat taksimoti sistemasida.

XX asrning 60-80 yillari rivojlanayotgan mamlakatlarning umumiy tuzilishida global uzgarishlarni vujudga keltirgan davr bulishi bilan bir katorda, YaİM ijtimoiy –iktisodiy tuzilishida xam yuksak uzgarishlar davri buldi.

"Yangi industrial mamlakatlar" rivojlanayotgan mamlakatlarning kupchiligidan parametrlarning barcha sistemalari buyicha ajralib turadi.

YaİMni rivojlanayotgan mamlakatlardan farklanib turuvchi tomonlar, ularni rivojlangan kapitalistik mamlakatlardan xam ajratib turadi. Ular rivojlanishning "Yangi industrial" modeli sifatida mavjuddir. Bu xarakterli tomonlar, Lotin Amerikasidagi xamda Osiyodagi YaİMning rivojlanish tajribasini analiz kilish jarayonida anik kuzga tashlanadi.

Lotin Amerikasidagi YaİM rivojlanish tajribasining muxim rolini pasaytirmasdan turib shu narsani takidlab utish joizki, Osiyodagi YaİM, aynan: Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur, kupchilik ozodlikka erishgan mamlakatlar uchun xalk xujaligining ichki dinamikasi buyicha xam, tashki iktisodiy munosabatlarning ekspantsiyasi buyicha xam, rivojlanishning uziga xos namunasi bulib koldilar. Odatda, “Yangi industrial mamlakatlar” katoriga Osiyodagi turtta kayd etilib utilgan Janubiy Koreya, Tayvan, Gonkong, Singapur shu bilan bir katorda Lotin Amerikasidagi YaİM – Argentina, Braziliya, Meksika kabi mamlakatlar taalukli bulib xisoblanadi. Nomma –nom sanab utilgan barcha mamlakatlar YaİMlarning byiriknchi avlodlari yoki byiriknchi kaldirgochlari bulib xisoblanadi. Ularning orkasida “YaİM”ning sunggi avlodlari etishib chikmokda. Masalan: ikkinchi avlod mamlakatlariga Filippin, Xitoyning Janubiy chegaralari va boshkalar kiradi. “Yangi industriallashuvning” butun boshli zonalari, yakin mintakalarda uz tasyirikni utkazayotgan iktisodiy usuvchanligi yukori bulgan kutblar paydo bulmokda.

BMT tomonidan ishlab chikargan metodika buyicha YaİM katoriga kiruvchi mamlakatlar u yoki bu kreteriyalar buyicha aloxida ajralib turadi. Ular kuyidagilardan iboratdir:

Yaxoli jon boshiga tugri keladigan yalpi ichki maxsulotlarning mikdori.

Uning urtacha yillik usish surati;

YaİM tarkibidagi kayta ishlash sanoatining umumiy mikdori. U 20% atrofida bulishi kerak;

Chikariladigan tovarlar umumiy mikdoriga nisbatan sanoat maxsulotlarining ulushi va eksport mikdori;

Xorijiy mamlakatlarga chikariladigan tugridan –tugri investitsiyalarning umumiy mikdori;

Bu kursatkichlar buyicha YaİM nafakat rivojlanayotgan mamlakatlar oldida ajralib turadi, balki ayrim xollarda bir kator sanoati rivojlangan mamlakatlar xam ushbu kursatkichlar buyicha ustunlikka ega buladi. Masalan, Tayvan, 1952-93 yillar oraligida YaİM xajmini 170 marotaba ustirdi. (axolining usishiga nisbatan 2,5 marotaba ortikrokdir), tashki savdo xajmini esa 543,6 marotabaga oshirdi. İnflyatsiyaning past darajada saklanganligi sharoitida –3,6%, iktisodiy usishning urtacha yillik surati 8,7% tashkil etdi. Tayvan ijtimoiy rivojlanish kursatkichlari buyicha dunyoning ilgor mamlakatlari katoriga kyiriktiladi. Axolisining jon boshiga tugri keladigan YaİM ning xajmi 12 ming dollarni tashkil kiladi. (90 yillarning urtalarida).

Osiyo regionidagi mamlakatlarning 30 yil oraligidagi iktisodiy rivojlanish surati xisoblab kurilganda (1960-1990) uning mikdori yiliga 5%ni tashkil etgan, usha paytda bu kursatkich Evropa mamlakatlarida 2%ga teng bulgan. Bu paytda, Tayvanda usish surati juda yukori bulgan. Shuningdek, 90 yillarda J.Koreya 8%, Singapur 8%, Malayziya 9% yillik usish suratiga ega bulgan.

“Yangi industrial mamlakatlar” iktisodiy rivojlanish suratining yukoriligi ular axolisining yashash sharoitlari yaxshilab borayotganligi bilan uygunlashib ketadi. Shuningdek, 60 yillarning urtalaridan 90 yillarning boshlariga kadar utgan davr ichida axoli jon boshiga tugri keladigan yillik daromad bu mamlakatlarda 4 marotaba usdi. Xalkaro eksportlarning prognoz kilishicha, 2010 yilga borib sharkiy Osiyo Garbiy Evropani yalpi milliy maxsulotning xajmi buyicha kuviyu utadi, 2020 yilga borganda esa Shimoliy Amerikani kuvib utadi.

13 –jadval.

Osiyoning “Yangi industrial mamlakatlar”idagi yalpi ichki milliy maxsulotning usish surati (%)da

Mamlakatlar 1980-90 yillar urtalarida 1991 y. 1992 y. 1993 y. 1994 y. J.Koreya 9,98,37,36,47,6 Tayvan 8,37,36,76,76,9 Gonkong7,14,05,85,45,5 Singapur6,37,06,16,06,1 Malayziya5,18,68,57,67,5

Singapur xakida shuni aloxida takidlab utish joizki, u 1995 yil Janubiy sharkiy Osiyo davlatlari ichida byiriknchi bulib “industrial rivojlangan mamlakat” statusini kulga kyiriktdi. Bunday unvon unga iktisodiy xamkorlik va rivojlanish tashkiloti (İXRT) tomonidan rasman elon kilindi. Barkaror iktisodiy usishning 3 yilligi davomida Sigapurga nisbatan past rivojlangan 10 mamlakat doirasidan ajralib chikib, dunyoning boy davlatlari katoridan joy oldi. (axoli jon boshiga tugri keladigan yalpi milliy maxsulot xisobiga). Siyosiy barkarorlik sharoitida mamlakatning sanoati yiliga urtacha 8,4% tezlik oborotiga ega buldi, mamlakatdagi axolining xam byirik esa uz yashash darajasini urtacha etti marotaba  orttirdi. Singapurdagi xar bir axolining urtacha statistik

daromadi 1995 yilda 22,3 dollarni tashkil etdi. AKSh sobik metropoliyalar xisobiga Buyuk Britaniyadan ancha yukori turadi.

Uz navbatida Gonkong xam Buyuk Britaniyaning sobik koloniyasi bulib xisoblanar edi, keyinchalik esa u kupchilik ijtimoiy-iktisodiy kursatkichlar buyicha uzining metropoliyali darajasidan yukori pogonaga kutarildi.

“YaİM”ning iktisodiy modeli va uning muvaffakiyatli rivojlanish tomonlari karab chikilayotganda, uning muvaffakiyatlarini taminlab beruvchi tashki va ichki darajasidan yukori omillar xususida xam tuxtalib utiladi. Kurinib turibdiki, omillarning bu ikki grux, YaİM xukumatlari tomonidan olib borilayotgan nozik, maksadli siyosatlar orkali tuldyirikb turiladi. “YaİM”ning ichki tuzilishidagi muammolarga, xamda ularning xujalik mexanizmlari tadrijiga asosiy etiborni karatmasdan, YaİM tashki iktisodiy omillarining uziga xos tomonlari va uning Osiyo “ajdarxolari”ning kuchayib borishidagi xamda Lotin Amerikasi YaİMining rivojlanishidagi rol xususida tuxtalib utamiz.

Jaxon tajribasi guvoxlik bermokdaki, xalkaro iktisodiy xamkorlikka aktiv kyirikshayotganda, u yoki bu mamlakatlar asosiy ishni xorijiy investitsiyalarni jalb etish xamda tashki savdoning usishiga zaruriy bulib xisoblanadigan sharoitlarni yaratishdan boshlaydi. Shunday ekan, bu mamlakatlar uz iktisodiyotlari doirasida texnologik xalklarning barcha buginlaridan foydalangan xolda tarkibiy kayta kurishlarga –xom ashyolardan esa texnologik sigimi yukori bulgan tayyor maxsulotlarga uta boshlaydi. Tarmoklarni rivojlantyiriksh va kayta tamirlash uchun eksportdan tushgan daromadlardan keng foydalanish, xalkaro mexnat taksimoti kulamida ancha istikbolli va “foydali” usul bulib xisoblanadi.

AKSh, Gremaniya, Yaponiya kabi bir kator mamlakatlar xuddi mana shu yullar orkali tarakkiy etgan. Shuningdek, AKSh asosan  xom ashyo, mevalar, payta, asal, kumir va shunga uxshash bir kancha maxsulotlarni eksport kilishdan boshlagan. GFR esa, 50 yillarda  -kumir, kora metallar, ximiyaviy maxsulotlar singari bir kancha maxsulotlarni ekport kilgan. Yaponiya tukimachilik, metalurgiya, ximiya maxsulotlarini eksport kilishdan boshlagan.

60 yillarda Sharkiy Osiyo va Lotin Amerikasidagi bir kator mamlakatlar –“YaİM” xudi shu yul orkali xarakat kildilar.

Ularning barchasi iktisodiy usishningtashki omillaridan samarali  foydalandilar. Shu urinda, sanoati rivojlangan mamlakatlardan xorijiy sarmoyalar, texnika va texnologiyalarni keng mikyosda jalb kilinganligini takidlab utish lozim buladi.

Kaysi sabablarga kura “yangi industrial mamlakatlar”ni rivojlanayotgan dunyodagi boshka mamlakatlardan ajratib kursaish mumkin?

Bir kator sabablarga kura, “yangi industrial mamlakatlar” ning bazi birlari sanoati rivojlangan mamlakatning muxim siyosiy va iktisodiy manfaatlari tasir doirasiga tushib koldi. Shuningdek, AKShning siyosiy manfaatlari tasir doirasi, asosan Sharkiy Osiyo mamlakatlarining “kommunistik tasyirikga” karshi turuvchi   Tayvan va Janubiy Koreya mamlakatlariga karshi karatildi.

Bu mamlakatlarga cheksiz iktisodiy va xarbiy jixatdan kullab kuvatlash yordamlari kursatildi. Masalan, Tayvanga 1,5 mlrd. dollar mikdorida yordam kursatildi. 1950-1965 yillar oraligidagi AKSh ning yordami, Tayvanda jalb etilgan jami investitsiyalarning  34% ini tashkil etdi, shu jumladan 74% infrastrukturaga, 59% kishlok xujaligiga va 13% sanoatga jalb etildi. Bularning xammasi Tayvan iktisodiyotining rivojlanishida tashlangan ijobiy kadam buldi.

“YaİM” zamonaviy iktisodiy tarkibining shakllanishida, tugridan –tugri investitsiyalarning tasyirik katta buldi. 80 yillarning byiriknchi yarmida “YaİM” iktisodiyotidagi tugridan –tugri investitsiyalarning mikdori, rivojlanayotgan mamlakatlardagi tugridan –tugri sarmoya kuyilmalarining 42% iga etdi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar orasida AKSh “yangi industrial mamlakatlar” dagi ishbilarmonlik sarmoyalarining eng kuzga kuringan investori bulib xisoblanadi. Ulardagi tugridan –tugriinvestitsiyalarning usishi, xorijiy mamlakatlardagi xuddi shunday investitsiyalar umumiy mikdorining 10% ini tashkil etadi. “YaİM” dagi tugridan –tugri investitsiyalarning mikdori buyicha Yaponiya ikkinchi urinda turadi.

Yaponiya investitsiyalari, “YaİM” ning industriallashuviga va ular eksportining rakobatbardoshligini oshyirikshga imkoniyat yaratdi. Ular “YaİM” ni sanoatda kayta ishlanadigan maxsulotlarning yirik eksportlariga aylanishida muxim rol uynaydi. Bunday investitsiyalar fakat 1982-1985 yillarning uzida Tayvanda 2 martadan kuprok, Gonkongda 61%ga usdi.

Bu paytda Yaponiya sarmoyalarining ishtirokida, ushbu mamlakatlarni yukori sifatli tayyor maxsulotlarning ekportyorlari bulib kolishiga imkon beruvchi yirik ishlab chikarish bazasi tashkil etildi. 80 yillarning boshlaridan etiboran, Yaponiya investitsiyalar umumiy mikdorining yarmisidan kuprogini tashkil etdi va ular ishtirokida stanoklar, elektronika jixozlari, dengiz kemalari va boshkalarni ishlab chikarish buyicha kompleks barpo etildi.

Osiyodagi “YaİM” uchun nu narsa xarakterli buldiki, ulardagi tadbirkorlik sarmoyalari, byiriknchi galda kayta ishlash sanoati va xom ashyo tarmoklariga tomon yunaltyirikldi. Uz navbatida, Lotin Amerikasining “YaİM” dagi ishbilarmonlik sarmoyalari esa, kuprok savdo, xizmat kursatish soxasi va kayta ishlash sanoatiga jalb etildi. Xorij xususan sarmoyalarining keng mikyosda tarkalishi shu narsaga olib keldiki, “YaİM” da xorijiy sarmoyalar ishtirok etmagan birorta xam iktisodiy tarmok kolamdi.

Kuyida 1993 yildagi Lotin Amerikasi va Osiyoning “YaİM” bozoridagi kuyilmalarning daromadlilik darajasi kursatilgan (%) larda:

Argentina –57,96
Braziliya –83,5
Meksika –39,87
Chili –38,92
İndoneziya –78,67
J.Koreya –26,03
Tayvan –103,98
Tailand –121,27
Filippin –165,18

Kurinib turibdiki, Osiyoning “YaİM” idagi investitsiyalarning daromadlilik darajasi Lotin Amerikasi mamlakatlarinikidan sezilarli darajada yukoridir.

Konuniy shunday savol tugiladi: nima uchun xorij xususiy sarmoyalarning barchasi Osiyo mintaqasidagi bazi bir mamlakatlarga nisbatan aktivrok kyirikb boradi?

60 yillarning oxyirikgia kelib, dunyo xujaligi rivojlanishidagi vaziyat shu kadar murakkablashdiki, transmilliy korporatsiyalar rivojlanishning manfaatlari va strategiyalari Osiyodagi bir kator davlatlarning imkoniyatlari va intilishlari bilan moslashib bordi. Rivojlanayotgan mamlakatlar importidagi turli xildagi cheklashlar va ularning uncha katta bulmagan tulov kobiliyatiga duch kelayotgan transmilliy korporatsiyalar, joylarda mos ishlab chikarishlarni yulga kuyish maksadida, sarmoyalarni chetga chikarish orkali tovarlar eksportini kisman yangilash tomon kadam kuymokda. Transmilliy korporatsiyalarning xuddi shu yualishlardagi faoliyati, rivojlangan mamlakatlar tuyingan bozorlarining konyukturasi, rakobatning avj olishi va ishlab chikarish xarajatlarini pasaytyiriksh uchun kurashish orkali amalga oshyiriklmokda. Transmilliy korporatsiyalar, uzlari faoliyat kursatayotgan joylarda ishlab chikarishni ilmiy asosda rivojlantyirikshga muxim etibor karatadi. Xarakterli tomoni shundaki, “Osiyo ajdarxolari” xalkaro iktisodiy konyukturalarining bunday uzgarishlarni kabul kilishga va ulardan uz maksadlari yulida foydalanishga tayyor ekanligi malum buldi.

Transmilliy korporatsiyalarni, aynan Osiyo mintakasiga jalb kilishda kuyidagi shart – sharoitlar muxim axamiyat kasb etdi.

“Yangi industrial mamlakatlar” ning foydali jugrofiy axvoli. Ularning barchasi dunyo savdo iktisodiy yullarining chorraxasida, yani jaxon xujaligi markazlari bulmish –AKSh va Yaponiyaga yakinrok joylashgan.

“Yangi industrial mamlakatlar” ning barchasida sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan munosib bulib xisoblanadigan avtokratik yoki shunga yakin bulgan siyosiy muxitlar yaratildi. Ularda siyosiy barkarorlik taminlandi va siyosiy xamda demokratik uzgarishlar iktisodiy isloxotlar

foydasiga tomon karatildi. Xorijiy investorlarga ular investitsiyalarining xavfsizligi uchun yukori darajali kafolatlar taminlandi.

Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” axolisiga xos bulgan mexnatsevarlik, intiluvchanlik, tartiblilik, matonatlilik singari noiktisodiy omillar xam katta axamiyat kasb etadi. Bu omilar malum darajada Osiyo va Lotin Amerikasidagi –YaİM ning ikki modeli urtasidagi uziga xos bulgan bellashuvda xal kiluvchi axamiyatga ega buldi.

Bu modellarning uziga xos tomonlari nimada?

Byiriknchisi -milliy iktisodiyotning tashki bozor va eksportga tomon ustivor yunalishlar orkali rivojlanishini tushuntyirikb beradi.

İkkinchi model –import urnini egallashga karatilgan.

Yuqorida birinchi modelda kursatib utilgandek, asrning oxiriga kelib AQSh, ikkinchi jaxon urishudan keyin –Garbiy Evropa davlatlari, Yaponiya, keyinchalik esa Osiyoning YaİM xam shu yuldan borishdi. İkkinchi model esa sezilarli darajada Lotin Amerikasining Yaim tomonidan uzlashtyirib olindi.

Jazon tajribasi shuni kursatadiki, impor urnini egallashga karatilgan ishlab chikarishni rivojlantyiriksh strategiyalari bir kator rivojlangan mamlakatlarning ik tarakkiyotida muxim rol uynaydi. İmport urnini egallash strategiyalari xujalik tarkibining xilma –xilligini taminlash imkoniyatini yaratadi. Kupchilik rivojlanayotgan mamlakatlarda ular uchun yangi va muxim bulib xisoblanuvchi mamlakatlarda, ular uchun yangi va muxim bulib xisoblanuvchi bir kator ishlab chikarish tarmoklari barpo etildi, kupchilik muxim yunalishlar buyicha uz –uzini taminlash darajasi usdi.

Shuningdek, import urnini egallashning dinamik va samarali davri, vaktning kup oraligini band etmaydi. İktisodiyotni tubdan islox kilishda asosiy yul bulib xisoblanuvchi import urnini egallashga muljallangan ishlab chikarishni rivojlantyirikshni asosiy uringa kuyuvchi barcha mamlakatlarda uz-uzidan jiddiy inkirozlar bulib utmokda. Gap shundaki, xorijiy kompaniyalar imtiyozli kreditlar va boshka tomondan rakobatlilik muxitining yukligi va protektsionizmga asoslangan milliy iktisodiyot faoliyat kursatishining “kullab –kuvvatlab turiluvchi” muxiti, tez moslashuvchan va samarali iktisodiy tizimlarning vujudga kelishiga yul kuymadi. Umuman olganda, import urnini egallash siyosati, rivojlanayotgan mamlakatlar faoliyatining dunyo xujaligida tub uzgarishlar yasashiga yul kuymaydi.

Bundan tashkari, import urnini egallash siyosati nafakat tashki omillarni pasayishiga yul kuymaydi, balki uning usishini xam taminlaydi. İmport urnini egallash printsiplariga uzok vakt tayanilganda, kolokligini bartaraf etish imkoniyati paydo buladi xamja mikyosidagi tarakkiyotga erishishni taminlovchi iktisodiyotdagi etakchi tarmoklarni vujudga kelishga xalakit beruvchi tusiklarga barxam beriladi.

Protektsionizm, ichki bozorlarni va biznesni ximoya kilish soralari sifatida kisman samarasiz ishalyotganiga karamasdan, uning monopol xolati va baxolarining keskin usayotlganligdan foydalanib foyda olayotgan maxalliy korxonalarni kullab –kuvvatlaydi.

İmport urnini egallash davri, kupchilik, rivojlanayotgan mamlakatlarda, shu jumladan “yangi industrial mamlakatlar” da xam uz nixoyasiga etdi.

İmport urnini egallash strategiyasi Lotin Amerikasidagi YaİM (Braziliy, Argentina, Meksika) uchun xilma –xil milliy iktisodiyotni barpo etish va bir kator tovarlarni ishlab chikarish buyicha jaxonda salmokli urinni egallash uchun imkoniyatlar yaratib, uzining ijobiy rolini uynaydi. Nima bulganda xam bu mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlarga nisbatan koloklik darajasini bartaraf etish uchun zaruriyat bulgan shart –sharoitlarni yarata olmadilar. Lotin Amerikasidagi YaİM kuchayib iktisodiy potentsialga ega bulishlariga karamasdan, Osiyodagi YaİMga nisbatan ancha kolok bulib xisoblanadi. Masalan, Braziliyaning yalpi ichki maxsuloti (YaİM) Sharkiy Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” ning umumiy yalpi ichki maxsulotiga nisbatan biroz kamrokdir. Lotik Amerikasidagi ekportining salmokli usishiga ega bulmasdan turib, uz iktisodiyotlarini talab darajasida tubdan islox kilishga erisha olmadilar.

İktisodiy usish suratlarining natijalariga karab, ichki iktisodiy muammolarni bartaraf etish uchun kamchiliklarga yul kuyildi. Bir vaktning uzida tashki muammolar xam vujudga keldi,

eksportning past darajada usishi, tulov balansi defitsitning xamda barcha yangi kreditlarga bulgan talablarning usishiga imkoniyat yaratdi. Bu mamlakatlar sanoati tarakkiy etgan mamlakatlardan eng ilgor bulmagan texnika va texnologiyalarni koloklik amalga oshyiriklgan bunday siyosatda mustaxkamlanib kolaveradi.

Kayd etish joizki, Lotin Amerikasidagi yangi industrial mamlakatlar 90 yillarning urtalariga kelib 80 yillarning uzok davom etgan inkirozidan chikib oldi. Amalga oshyiriklgan liberal iktisodiy usish suratlari kaytadan ortib bormokda, savdo balansining ijobiy savdosiga erishilmokda (Braziliya, Chili).

Lotin Amerikasidagi yirik YaİM dan biri bulib xisoblanuvchi Braziliyada olib borilayotgan siyosat –bu erda yangidan ochik iktisodiyotni yaratishga muljallangandir. Buning uchun ichki bozorlarda rakobat kurastuv muxiti yaratilayotgan bulib unga boglik xolda import tariflarida pasayish kuzatilmoqda. 1995 yilga borib MERKOSUR mamlakatlari urtasida bojxona cheklanuvchilarini tulik olib tashlash xakida rejalashtirmokda. Ushbu erkin savdo zonalarining tarkibiga: Braziliya, Argentina, Paragvay va Urugvay mamlakatlari kiradi. Yangi isloxotlarning kanchalik muvaffikiyatli kechishini yakin kelajak kursatadi.

Osiyodagi “yangi industrial mamlakatlar” iktisodiyotining eksportga muljallangan ancha samarali va tez moslashuvchan modelini joriy etdilar. Bu model, malum davr mobaynida bir vaktning uzida import urnini egallash siyosatini uz ichicha oladi. Eksportga muljallangan siyosat urnini egallashga muljallangan industriallashuvning tugallangan davrini kayta sodir etishni talab etmaydi. İmport urnini egallash va eksportga muljallangan siyosat bir –bir bilan tengma –teng xolda xakarat kilib, bazi davrlarda esa ular bir –biri ustunlikka xam ega bulishi mumkin. Shu bilan bir katorda eksportni kengaytyiriksh davriga eppasiga utish oldidan, import urnini egallash mamkalar ishlab chikarishining zamonaviy tizimlari shakllanishining boshida xalk xujaligi ananaviy sektorini kayta kurish uchun xarakat kilishdi. Buning natijasida esa, industriallashuvga utish mumkin bular edi.

Sharqiy Osiyodagi, shuningdek janubiy Sharqiy Osiyodagi kupchilik mamlakatlarda (Tayvanda, 50 –yillarda J.Koreyada; 60 yillarda –Malayziyada; 60 yillar 70 yillarning boshlarida –Tailandda; 50 yillarning boshlari 60 yillarning oxyirikda Filippinda;) import urnini egallash siyosati ustuvor yunalishga ega buldi. Gonkong va malum darajada Singapur, uzlarining tarixiy shart –sharoitlari, jugrofiy joylashuvi va ichki talabning seklanganligi tasyirikda ishlab chikarishni kuprok eksportga karatdilar. Maxalliy ishlab chikarishni ragbatlantiruvchi chora –tadibrlar, kayta ishlash sanoatidagi foyda meyorini oshyirikshga olib kelishi, istemol maxsulotlar, sungra esa oralik talabga ega tovarlar va uzok muddatli foydalanishga muljallangan tovarlar ishlab chikaruvchi tarmoklarning asta –sekinlik bilan import urnini egallashga olib kelishi kerak.

Janubii Koreya shu yillarning uzida jaxon bozoriga xuddi shu maxsulotlarning mos ravishda 2,9; 3,4; 9,6; 9,3; 11,1 va 9,6% ini etkazib berdi. Bundan tashkari, uning jaxon kemasozlik sanoati eksportidagi ulushi 13,1% ga tugri keldi.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari” sanoat eksportining yukori dinamikasini takidlagan xolda, aytish kerakki, ananaviy tovarlar eksporti tashki savdo oborotida avvalgidek muxim, ayrim tovarlar buyicha esa xal kiluvchi urinni egallardi. Masalan, xom ashyo va ozik-ovkatning Janubii Koreya va Tayvan eksportidan ulushi mos ravishda 7,1 va 7% ga teng edi. 1990-91 yillarda eksportda kiymati buyicha ikkinchi urinni Janubiy Koreyada poyafzal, Tayvanda esa uyinchoklar va sport tovarlari egallardi.

Janubii Koreya eksportida turtinchi urinda xamon sintetikadan tayyorlangan tekstil tovarlari, Tayvannikida ettinchi urinda poyafzal turadi.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari” eksporti ayniksa mashina va uskunalar eksporti fondida Xindiston va Lotin Amerikasi YaİD ning kuchsizlanishi sezilarlidir. Agar Lotin Amerikasi YaİD tovar eksportinig rivojlangan davlatlar umumiy eksportidagi ulushi 1992 yilda 1980 yilga nisbatan unchalik kamaymagan (-0,5%) bulsada, mashina va uskunalar ulushi kariyb 1,8 barobar kamaydi. Aynan shu mashintexnik maxsulotlar eksporti rivojlangan davlatlarning xalkaro mexnat taksimotidagi xolatlari yaxshilanishining eng muxim omilidir.

Osiyo “Yangi industrial davlatlari”ning faol tashki savdo siyosati 90-yillar boshida AKShning Osiyo-Tinch okeani regioni davlatlari bilan yillik uzaro savdosi xajmi (128,4 mlrd. doll.) byiriknchi marta Garbiy Evropa bilan savdo oboroti (117,1 mlrd. doll.) yukori buldi. Bunda Osiyo YaİD (Yaponiyani kushib xisoblaganda) AKSh bozorida avtomobillar va elektrontexnikaning 30% ini, tekstil va tikuvchilik maxsulotlarining 50% ini egallaydi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida eng yirik chet el kapitali importyori bulgan “Yangi industrial davlatlar” 80-yillar oxyirikdan chikishning geografiyasi ancha keng. Bu avvalo, ilgor sanoati rivojlangan davlatlar, Osiyo-Tinch okeani regionidagi rivojlanayotgan davlatlar, kapitalning yangi bozorlaridir. Masalan, Janubiy Koreya firmalari AKShda anik maksadga yunaltyiriklgan eksport ekspansiyasini utkazmokdalar. Amerika iktisodiyotiga kapital kuyib, Janubiy Koreyaliklar eng yangi texnologiyalarga yul ochmokdalar. Boshka Osiyo “ajdarxo”lariga xam kapital olib chikishni kupaytirmokdalar. Masalan, Tayvanning kitadagi karindoshi Xitoyga bulgan kizikishi juda sezilarlidir. 90-yillar urtalarida Tayvanning XXRdagi investitsiyalari 9 mlrd. doll.dan oshib ketdi. Uz navbatida Gongkonglik ishbilarmonlar XXRda ruyxatga olingan kushma korxonalarning yarmidan kupogini tashkil kilganlar. Keyingi yillarda Osiyo YaİD Rossiya tovar va investitsiyalar bozorlarida xam faollik kursatmokdalar. Bu erda oldingi urinda Koreya Respublikasining ishbilarmonlari bormokdalar. Aytib utish kerakki, Osiyo-Tinch Okeani regioni davlatlarining ichki regional tovar ayirboshlash (1,9-2,1 trln doll.)dan Rossiya xisobiga bor-yuti 1% tugri keladi. Bu esa, Rossiyaning buyuk Osiyo-Tinch okeani davlati degan mavkeiga mos kelmaydi. Shuning uchun “yangi industrial davlatlar” bilan xam, Osiyo-Tinch okeani mintakasining boshka davlatlari bilan xam savdo-iktisodiy alokalarni faollashtyiriksh Rossiyaning muxim strategik vazifasidir.

XX-asrning 50-yillarida ruy bergan *jaxon xujaligi* baynalmilallashuvi jarayoninig tezlashishi rivojlanayotgan davlatlarni, byiriknchi navbatda “yangi industrial davlatlar”ni xam kamrab oldi.

İshlab chikarish, mexnat va kapital bozorlari tovar ayirboshlash jarayonlarining baynalminallashishiga moliya bozorlarining baynalminallashuvi kushildi. Bu YaİD ning valyuta axvoli kuchayishi va ularning kredit imkoniyatining usishi, milliy moliya bozorlarining rivojlanishi, moliyaviy saloxiyatining oshishi bilan boglik. Kupgina “yangi industyirikal davlatlar” milliy moliya bozorlari tashkil topishining byiriknchi boskichidan utdilar va ular faoliyatini liberallashtyirikshning ikkinchi boskichiga kyirikshdilar. Bu esa ularning xalkaro moliya munosabatlari tizimiga faol integratsiyalashuviga asos yaratildi. Kapital xarakati baynalminallashuvi jarayoni xatto rivojlangan davlatlar orasida xam yakunlanishdan uzok, rivojlanayotgan davlatlar xakida gapirmasa xam buladi. Shunga karamasdan, bazi bir “yangi industyirikal davlatlar” bu yulda sezilarli kadamlar kuydilar. Bunga 70-yillarda yangi xalkaro moliya markazlarining xosil bulishi va tez usishini kyiriktish mumkin. Avvalo Singapur va Gonkongda. Tayvan XXI asr boshida Osiyo-Tinch okeani regionidagi yirik valyuta-moliya markaziga aylanishni uz oldiga maksad kilib kuydi. Osiyo YaİD xalk,aro moliya markazlari kredit-moliya operatsiyalari utkazish mikyosi buyicha London, Parij, Tsyurix kabi yirik moliya markazlari bilan bir katorga chikib, ularni ssuda kapitali bozoridan jiddiy sikib chikardilar.

Osiyo YaİD iktisodiy evalyutsiyasining xarakterli tomoni, ularning bir-byirikga kizikishining tobora oshishi bulib kolmokda. Fakat sanoati rivojlangan Fap6 davlatlariga yunaltyiriksh ustivor tendentsiyasi, uz regioni va yakin bulgan subregionda savdo-iktisodiy xamkorlar kidyiriklishi bilan tuldyiriklmokda. Ammo bu Osiyo YaİDning uz maxsulotlari rakobatbardoshliligini oshyirikshga etibor bermayapti degani emas. 90-yillar urtalarida tovarlarning rakobatbardoshligi buyicha jaxondagi byiriknchi beshlikda Singapur, Gonkong, Tayvan bor.

Bu davlatlarda kabul kilingan iktisodiy strategiyaning asosiy yunalishi bulib ilmtalab maxsulotlar ishlab chikarish kolmokda. Mexnat talab va past rentabelli ishlab chikarishlar “ikkinchi okim” YaİD, shuningdek, Xitoy va Vetnamga “topshyiriklmokda”. Natijada bu ishlab chikarishlarni bir paytlar sodir bulgan sanoati rivojlangan davlatlardan byiriknchi avlod “yangi industrial davlatlar”ga kuchish jarayoni amalda kaytarilmokda.

YaİD rivojlanishidagi kulga kyiriktilgan yutukdar, ularning jaxon xujaligiga integratsiyasi ular, iktisodiy usishining istikbollari, *xolk*, turmush darajasining usish va ularning tashki iktisodiy ekspansiyalarining oshishi etarli daraljada kulay deb ishonch bilan aytishga imkon beradi. XXI asrda bu davlatlar jaxon iktisodiy xukmronligida yukorirok, urin egallaydilar va yangi muxim natijalarni namoyish k,iladilar. Jaxon banki prognozlariga karaganda, yakkin 10 yil mobaynida usishning urtacha suratlari Janubiy Osiyoda - 5,49%, Sharkay Osiyoda - 7,7%, Lotin Amerikasida - 3,5% ni tashkil kdladi. Shark,iy Osiyoda kishi boshiga tugri keladigan daromadning usishi 1996-2004 yillarda yiliga 6,6% ga teng bulishi kutilmokda. Urta x,isobda erda yashaydigan x,ar bir kishiga tugri keladigan daromad yiliga 1,9% ga usadi.

**ADABTYOLAR**

1. Andrianov V.D. Novıe industrialnıe stranı. - M.: Nauka, 1990.
2. Lavrentev V.N, Novue industrialnue stranu Azii: perestroyka promushlennoy strukturu. - M.: Nauka,
3. Sucheva V.A. Trujeniki chetıryox “malenkix drakonov”. - M.:
Nauka, 1991.

**Asosiy tayanch tushunchalar.**

**Salohiyat** – malum makon doirasidagi resurslarni umumlashtyiriksh jamlash yo’li bilan baholash.

**İqtisodiy salohiyat** – jamiyatni tabiiy va inson resurslari bilan taminlanganlik darajasini hamda undan foydalanish bo’yicha imkoniyatlarning hali mavjudligini anglatadi va ana shu imkoniyatlar miqyosi bilan baholanadi.

**Tabiiy resurslar** – tabiat, tabiiy muhit bilan bevosita bog’liq bo’lan, jamiyat o’zining kundalik extiyojlarini qondyiriksh maqsadida foydalanayotgan tabiat komponentlaridir.

**Tipologiya** - o’rganilayotgan obektlar (mamlakatlar)ni sifat belgilari bo’yicha bir byirikdan farq qiluvchi tiplarga ajratish.

**Jahon mamlakatlarining tipologiyasi**

| **Mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga binoan tiplari** | **Mamlakatlar soni** | | **maydoni** | | **YaMM $** | | **Ax j/b YaMM $** | **Ah j/b YaMM. Nisb. indek** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **Son** | **%** | **m kv km** | **%** | **Mlrd $** | **%** | | |
| I.İqtisodiy salohiyati va rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo'lgan "ettilik davlatlari" | 7/7[2] | 3.1/ 3.1 | 21168/ 21168 | 15.8/ 15.8 | 19622/ 15861 | 63.5/ 61.7 | 28520/ 25500 | 5.5/5.7 |
| II.İqtisodiy rivojlanganlik darajasi juda yuqori bo'lgan mamlakatlar | 17/19 | 7.4/ 8.3 | 9197/ 9197 | 6.8/ 6.8 | 2471/ 2156 | 8.0/8.4 | 27764/ 25069 | 5.4/5.6 |
| III.İqtisodiy va intelektual salohiyati katta bo'lgan, yuqri darajada rivojlangan mamlakatlar. | 12/12 | 5.2/ 5.2 | 1596/ 1596 | 1.2/ 1.2 | 1798/ 1484 | 5.8/5.8 | 12486/ 10912 | 2.4/2.4 |
| IV.Rekreatsion va intelektual resurslarga, qulay iqtisodiy-geografik o'ringa ega bo'lgan, iqtisodiyoti tez suratlar bilan rivojlanayotgan mamlakatlar | 20/20 | 8.7/ 8.7 | 3060/ 3060 | 2.3/ 2.3 | 436/ 317 | 1.4/1.2 | 8074/ 7204 | 1.6/1.6 |
| V.Jahonda eng ko'p sonli, iqtisodiy va intelektual salohiyati xilma-xil mulkchilik shakllariga asoslanib rivojlanayotgan mamlakatlar. | 84/84 | 36.7/ 36.5 | 51251/ 51251 | 38.2/ 38.2 | 4243/ 3794 | 13.7/ 14.8 | 3064/ 2810 | 0.6/0.6 |
| VI.Tabiiy va ayniqsa inson salohiyati ulkan, lekin iqtisodiy taraqqiyoti darajasi ancha past va suratlar xar xil bo'lgan mamlakatlar | 56/56 | 24.5/ 24.3 | 28045/ 28045 | 20.9/ 20.9 | 2235/ 1984 | 7.2/7.7 | 735/672 | 0.14/ 0.15 |
| VII.Xo'jaligining taraqqiyot darajasi va suratlari juda past, inson resurslariga boy bo'lgan, iqtisodiy qoloq mamlakatlar | 33/32 | 14.4/ 13.9 | 19971/ 19971 | 14.8/ 14.8 | 122/ 104 | 0.4/0.4 | 210/202 | 0.04/ 0.05 |
| Jami | 229/ 230 | 100/ 100 | 134288/ 134288 | 100/ 100 | 30927/ 25700 | 100/ 100 | 5170 | 1.0/1.0 |

Каср махражида 1995 йилги, суратида 1999 йилнинг 1,07 га нисбатан олинган маълумотлар.

**“Sakkizlik” davlatlarini sanoat mahsuloti bazi bir turlarini ishlab chiqarish bo’yicha dunyoda egallagan o’rinlari**

| Davlatlar | El/en i/ch mlrd | | Neft qazib olish | | Tab.gaz qazib olish | | Ko’mir qazib olish | | Po’lat eritish | | Avtomobil i/ch | | Tsement i/ch | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Mlrd kvt/s | % | Mln t | % | Mlrd kub M | % | Mln t | % | Mln t | % | Mln dona | % | Mln t | % |
| AQSh | 3800 | 31,7 | 350 | 10,6 | 58 | 2,4 | 900 | 18,0 | 90 | 13,8 | 8 | 22,9 | 75 | 6,8 |
| Yaponiya | 910 | 7,6 | 1 | 0,0 | 3 | 0,1 | 7,5 | 0,2 | 100 | 15,4 | 9 | 25,7 | 90 | 8,2 |
| Germaniya | 550 | 4,6 | 3 | 0,1 | 2 | 0,1 | 300 | 6,0 | 40 | 6,2 | 4 | 11,4 | 40 | 3,6 |
| Frantsiya | 513 | 4,3 | 3 | 0,1 | 4 | 0,2 | 10 | 0,2 | 20 | 3,1 | 3,5 | 10,0 | 22 | 2,0 |
| B. Britaniya | 345 | 2,9 | 98 | 3,0 | 75 | 3,1 | 70 | 1,4 | 17 | 2,6 | 1,5 | 4,3 | 9 | 0,8 |
| İtaliya | 240 | 2,0 | 5 | 0,2 | 25 | 1,0 | 1 | 0,0 | 30 | 4,6 | 1,4 | 4,0 | 40 | 3,6 |
| Kanada | 577 | 4,8 | 85 | 2,6 | 16 | 0,7 | 75 | 1,5 | 16 | 2,5 | 1,5 | 4,3 | 10 | 0,9 |
| İspaniya | | | | | | | | | | | | | | |
| O’zbekiston | 48 | 0,4 | 8 | 0,2 | 50 | 2,1 | 3 | 0,1 | 1 | 0,2 | 0,2 | 0,6 | 6 | 0,5 |
| | 12000 | 100 | 3300 | 100 | 2400 | 100 | 5000 | 100 | 650 | 100 | 35 | 100 | 1100 | 100 |

Hududning kattaligi bo’yicha dunyoda maydoni 3 mln.kv.km. dan ortiq bo’lgan 7 davlat bo’lib, ular hissasiga Er yuzi quruqligining 1/2 qismi to’g’ri keladi. Ular quyidagilar (mln km$^3$):

1. Rossiya Federatsiyasi-17,1;
2. Kanada-10;
3. Xitoy-9,6;
4. AQSh-9,4;
5. Braziliya-8,6;
6. Avstraliya-7,7;
7. Hindiston-3,3;

Bulardan tashqari byiriknchi o’nlikka Argentina (2,8 mln.kv.km), Qozog’iston (2,7 mln.kv.km.), Sudan (2,5 mln km$^3$) kabi davlatlar ham kiradi.

Dunyoda maydoni eng kichik mamlakatlar quyidagilar:

1. Vatikan-0,0004 ming kv.km. (44 ga), aholisi-0,0008 mln kishi (0,8 ming kishi);
2. Andorra-0,5 ming km.km., aholisi-0,05 mln.kishi;
3. Lixtenshteyn-0,2 ming kv.km., aholisi-0,2 mln kishi;
4. Monako-0,001 ming kv.km., aholisi-0,025 mln kishi;
5. San-Marino-0,06 ming kv.km., aholisi-0,0024 mln kishi;
6. Lyuksemburg-2,6 ming kv.km., aholisi-0,372 mln kishi;

Aholisining soni 100 mln.dan ko’p bo’lgan 10 ta mamlakat bo’lib, ularda dunyoning 3/5 mln aholisi yashaydi. Bular quyidagilar:

1. Xitoy-1,2 mlrd kishi;
2. Hindiston-885 mln kishi;
3. AQSh-263 mln kishi;
4. İndoneziya-190 mln kishi;
5. Braziliya-160 mln.kishi;
6. Rossiya-148 mln kishi;
7. Pokiston-125 mln kishi;
8. Yaponiya-124 mln kishi;

9. Bangladesh-122 mln kishi;
10. Nigeriya-120 mln kishi;

Geografik o'rnining xususiyatlariga ko'ra mamlakatlar dengiz bo'yi, yarimorol, orol, arxipelag va dengizga chiqish yo'li bo'lmagan davlatlarga bo'linadi. Bundan tashqari mamlakatlar siyosiy geografik o'rniga (SGO') ko'ra makro, mezo va mikro - o'rin dunyo siyosiy xaritasidagi o'rni xususiyatlarini ko'rsatadi. U mamlakatning dunyoning eng muhim iqtisodiy markazlari, transport va savdo yo'llari, davlatlar integratsiya guruhlari, turistik (sayohat) oqimlariga nisbatan baholanadi. Shu sababdan geografik o'rin iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega. Mamlakatning qulay SGO' va iqtisodiy geografik o'rniga (İGO') misol qilib "kvartira beruvchi va topshiruvchi", "vositachi" kichik mamlakatlarni ko'rsatish mumkin (Singapur, Bagam orollari). Ular o'zlarining qulay geografik o'rnidan samarali foydalanib, xalqaro geografik mehnat taqsimotida salmoqli o'rinni egalladilar. İGO' va SGO'ning ancha noqulayligiga misol qilib ochiq dengizga chiqish yo'li bo'lmagan mamlakatlarni ko'rsatish mumkin. Ularning soni 39ga etdi: Armaniston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston, Moldova, Botsvana, Burkina-Faso, Burundi, Zambiya, Zimbabve, Lesoto, Malavi, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, MAR, Chad, Efiopiya (Afrika), Andorra, Avstriya, Vengriya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Makedoniya, Chexiya, Slovakiya, Shveytsariya, Belorussiya (Evropa), Afg'oniston, Butan, Laos, Mongoliya, Nepal, Ozarbayjon (Osiyo), Boliviya, Paragvay (Lotin Amerikasi).

O'zbekiston Respublikasining siyosiy-geografik o'rni xususiyatlari Prezident İ.A. Karimovning quyidagi so'zlarida to'la o'z ifodasini topgan: "Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan O'zbekiston xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yish nuqtai nazaridan va o'z taraqqiyot istiqbollari jihatidan qulay jo'g'rofiy-strategik maqega ega. Qadim zamonlarda Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan Buyuk İpak yo'li O'zbekiston hududi orqali o'tgan. Bu erda savdo yo'llari tutashgan, tashqi aloqalar hamda turli madaniyatlarning bir-byirikni boyitish jarayoni jadal kechgan. Bugungi kunda ham Evropa va Yaqin Sharqda Osiyo-Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar shu erda kesishadi".

Mezo İGO' va SGO' - mamlakatning o'z regioni yoki sub regiondagi odatdagi o'rnidir. Uni baholashda dastavval siyosiy, o'zaro munosabatlarni belgilab boradigan bevosita qo'shnichilikning tavsifi alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga misol qilib bir tomondan yaxshi qo'shnichilik munosabatlariga ega bo'lgan GFR va Frantsiya, AQSh, Kanada, Yaponiya va Koreya Respublikasi, Rossiya va Finlyandiya, boshqa tomondan "sovuq" qo'shnichilik munosabatlari mavjud bo'lgan İsroil va Arab mamlakatlari, İroq va Quvayt, AQSh va Kuba, Armaniston va Ozarbayjonni ko'rsatish mumkin.

So'nggi yillarda o'zining siyosiy geografik o'rnining yangi imkoniyatlaridan, byiriknchi navbatda MDH mamlakatlariga nisbatan Turkiya, Eron, Pokiston, Afg'oniston keng miqyosda foydalandilar. Dunyo xaritasida yangi davlatlarning paydo bo'lishi – sobiq sovet respublikalari, O'zbekistonning mezoo'rnini o'zgartirdi va mamlakatning shimoliy, sharqiy, g'arbiy chegaralarida Markaziy Osiyo subregioni, janubda Afg'oniston bilan chegaradoshlik mutlaqo yangi geosiyosiy vaziyatni yuzaga keltirdi.

Mamlakatning mikro-iqtisodiy geografik o'rni tushunchasi iqtisodiy siyosiy va harbiy strategik nuqtai nazardan mamlakat chegaralari ayrim qismlarining chegara rayonlarining chegaradosh qo'shni mamlakatlar bilan tutashishi, aloqa qilishi munosabatining qulay yoki noqulayligini bildiradi. Shu nuqtai nazardan O'zbekistonning barcha viloyatlari bir yoki bir nechta chet mamlakatlar bilan chegaradoshligi muhim ahamiyatga egadir.

Turon-Turkiston subregioni hamda qo'shni mamlakatlar (Markaziy Osiyo va Afg'oniston, Eron va boshqalar) ustida O'zbekiston g'oyat qulay iqtisodiy geografik va siyosiy geografik mavqega egadir. "Mintaqada, - deydi İ.A.Karimov, -ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakat, katta manaviy va madaniy kuch-qudratga ega bo'lgan O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi xalqa vazifasini o'taydi. O'zbekiston bilan faol hamkorlik qilish orqali butun Markaziy Osiyo mintaqasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati ochildi".

Hozirgi paytda ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish darajasi va xarakterini hisobga olib dunyo mamlakatlari quyidagi uchta eng katta tipga bo'linadi:

1. İqtisodiy yuqori darajada rivojlangan davlatlar;
2. Rivojlanayotgan (kam rivojlangan) mamlakatlar;
3. Postsotsialistik (sotsialistik tuzumdan rivojlanishning bozor iqtisodiyoti yo'nalishiga o'tgan) va sotsialistik mamlakatlar.

So'nggi guruhga sobiq sotsialistik mamlakatlar (Polsha, Ruminiya, Vengriya, Chexiya, Slovakiya, Bolgariya, Albaniya, Yugoslaviya (YuSFR parchalanishidan keyin tashkil topgan barcha mamlakatlar), Mongoliya, Sobiq SSSR o'rnida tashkil topgan barcha mustaqil davlatlar, shuningdek, sotsialistik mamlakatlar (Xitoy, Vetnam, KXDR, Kuba) kiradi. Jahon sotsialistik xo'jalik tizimi barbod bo'lgandan keyin ularning ko'pchiligida iqtisodiyot bozor iqtisodiyoti yo'nalishida qayta qurilmoqda.

Ko'pchilik xalqaro tashkilotlarning rasmiy xujjatlarida postsotsialistik mamlakatlar va o'zlarini sotsialistik mamlakatlar deb hisoblovchi mamlakatlar alohida guruhga ajratilib kelinmoqda. Shunisi diqqatga sazovorki, ularning ayrimlari (masalan: Sobiq Yugoslaviya respublikalari, Vetnam, bazi O'rta Osiyo mamlakatlari) aholi jon boshiga kam daromad to'g'ri kelishini hisobga olgan holda rivojlanayotgan mamlakat maqomini olish istagini bildirmoqda. Chunki bu ularga xalqaro bank va fondlardan imtiyozli kredit va turli xil yordam olish huquqini beradi.

Rivojlangan mamlakatlarga eng avvalo AQSh va Kanada, G'arbiy Evropa mamlakatlari, Yaponiya, Avstraliya İttifoqi, Yangi Zelandiya, Janubiy Afrika Respublikasi va İsroil kiradi. Ular bozor munosabatlari rivojining etukligi, xususan monopoliya va davlatni yagona mexanizm bilan birlashtirgan davlat monopolistik kapitalizmining etukligi, qudratli ilmiy texnika salohiyatining mavjudligi bilan g'oyat katta salmoqqa ega. Masalan, 1995 yilda dunyo ichki yalpi mahsulotida Evropa İttifoqi 21%, AQSh 24%, Yaponiya 10% (jami 55%) o'rin olgan.

O'z navbatida rivojlangan mamlakatlar ichki farqlarga ko'ra to'rtta kichik tipga (guruhga) bo'linadi:

1. Asosiy kapitalistik mamlakatlar; AQSh, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, İtaliya;
2. G'arbiy Evropaning uncha katta bo'lmagan iqtisodiy yuqori darajada rivojlangan mamlakatlari: Shveytsariya, Avstriya, Belgiya, Niderlandiya, Shvetsiya, Norvegiya, Daniya;
3. Kapitalistik munosabatlar "ko'chyirikb" keltyiriklgan mamlakatlar;

a) rivojlanishning o'rtacha darajasiga erishgan mamlakatlar: İrlandiya, Finlyandiya;

b) rivojlanishda orqada qolgan mamlakatlar (Evropa mezonlari bo'yicha): İspaniya, Gretsiya, Portugaliya;

Rivojlangan mamlakatlar dunyo siyosati va iqtisodiyotida tutgan o'rniga ko'ra ikki katta guruhga bo'linadi:

1. Asosiy ettilik – AQSh, Yaponiya, GFR, Frantsiya, Buyuk Britaniya, İtaliya, Kanada. Ularning peshqadamligi (liderligi) dunyo siyosati va iqtisodiyotida muhim o'rin tutishi, yuksak mehnat unumdorligi, fan va texnika rivojidagi muvaffaqiyatlari bilan belgilanadi. Ular o'tmishda yirik mustamlakachi davlatlar bo'lib, mustamlakachilar hisobiga katta daromad manbaiga ega bo'lganliklari ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Rivojlangan mamlakatlarning qolganlari ikkinchi guruhni tashkil etadi (Avstriya, Belgiya, Daniya, Niderlandiya, Shvetsiya va boshqalar). Ular ko'pincha "katta ettilik" mamlakatlarining iqtisodiy va siyosiy munosabatlarida bog'lovchi xalqa sifatida ishtirok etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari orasida yaqin vaqtlargacha rivojlanayotgan mamlakatlarga xos iqtisodiyotga ega bo'lgan yangi industrial mamlakatlar alohida o'rin egallab keldilar (Singapur, Argentina, Koreya Respublikasi, Braziliya va boshqalar). Ular bozor munosabatlari rivojlanayotgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli etuklik darajasiga ko'tarilgan. Ularda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishning nisbatan yuqoriligi, mehnatning industrial shakllari tarqalganligi, iqtisodiyotning tarmoq tarkibining nisbatan rivojlanganligi, ishlab beruvchi sanoat mahsulotlari eksporti, ishchi kuchlarining arzonligi bilan ajralib turadi.

Odatda rivojlangan davlatlar qatoriga Sobiq SSSR respublikalari va sharqiy Evropaning ayrim mamlakatlarini ham qo'shadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar (iqtisodi kam rivojlangan mamlakatlar) dunyo xaritasida eng ko'p tipli va sonli davlatlardir. Ular asosan Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi, Okeaniyadagi sobiq mustamlakalar bo'lib, ularning mustamlaka o'tmishi va u bilan bog'liq qashshoqlik, moliya manbalarining yo'qligi bilan bog'liq ichki va tashqi qiyinchiliklar, siyosiy mustaqillik va iqtisodiy qaramlik, kapitalistik tovar xo'jaligini yuritish tajribasi yo'qligi, xo'jalikning kapitalizmga xos shakllarining saqlanib qolganligi, iqtisodiyotning agrar xom-ashyo tavsifi, malakali kadrlarning etishmasligi, industrial rivojlangan mamlakatlarda g'oyat katta tashqi qarzdorlik (1 trln dollardan ko'proq) va boshqa xususiyatlar birlashtiradi. Mazkur vaziyatni fuqarolar urushi, etnik-milliy ziddiyatlar yanada chigallashtirmoqda. Xalqaro mehnat taqsimotida ular iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga xom-ashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etkazib beradi va shu sababdan mustahkam pozitsiyani egallamaydi. Shu bilan bir qatorda ularning barchasi aholining tez ko'payishi bilan bog'liq holda aholi ko'pchilik qismining ijtimoiy ahvoli yomonlashmoqda, mehnat resurslarining ortiqchaligi yaqqol namoyon bo'lmoqda, oziq-ovqat muammolari keskinlashmoqda.

Umumiy xususiyatlarning bo'lishi bilan bir qatorda bu guruh mamlakatlar (ularning soni 150ga yaqin) bir-birlaridan tubdan farq qiladilar. Shu sababdan ularning quyidagi kichik tiplarini ajratish mumkin:

1) Muhim davlatlar: Braziliya, Meksika, Hindiston, (ular rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida eng katta iqtisodiy potentsialga ega)

2) Kapitalizm nisbatan etuk mamlakatlar. Ularning diapozoni (ko'lam chegaralari) katta bo'lib, Lotin Amerikasi davlatlaridan tortib to kapitalistik munosabatlar hukmronligi faqat so'nggi o'n yilliklarda o'rnatilgan arab mamlakatlargacha qamrab oladi. Ular o'rtasida quyidagi kichik tiplar ajratiladi:

a) kapitalizmning qaram shaklining ilk rivojlanishi bilan bog'liq holda kapitalistik munosabatlar ko'chyirikb keltyiriklgan mamlakatlar: Argentina va Urugvay (xalqaro mehnat taqsimotida agrar davlat sifatida qatnashadilar);

b) asosiy tabiiy resurs konlarini chet el kapitali egallab olgan mamlakatlar: Chili, Eron, İroq, Jazoir (yirik konlarni ekspluatatsiya qilish bilan bog'liq holda rivojlangan va bunda chet el kapitalining asosiy o'rinni egallashi va shiddatli yopyiriklishi kuzatilayotgan davlatlar);

v) kapitalizm tashqi iqtisodiy aloqaga moslashgan yo'nalishda rivojlangan mamlakatlar (iqtisodiyotning eksport orientatsiyasi va importning o'rni qoplanadigan iqtisodiyot): Boliviya, Kolumbiya, Paragvay, Peru, Ekvador (Lotin Amerikasi), Malayziya, Suriya, Tayvan, Tailand, Turkiya, Filippin, Koreya Respublikasi (Osiyo), Misr, Marooko, Tunis (Shimoliy Afrika);

g) qaram plantatsiya xo'jaligi unchalik katta bo'lmagan mamlakatlar (eksportda qishloq xo'jalik mahsulotlari yuqori salmog'i – konservatsiya tipidagi agrar ixtisoslashish): Nikaragua, Gvatemala, Kosta-Rika, Gonduras, Salvador, Dominika Respublikasi, Gaiti;

d) "kontsession rivojlangan" kapitalizmning kichik davlatlari (bu mamlakatlar iqtisodiyoti dunyo bozori baholariga bog'liq) bu esa plantatsiya hududlari rivojlanishning asosiy omilidir. Ularda eng katta – kon korporatsiyalarining kontsessiyalari hukmron (kondan foydalanish haqida davlat bilan ayrim kapitalist, firma o'rtasida tuzilgan shartnomaga asoslanib faoliyat ko'rsatuvchi korxona) Yamayka, Trinidad va Taboga, Papua-Yangi Gvineya, Gabon, Botsvana;

e) "Kvartira topshiruvchi" kichik mamlakatlar (savdo yo'llari,orollar yoki dengiz chorrahasida joylashgan mamlakatlar "soliq janati" mamlakatlari, "otel-mamlakatlari", "qulay bayroq" mamlakatlari: Malta, Kipr, Panama, Liberiya, Bagam, Baxreyn, ularning eng ko'p profillisi (ko'p qirralisi) Singapurdir.

3) Ozod (mustaqil) bo'lgan yosh davlatlar (mamlakatlarning o'tkinchi tipi. Ular kelajagining qanday bo'lishi aniq ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq); bu guruhga 60ga yaqin mamlakatlar kiradi. Ular g'oyat xilma-xil, shu jumladan ularning tarkibiga eng yirik mamlakatlar – İndoneziya, Pokiston, Bangladesh, Nigeriyadan tortib to uncha katta bo'lmagan Gambiya, gabon, Baxreyn mamlakatlarigacha bor. Bu guruhda yuqori daromadga ega bo'lgan neft eksport qiluvchi

mamlakatlar – Saudiya Arabistoni, Quvayt, Birlashgan Arab Amirliklari, Katar, Liviya, Bruney alohida o’rinni egallaydi.

Yuqorida berilgan tipologiyadan tashqari boshqalari ham mavjuddir. Bunda umumlashtiruvchi, sintetik ko’rsatkich sifatida aholi jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi ichki mahsulot (YaİM) yoki yalpi milliy daromad ko’p qo’llaniladi. BMT malumotlariga ko’ra 1994 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YaİM bo’yicha dunyoda byiriknchi o’rinni Shveytsariya egallagan (37930 dollar). Undan keyingi o’rindagi mamlakatlar quyidagilar: Yaponiya (34630), Daniya (27970), Norvegiya (26390), AQSh (25580), Germaniya (25580), Avstriya (24630), Shvetsiya (23530), Frantsiya (23420), Belgiya (22870). Bular “boy mamlakatlar klubi”ning byiriknchi etakchi davlatlaridir. Eng qashshoq mamlakatlarda bu ko’rsatkich quyidagicha: Ruvanda (80), Mozambik (90), Efiopiya(100), Vetnam (200), Bangladesh (220), Yaman (280), Mongoliya (300), Hindiston (320), Tojikiston (360), Pokiston (430) va boshqalar. Eng boy (Shvetsariya) va eng qashshoq (Ruanda) mamlakat o’rtasidagi farq 474 martaga teng.

Shunday qilib, dunyoning ko’p sonli mamlakatlarning o’ziga xos xususiyatlarini aniqlashda ularning tipologiyasi ko’rsatkichlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega va bu ilmiy-amaliy zarurat hisoblanadi.

**Takrorlash uchun savollar va topshiriqlar.**

1. Mamlakatlarni jahon iqtisodiyotida tutgan o’rni qanday baholanadi?
2. Mamlakatning tabiiy-demografik salohiyati deganda nimani tushunasiz?
3. YaMM nima u qanday hisoblanadi?
4. “Ettilik” mamlakatlari tarkibi nimalarga asoslanib aniqlangan?
5. Qaysi tipga mansub mamlakatlar ko’p aholi soniga va qaysi tipdagi mamlakatlar kam aholi soniga ega va nima uchun?
6. O’zbekiston mamlakatlarning qaysi tipiga kiradi? Shunga o’zingizni munosbatingiz.
7. Tabiiy resurslarga boy bo’lganligi sababli rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirgan davlatlarni belgilang.
8. Mamlakatlarning 1 va 2 tiplariga kirgan davlatlarni tavsiflab bering.
9. Qoloq mamlakatlar tarkibi va shuni sabablari to’g’risida so’zlab bering.
10. “Ettilik” mamlakatlarida ban aholining tarmoqlar tarkibini baholab bering va uni O’zbekistonga xos ko’rsatkichlar bilan taqqoslang.
11. Dunyoning kuchli ettilik davlatlariga tarif bering.

**Mavzu: Jahon aholisi. Mexnat resurslari**

**Maruza rejasi**

1. Aholining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning ayrim tarixiy davrlardagi soni va dinamikasi.
2. Aholi tabiiy harakatiga xos umumiy va regional xususiyatlar.
3. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi.
4. Jahon aholisining irqiy, etnik va diniy tarkibi.
5. Aholining talimiy darajasi.
6. Aholining hududiy joylashishi.
7. Aholi migratsiyasi va urbanizatsiya jarayoni.

***1. Aholining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, uning ayrim tarixiy davrlardagi soni va dinamikasi.***

Aholi soni va tarkibi uning bajaradigan vazifalari bilan bog’liq holda baholanadi. Aholi avvalambor o’zidan ko’payadigan, o’zini takror barpo qiladigan biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va istemolchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni, tarkibi, o’sish suratlari, joylashishiga xos xususiyatlarni tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi.

İnsoniyat tarixining katta davri davomida, yani neolit davridan eramizning XIX asrigacha aholi soni va tarkibi ananaviy deb ataluvchi tip tasyirikda takror barpo etilardi. Unga juda yuqori

darajadagi (har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etdi) tug'ilish hamda yuqori darajadagi o'sish (30-35 promille) va past darajadagi tabiiy o'sish xos edi. Aholini takror barpo qilinishining ushbu tipi agrar iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi. Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'illar bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta etibor qaratilardi. Ota ona oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lsa, unda ayol kamida mazkur miqdordagi ikki uch marta ko'p bola tug'ishi lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa go'daklar va bolalar o'limining nihoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini o'zi bilan olib ketardi.

Er shari aholisining dinamikasi to'g'risida malumotlar quyidagi 2-jadvalda keltyiriklgan.

**2-jadval.**

**Er shari aholisining o'sishi**

| Yilnoma | Davr | davrning davom etishi (yil) | davr boshida aholi soni (mln kishi) | aholi sonining o'rtacha yillik o'sishi (%) |
|---|---|---|---|---|
| Eramizdan 7000 yil avval | Neolit | 5000 | 10 | |
| Eramizdan 2000 yil avval | Antik davr | 2000 | 50 | 0.03 |
| 0 (yangi era) | so'ngi eraning boshlanishi o'rta asrlarning dastlabki davri | 2000 | 230 | 0.1 |
| 1000 yil | o'rta asrlar | 1000 | 305 | 0.02 |
| 1500 yil | o'rta asrning yakuniy davri | 500 | 440 | 0.1 |
| 1650 yil | so'ngi zamonning boshlanishi | 150 | 550 | 0.3 |
| 1800 yil | so'ngi zamon | 150 | 952 | 0.5 |
| 1900 yil | so'ngi zamonning yakuniy davri | 100 | 1656 | 0.8 |
| 1950 yil | Eng yangi zamon | 50 | 2527 | 1.0 |
| 1980 yil | yaqin o'tgan davr | 30 | 4430 | 1.9 |
| 2000 yil | hozirgi davr | 20 | 6024 | 1.5 |

Bir necha ming yillar mobaynida o'limning juda katta va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining obektiv sabablariga egadir. Dastavval - bu moddiy va sanitar-gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqti-vaqti bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qyiriklib ketishi. Er sharida bunday ofatlar 200-400, 1600-1650 yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining tasyirikda sayyora o'z aholisining 1/4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Aholi ko'rsatkichlariga oxyirik ko'rinmayotgan urushlar ham katta salbiy tasir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5.2 mln kishining yostig'ini quritdi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarli sifat o'zgarishlari bo'lib o'tmadi. Undan keyingi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'tish jarayonini to'rt ketma-ket keluvchi fazani o'z ichga olishini ilmiy asoslab berganlar. Byiriknchi faza uchun tug'ilishning yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sish xosdir. İkkinchi faza ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish, o'limning qisqarishi, tug'ilishning esa undan ham ko'p miqiyosda kamayishi natijada tabiiy o'sishning pasayishi bilan ifodalanadi.

Uchinchi fazada avvalambor aholi ichida qariyalar soni va ulushining o'sishi hamda tug'ilishning asta-sekin pasayishi natijasida o'lim birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda kam miqdor va suratlarda o'sadi yoki qisqaradi. To'rtinchi fazada tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholining umumiy o'sishi barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Evropada XVIII asrda boshlandi. Shunda tabiiy o'sish 20-30 promillega teng bo'ldi buni haqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atigi 5-10 promillega teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi. Ushbu jarayon Evropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Evropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazasiga o'tdi. Hozir ushbu malakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazasidadirlar. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, İtaliya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi ham ayrim yillarda taminlanmaganligi yani o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan malakatlarning ko'pchiligi demografik o'tish jarayonining byiriknchi fazasini o'tmoqdalar.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari ikkinchi fazani boshdan kechirmoqdalar. Xitoy va bir qator boshqa mamlakatlar ushbu ikkinchi fazaga o'tish arfasida turibdi. O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo mamlakatlarida byiriknchi fazadan ikkinchi fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa, ajab emas.

Dunyo aholisining so'nggi yarim asr davomida bo'lib o'tgan o'zgarishlar to'g'risidagi malumotlar 3-jadvalda keltyiriklgan.

Dunyo aholisi ana shu davr ichida 2.4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyoga (2.6) va Afrikaga (3.6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Evropada 1.4 martaga teng bo'ldi. So'nggi yillarda sayyora aholisining mutlaq soni o'rtacha 82-86 mln kishiga etmoqda. Aholi sonining yuqori suratlar bilan o'sishi Afrikada, ayrim mintaqalarda esa Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoqda. Shu vaqtning o'zida Evropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past suratlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti yoxud qisqarmoqda.

**3-jadval.**

**Jahon aholisi soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar bo'yicha taqsimlanishi (mln. kishi)**

| | 1950 | 1960 | 1970 | 1980 | 1990 | 1995 | 1999 (1.07 ga) | 2025 (bashorat) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Jami shu jumladan: | 2516 | 3019 | 3694 | 4433 | 5246 | 5702 | 5982 | 8054 |
| Osiyo (Rossiyasiz) Shundan | 1399 | 1702 | 2147 | 2623 | 3123 | 3451 | 3637 | 4923 |
| G'arbiy Osiyo (Gruziya, Ozarbayjon, Armeniya) | 50 | 66 | 86 | 112 | 145 | 168 | 186 | 303 |
| Markaziy Osiyo | 496 | 619 | 787 | 972 | 1215 | 1355 | 1451 | 2101 |
| Janubiy-Sharqiy Osiyo | 182 | 226 | 288 | 356 | 439 | 485 | 520 | 722 |
| Sharqiy Osiyo | 671 | 791 | 986 | 1183 | 1324 | 1442 | 1481 | 1798 |
| Rossiya | 113 | 119 | 130 | 138 | 148 | 147 | 147 | 138 |
| Evropa (Rossiyasiz) shundan | 436 | 487 | 527 | 556 | 578 | 581 | 582 | 580 |
| Shimoliy Evropa | 78 | 82 | 87 | 89 | 91 | 94 | 95 | 99 |
| G'arbiy Evropa | 133 | 154 | 166 | 173 | 180 | 181 | 183 | 188 |
| Sharqiy Evropa | 116 | 133 | 146 | 155 | 162 | 162 | 159 | 150 |
| Janubiy Evropa | 109 | 118 | 128 | 139 | 145 | 144 | 145 | 143 |
| Afrika *Shundan* | 224 | 280 | 361 | 481 | 645 | 720 | 771 | 1290 |
| Shimoliy Afrika | 52 | 65 | 83 | 109 | 140 | 162 | 170 | 249 |
| G'arbiy Afrika | 65 | 81 | 106 | 144 | 198 | 199 | 223 | 408 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sharqiy Afrika | 63 | 80 | 106 | 142 | 196 | 226 | 235 | 387 |
| Markaziy Afrika | 27 | 33 | 40 | 52 | 69 | 83 | 94 | 188 |
| Janubiy Afrika | 17 | 21 | 26 | 33 | 42 | 50 | 49 | 57 |
| Amerika | 331 | 415 | 510 | 612 | 726 | 774 | 815 | 1083 |
| Shimoliy Amerika | 166 | 199 | 227 | 252 | 275 | 293 | 303 | 374 |
| Markaziy Amerika | 37 | 50 | 68 | 92 | 119 | 126 | 135 | 200 |
| Janubiy Amerika | 111 | 146 | 190 | 239 | 297 | 319 | 339 | 463 |
| Karib dengizi hududlari | 17 | 20 | 25 | 29 | 35 | 36 | 37 | 46 |
| Avstraliya va Okeaniya (Gavayi orollarisiz) | 13 | 16 | 19 | 23 | 26 | 28 | 30 | 41 |

### *2. Aholining tabiiy harakatiga xos umumiy va regional jihatlar*

Er sharida so’nggi vaqtda yiliga 135-137 mln bola tug’ilmoqda, 53-55 mln kishi o’lmoqda. Tabiiy o’sish miqdori 82-84 mln kishini tashkil qilmoqda. Quyidagi 4-jadvalda dunyo va uning qitalari, materiklari va ayrim regionlari bo’yicha aholining tabiiy harakatini ifodalovchi jarayonlarga xos ko’rsatkichlar keltyiriklgan. Dunyoda tug’ilishning juda yuqori koeffitsentlari Afrikaga, regionlar ichida Afrikaning barcha regionlari hamda Markaziy Amerika va G’arbiy Osiyoga, juda past koeffitsentlari Shimoliy Amerika, Evropa, Rossiya, Sharqiy Osiyo hamda Avstraliya va Okeaniyaga xosdir. O’lim koeffitsentining yuqori ko’rsatkichlari Afrika va Evropada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Rossiyada kuzatilmoqda. Tabiiy o’sish koeffitsentlari Afrika, Markaziy Amerika, G’arbiy Osiyo hamda Markaziy va Janubiy Osiyoda yuqori ko’rsatkichlar bilan ifodalanmoqda. Ushbu ko’rsatkich Evropada nolga (yani tug’ilganlar va o’lganlar miqdori teng), Rossiyada esa minus 7ga teng bo’ldi. Rossiyada 1999 yilda depopulyatsiya jarayoni, yani aholi mutlaq sonining qisqarishi kuzatildi.

**4-jadval.**

**Tug’ilish, o’lim va tabiiy ko’payish koeffitsientlari**
**(har 1000 aholiga nisbatan)**

| | Tug’i-lish koef | o’lim koef | Tabiiy o’sish | go’daklar o’limi koef (har 1000 tug’. bolaga) | o’rtacha umr davri | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | Erkaklar | ayollar |
| Butun dunyo | 24 | 9 | 15 | 62 | 64 | 68 |
| Afrika | 41 | 13 | 28 | 90 | 53 | 56 |
| Amerika Shundan | 22 | 7 | 15 | 34 | 69 | 74 |
| Shimoliy Amerika | 15 | 9 | 6 | 8 | 72 | 79 |
| Markaziy Amerika | 29 | 5 | 24 | 37 | 68 | 74 |
| Janubiy Amerika | 25 | 7 | 18 | 47 | 65 | 71 |
| Karib dengizi | 23 | 8 | 15 | 39 | 67 | 72 |
| Osiyo Shundan | 24 | 8 | 16 | 62 | 64 | 67 |
| G’arbiy Osiyo | 31 | 7 | 24 | 51 | 65 | 69 |
| Mar. va Jan. Osiyo | 31 | 10 | 21 | 79 | 60 | 61 |
| Jan-Sharq. Osiyo | 26 | 8 | 18 | 53 | 62 | 66 |
| Jan. Osiyo | 17 | 6 | 11 | 40 | 68 | 72 |
| Rossiya | 9 | 16 | -7 | 19 | 59 | 72 |
| Evropa | 11 | 11 | 0 | 10 | 70 | 77 |
| Avstraliya va Okeaniya | 19 | 8 | 11 | 24 | 71 | 74 |

Aholi soni va uning tarkibiga go'daklar o'limi ham juda katta tasir ko'rsatadi. Er sharida 1999 yilda jami 7.8 mln bola bir yoshga etmasdan o'lganligi qayd etildi. Shundan salkam 2.0 mln.i Hindistonga, 631 mingi Xitoyga to'g'ri keladi. Pokiston, Bangladesh, İndoneziya, KXDR, Braziliya, Nigeriya, Efiopiya mamlakatlarida hozirgi vaqtda yiliga 200-500 ming bola bir yoshga etmasdan o'lmoqda. Afg'oniston, Butan, Gvineya, Liberiya, Mozambik, Chad va boshqa jami 26 mamlakatda 100 dan yuqori, 42 mamlakatda 50 dan 100 promillegacha bo'lgan ko'rsatkich bilan aniqlanmoqda.

Bolalar o'limi mamlakatning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti darajasi bilan teskari aloqaga ega. İqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda bolalar o'limi koeffitsenti 4-8 promillega o'zgaradi. İjtimoiy-siyosiy vaziyati beqaror, iqtisodiy qoloq bo'lgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkich odatda 100 dan ortiq, ayrim hollarda 50dan ham yuqori darajaga egaligi bilan ajralib turadi.

Aholining turmush darajasi va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan tabiiy xarakati jarayonlari hamda shakllangan yosh tarkibi orqali uning o'rtacha umr davri aniqlanadi. Aholining o'rtacha umr davri 1999 yil 66 yoshga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkich iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda (Yaponiya, Shvetsiya, Shveytsariya jami 37 davlat) 77-81 yoshni, qoloq mamlakatlarda 42-60 yoshni tashkil etadi. O'rtacha umr davrining eng yuqori ko'rsatkichlari Yaponiyaga (81 yosh), Frantsiyaga va yana 12 mamlakatga (78-79 yosh), eng past ko'rsatkichlari Markaziy Afrika Respublikasi (41 yosh), Afg'oniston (43yosh) va Gvineya (44yosh) mamlakatlariga xosdir.

O'zbekistonda o'rtacha umr davri erkaklarda 66 yoshga, ayollarda 72 yoshga, o'rtacha 69 yoshga teng. So'nggi ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyo mamlakatlari ichida 101-102 o'rinlarda joylashgan.

Tarixiy manbalar Qadimgi Rim va Qadimgi Yunonistonda o'rtacha umr davri atigi 25 yoshga teng bo'lganligini asoslaydi. O'rta asrlarda bu ko'rsatkich taxminan 30 yoshgacha ko'tarildi. Mana shu o'rtacha ko'rsatkichlar umr davri yuqori bo'lgan insonlar mavjudligini inkor qilmaydi.

### *3. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi*

Aholining yosh-jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki yoshga qarab aholining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati baholanadi.

Butun dunyoda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko'proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlarda erkaklar bilan ayollar soni o'rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va regionlarda o'g'il bolalarning ustunligi ko'zga tashlanadi. Dunyoda 0-14 yoshda har ming qizga 1040 o'g'il bola to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Evropada (1060), Osiyoda(1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029)da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug'ilgan har ming go'dakning 520tasi o'g'il bolalardan iborat bo'lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo'yicha har ming ayolga 1020 ta erkak to'g'ri keladi. Evropada erkaklar soni ayollar soniga teng, Osiyoda har ming ayolga 1049ta erkak, Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak)da aksincha, ayollar ustunligi bilan ifodalanadi.

Yuqoridagi yosh guruhlarida erkaklar bilan ayollar o'rtasida mavjud bo'lgan farqlar juda ko'p omillar tasyirikda shakllangan. Bunda dunyo va region hamda mamlakat doirasidagi urushlar, erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o'rni va ularning o'rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning roli juda kattadir. Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlarda erkaklar sonining ustunligi ayollarning jamiyatda tutgan murakkab, bazi hollarda ayanchli o'rni hamda mazkur mamlakatlarda oilada o'g'il bolani ko'rishga bo'lgan juda katta intilish va ana shu maqsadga erishishda har qanday choraga, hatto endi tug'ilgan qizni o'ldyirikshgacha borishga tayyorligi bilan bog'langan. Aholi jinsiy tarkibining shakllanishida dunyo, ayrim regionlar va mamlakatlar miqiyosida bo'lib turuvchi migratsion aloqalarning roli ham kattadir. (Evropa va Shimoliy Amerika emigrantlarni qabul qiluvchi, Osiyo va Afrika emigrantlarni etkazib beruvchi hisoblanadi).

Dunyo aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari dinamikasi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Quyidagi jadval malumotlaridan dunyo aholisining yosh tarkibiga xos hususiyatlar va nisbatlarni ko'rish mumkin.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdagi va keksa aholi salmog'i ko'paymoqda. Binobarin, 1970-1999 yillarda 0-14 yoshdagi bolalar ulushi 36,6 dan 31 foizgacha kamaydi, mehnatga layoqatli yoshdagi aholi salmog'i 57,9 dan 62,0 foizga etdi, keksa aholining ham salmog'i o'sib, 7,0 foizni tashkil etdi.

**5- jadval**

**Dunyo aholisining yosh tarkibi (foiz).**

| **Materiklar, qitalar** | **yosh guruxlari** | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | **1970** | | | **1985** | | | **1999** | | |
| yosh guruhlari | 0-14 | 15-64 | 65+ | 0-14 | 15-64 | 65+ | 0-14 | 15-64 | 65+ |
| Butun dunyo shu jumladan: | 36,6 | 57,9 | 5,5 | 33,7 | 60,6 | 5,7 | 31,0 | 62,0 | 7,.0 |
| Evropa | 24,9 | 63,7 | 11,4 | 20,9 | 66,7 | 12,4 | 18,0 | 67,0 | 15,0 |
| Osiyo | 38,9 | 57,.0 | 4,1 | 35,0 | 60,6 | 4,4 | 32.0 | 62,0 | 6,0 |
| Afrika | 44,1 | 53,0 | 2,9 | 45,4 | 51,5 | 3,1 | 43,0 | 54,0 | 3,0 |
| Amerika | 36,4 | 57,2 | 6,4 | 31,6 | 61,2 | 7,2 | 29,0 | 63,0 | 8,0 |
| Avstraliya va Okeaniya | 32,2 | 60,5 | 7,3 | 28,6 | 63,3 | 8,1 | 26,0 | 64,0 | 10,0 |

### *4. Jahon aholisining irqiy, etnik va diniy tarkibi*

İnson irqi- bu o'xshash, avloddan avlodga o'tuvchi tashqi (teri-gavda) belgilarga ega bo'lgan, tarixan shakllangan odamlar guruhidir.Hozirgi vaqtda uchta asosiy evropeoid (oq), negroid (qora) va mongoloid (sariq) irqlarga ajratish qabul qilingan. Ayrim hollarda to'rtinchi Ovstroloid irqi ham ajratiladi.

Katta irqlar tarqalgan hududlar o'rtasidagi chegaralar odatda aniq bo'lmasdan, bir-byirikga kyirikshib ketgan. Aynan shunday hududlarda irqlarning aralash, o'tkinchi shakl va tiplari hosil bo'ladi.

Dunyo aholisi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning har xil bosqichlarida turuvchi xalqlardan-etnoslardan iboratdir. Etnosning eng yuqori darajasi millat hududi, iqtisodiyoti va madaniyati, tilning barqaror tarzda umumiyligi bo'yicha ajralib turuvchi insonlar yig'indisidan iborat, ushbular asosida ularda millatga xos umumiy jihatlar, milliy o'zligini anglash hissiyoti shakllanadi.

Dunyoda uch-to'rt ming xalq bo'lib, ularning ichida aholisining umumiy soni 100 dan, hatto o'ntadan oshmaydigan mayda elatlardan (Hindistonda toda, Braziliyada botokuda va b.) soni 10 mln va 100 mlndan ziyod bo'lgan yirik millatlar mavjuddir. Shular qatoriga xitoylar, yaponlar, braziliyaliklar, AQSh amerikaliklari, russlar, hindistonliklar, bengallar, panjobliklar, bixarlar, livanliklar, nemislar va boshqalar kiradi.

Milliy tarkibi xilma-xil bo'lgan Osiyoda dunyoda soni eng ko'p bo'lgan xalqlar yashaydi. Osiyoda mutloq soni 1 mln dan ortiq 110 ga yaqin xalq bo'lib, ularning umumiy miqdori qita aholisining 98 foizini tashkil etadi. Osiyo mamlakatlarining aksariyati ko'p millatlidir. 150 dan ortiq xalq Hindiston va İndoneziyada, deyarli 100-Filippinda, 50 dan ortiq Vetnam va Xitoyda, 30 dan ortiq xalq Eron, Afg'oniston, Myanma, Tailandda istiqomat qiladi. Aholining etnik rang-barangligi bazi-bir xalqlar tarqalgan hududlarning davlat chegaralari bilan bo'linishi tufayli yana ham kuchaydi. Masalan, kurdlar Turkiya, Eron, İroq va qisman Suriya, belujlar Eron, Afg'aniston va Pokiston, panjobliklar Pokiston va Hindiston davlatlari chegaralaridagi hududlarda kompakt xolda yashaydi. Janubi-Sharqiy Osiyodagi ko'pchilik mamalakatlarda Xitoy va Janubiy Osiyodan kelgan emigrantlarning katta guruhlari shakllangan. Millat, xalq va elatlarning ana shunday hududiy tarqalganligi va joylashganligi natijasida ayrim mamlakatlarda etnik muosabatlar murakkab tusga ega. Bazi mamlakatlarda esa bunday holat etnik nizolar, majarolarga olib kelmoqda, siyosiy

vaziyatning yomonlashuviga sabab bo’lmoqda (Yaqin Sharq mintaqasi, Turkiya, Rossiya, Xitoy, İndoneziya, Malayziya, Hindiston, Ruanda, Burundi va boshqalar).

Dunyo mamlakatlarining aholisining milliy tarkibi va etnik munosabatlarning xususiyatiga ko’ra qator guruhlarga taqsimlash mumkin:

Byiriknchi guruhga bir millatli, yani asosiy millati jami aholisining 95%dan ortiq qismini tashkil etuvchi mamlakatlar bularga Evropada İslandiya, İrlandiya, Norvegiya, Daniya, Polsha, Germaniya va boshqalar, Osiyoda Yaponiya, KXDR, Koreya Respublikasi, Bangladesh, Mongoliya, Armeniya, Yaman, Oman, Katar va boshqalar, Afrikada Misr, Liviya, Somali, Madagaskar, Janubiy Afrikadagi deyarli barcha mamlakatlar kiradi. İkkinchi guruhni ushbu ko’rsatgich 70-95%ga teng bo’lgan mamlakatlar Buyuk Britaniya, Frantsiya, İspaniya, Finlandiya, Ruminiya, Jazoir, Marokko, Zimbabve, Mavritaniya, Botsvana, Xitoy, Vetnam, Kambodja, Myanma, Turkiya, Suriya, İroq, Shri-Lanka, Singapur, AQSh, Avstriya, Yangi Zellandiya va boshqalar tashkil etadi. Shular qatoriga O’zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Ozarbayjon davlatlari ham kiradi.

Uchinchi guruh mamalakatlarida (Eron, Afg’oniston, Gruziya, Qirg’iziston, Qozog’iston, Pokiston, Malayziya, Laos, Markaziy Sharqiy va Janubiy Afrika mamlakatlari va boshqalar) asosiy millat ulushi jami aholining yarmidan kam yoki ortiq biroq 70 %dan past ko’rsatgich bilan ifodalanadi.

To’rtinchi guruhda aholisi bir nechta yirik millatlarga ega lekin ulardan birortasining ulushi sezilarli bo’lmagan mamlakatlar to’plangan (Hindiston, İndoneziya, Filippin, Rossiya, Shveytsariya, G’arbiy Afrika mamlakatlari va boshqalar).

Malumki XX asrning so’ngi chorak asri davomida etnik tarkibi murakkab bo’lgan mamlakatlarda millatlararo munosabatlar murakkablashdi, xar hil mojarolar va ziddiyatlar vujudga keldi. Shularning barchasi har xil tarixiy va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ega. Binobarin Evropaliklar tomonidan bosib olinib, keyinchalik mustaqillika erishgan mamlakatlarda tub va mahalliy millat vakillarini kamsitish xollari uchrab turadi (Shimol xalqlari, Avstraliya, Amerika va Avstraliya va Okeaniya aborigenlari). Ziddiyatlarning ikkinchi manbai bu kam sonli millatlarning o’ziga xos tili va madaniyatini mensimaslik, kamsitish (Buyuk Britaniyada shotlandlar va uelsliklar, İspaniyada basklar, Frantsiyada korsikaliklar, Kanadada frankokadaliklar va boshqalar). Milliy va diniy asosga ega bo’lgan mojaralar uzoq yillardan beri Hindiston, Shri-Lanka, İndoneziya, Efiopiya, Nigeriya, KXDR, Sudan, Somali, Malayziya, Xitoy va boshqalarda davom etmoqda. Diniy va hududiy manbadagi milliy ixtiloflar yarim asrdan ortiq vaqt davomida Yaqin Sharqdagi vaziyatni belgilab bermoqda. Bu erda bir tomondan İsroil ikkinchi tomondan Misr, Livan, Suriya hamda İordaniya o’rtasidagi ziddiyatlarning oxyirik ko’rinmaydi. To’g’ri, 2001 yilning dastlabki davrida İsroil bilan Suriya o’rtasida muzokaralarning tashkil qilinganligi bu dunyo miqyosidagi katta ijobiy siljishdir.

Malumki, din jamiyat hayotida, turmushida juda katta rol o’ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, aholining talimiy darajasi katta ahamiyat kasb etmaydi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to’g’ri baholash dunyoda bo’lib o’tayotgan miqyosli voqea va hodisalarning ko’pchiligini to’g’ri tushinish va anglashga imkon beradi. Quyidagi 6-jadvalda dunyoda asosiy dinlar tarqalgan davlat va mintaqalar to’g’risida malumotlar keltyiriklgan.

Evropada xristianlik dinining barcha shakllari keng tarqalgan. Katoliklik asosan qita janubida, qisman g’arbiy va markazida, Protestantlik shimolida, qisman g’arbiy va markazida, pravoslavlik sharqiy va janubiy-sharqida. Sobiq ittifoq mamlakatlarida pravoslavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Provoslavlikka rus, belorus va ukrainlarning bir qismi, osetiyaliklar, chuvashlar, mordva, morilar, komilar, udmurtlar, yoqutlar, shimol xalqlarining bir qismi sig’inadi. İslom Astraxan tatarlari, Qozon tatarlari, Shimoliy Kavkaz xalqlari, boshqirdlar, Sibir tatarlari orasida keng tarqalgan.

**6-jadval**

**Dinlar geografiyasining asosiy ko’rsatkichlari**

| Din | Etiqod qiluvchilar soni (mln k) | Tarqalgan mintaqalari va mamlakatlari |
|---|---|---|

| | | |
|---|---|---|
| Xristianlik Shu jumladan | 1259 dan ortiq | Frantsiya, İspaniya, Portugaliya, İtaliya, Avstriya, Belgiya, İrlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, Xorvatiya, AQSh, Kanada, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Kipr, Koreya, Yaponiya, Xitoy |
| Katoliklik | 800 | |
| Protestantlik | 350 | Shimoliy Evropa mamlakatlari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Niderlandiya, Shveytsariya, Latviya, Estoniya, AQSh, Avstraliya, Yangi Zelandiya, JAR, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy |
| Pravoslavlik | 100 | Rossiya, Ukraina, Belorus, Moldova, Gruziya, Bolgariya, Ruminiya, Serbiya va Chernogoriya Federatsiyasi, Gretsiya, Kipr |
| İslom Shu jumladan | 1000 dan ortiq | Albaniya, Bosniya va Gersogovina, Makedoniya, Rossiya, O’ozoYOiston, Jzbekiston, O’irYOiziston, Tojikiston, Janubi-G’arbiy Osiyo mamlakatlari (Eron, Ozarbayjondan tashqari), Shimoliy, G’arbiy va Sharqiy Afrika mamlakatlari, Pokiston, Afg’oniston, Bangladesh, Malayziya, İndoneziya, Hindiston, Xitoy, Filippin |
| Sunniylik | 900 dan ortiq | |
| Shialik | 100 ga yaqin | Eron, Ozarbayjon, İroq, Yaman |
| Buddizm va lamaizm | 400 dan ortiq | Xitoy, Mo’g’iliston, Yaponiya, Myanma, Tailand, Vetnam, Kambodja, Laos, Malayziya, Shri-Lanka, Koreya, Rossiya |
| İnduizm | 520 | Hindiston, Nepal, Shri-Lanka |
| Konfutsia | 180 | Xitoy |
| Sintoizm | 70 | Yaponiya |
| Maxalliy-ananaviy dinlar | | G’arbiy, Markaziy, Sharqiy, Janubiy Afrika mamlakatlari, Janubiy Amerika, Okeaniya, İndoneziya |

Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa islom dini katta rol o’ynaydi. İslomning sunniylik yo’nalishi İndoneziya (dunyoda eng yirik musulmon mamlakati), Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg’oniston, Janubiy-G’arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlarida asosiy o’rin egallaydi. İslomning shialik yo’nalishi Eron, Ozarbayjon, qisman İroq va Yamanda asosiy din sifatida tan olingan. İslom diniga etiqod qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filippin, Kambodja, Tailand, Myanma, Kipr, Shri-Lanka mamlakatlarida mavjud.

Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida buddizm va lamaizm keng tarqalgan. İnduizmga Hindiston va Nepal aholisining ko’pchiligi etiqod qiladi. Konfutsiyachilik va daosizim dinlari Xitoyning asosiy dinlari hisoblanadi. Sintoizm Yaponiyada mavjud. Xristianlik dini Osiyoda unchalik tarqalmagan. Filippin, Armeniya va Kiprda bu asosiy din. Livanda 40% aholi, Hindistonda 5-6 mln, Suriya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, İndoneziya, Malayziya va boshqa mamlakatlarda ham xristian diniga etiqod qiluvchilarning ancha miqdori mavjud.

Afrikaning shimoliy, g’arbiy va sharqida joylashgan ko’pchilik mamalakatlarda islomning sunniylik yo’nalishi hukmron. Efiopiya, JAR va boshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim rol o’ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrikada aholining asosiy qismi mahalliy ananaviy dinlarga etiqod qiladi.

Shimoliy Amerikada xristianlikning ikki shakli katolik va protestantlik xukumron. AQShda protestantlar, Kanadada katoliklar ko’proq. Markaziy Amerikada aholining aksariyati katolikka etiqod qiladi. Xuddi shunday Janubiy Amerikada ham katolik dini hukmronlik qiladi. Umuman olganda, Amerika qitasiga barcha katoliklarning yarimidan ko’pi to’g’ri keladi. Amerikada islom diniga etiqod qiluvchilar AQSh aholisining hamda Karib dengizi havzasidagi bazi bir orollar aholisining ichida mavjud.

Avstraliya va Okeaniyada protestantlik va katoliklik keng tarqalgan. Keyingi yillarda xalqaro munosabat, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkurada islom dinining o’rni kengaymoqda va ahamiyati oshmoqda.

## 1. Aholining talimiy darajasi

Keyingi vaqtlarda geografiya va demografiyada aholining soni bilan bir navbatda uning sifatiga ham katta etibor qaratilmoqda. Aholi sifati uning talimiy darajasi kasbiy va ijtimoiy tarkibi, sog'lig'i va boshqa belgilar orqali baholanadi. Bunda talimiy daraja aholi sifatining eng muhim ko'rsatgichi hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda savodxonlik va savodsizlik to'g'risida malumotlar keltyiriklgan.

**7-jadval.**

**Dunyoda savodsizlarning soni va savodsizlik darajasi.**

| Mintaqa va mamlakatlar | Katta yoshdagi savodsiz-larning soni, mln. kishi | Savodsizlik darajasi, foiz |
|---|---|---|
| İqtisodiy rivojlangan mamlakatlar | 42 | 4,4 |
| Rivojlanayotgan mamlakatlar<br>Shu jumladan: | 920,6 | 35,1 |
| Afrikaning Saxroi Kabirdan janub tomonda joylashgan hududlari | 138,8 | 52,7 |
| Arab mamlakatlari | 61,1 | 48,7 |
| Lotin Amerikasi | 43,5 | 15,2 |
| Sharqiy Osiyo | 281,0 | 24,0 |
| Janubiy Osiyo | 397,3 | 53,8 |

Jadval malumotlaridan ko'rinib turganidek iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarga katta yoshdagi barcha savodsiz kishilarning taxminan 4%, rivojlanayotgan mamlakatlarga esa 96,0% to'g'ri keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlik darajasi katta hududiy farqlarga ega. Bu o'rinda Markaziy, G'arbiy, Sharqiy hamda Janubiy Afrika, Arab, Lotin Amerikasi, Sharqiy va Janubiy Osiyo mamlakatlari alohida o'rin egallaydi. Mazkur va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda savodsizlarning ulushi erkaklar o'rtasida 25%ga teng bo'lsa, ayollar o'rtasida qarib 45%ni tashkil etadi.

Dunyoda katta yoshdagi aholining savodsizlik darajasining yuqoriligi bo'yicha qator mamlakatlar ajralib turadi. Masalan, Butan davlatida savodsizlik darajasi erkaklar o'rtasida 93%ga, ayollar o'rtasida 95%ga, Afg'onistonda tegishli ravishda 93 va 95%ga, Somalida 82 va 94%ga, Tropik Afrika regionidagi Burkina-Faso, Senegal, Mavritaniya, Gambiya, Niger, Chad, Mali mamlakatlarida 75 va 90%ga teng bundan ham yuqori ko'rsatgichlar Nepal va Gaitiga xosdir.

Savodsizlarning mutloq soni bo'yicha dunyoda Hindiston (281 mln), Xitoy (224 mln), Pokiston (43 mln), Bangladesh (42 mln), Nigeriya (29 mln), Misr (16.5 mln), Braziliya (16 mln), Eron (14 mln), Sudan (10 mln) mamlakatlari peshqadamlik qiladi. Hindistonda katta yoshdagi aholining savodsizlik darajasi 52%ni, Xitoyda 27%ni tashkil etadi.

## *6. Aholining hududiy joylashishi.*

Er yuzasida aholi juda notekis joylashgan. Aholinig o'rtacha zichligi (1 kv.kmga to'g'ri kelgan aholi miqdori) doimiy aholisi mavjud hududlar (130 mln $km^2$) doirasida 46 kishini tashkil qildi.

Shu vaqtning o'zida ushbu ko'rsatgich Osiyoda 116.3 va Evropada 102.5 kishini tashkil etsa, Afrikada 27.5, Shimoliy Amerikada 23.8, Janubiy Amerikada 19.6 hamda Avstraliya va Okeaniyada atigi 3.7 kishiga teng. Umumlashtyirikb aytganda er quruqlik yuzasining atigi 7%da unda mavjud aholining 70%i istiqomat qiladi.

**8-jadval**

**Ayrim qitalar, materiklar va regionlar bo'yicha aholining o'rtacha zichligi**

| Mintaqa va regionlar | 1950 | 1990 | 1995 | 1999 | 2025 |
|---|---|---|---|---|---|
| Butun dunyo<br>shu jumladan | 19,4 | 40,3 | 43,8 | 46,0 | 63,8 |
| Evropa | 74,4 | 97,0 | 101,9 | 102,5 | 103,5 |
| Osiyo | 45,1 | 100,7 | 111,3 | 116,3 | 159,3 |
| Afrika | 7,6 | 21,8 | 24,3 | 27,5 | 51,0 |
| Shimoliy Amerika | 11,0 | 21,4 | 22,8 | 23,8 | 31,0 |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Janubiy Amerika | 6,4 | 17,1 | 18,3 | 19,6 | 26,4 |
| Avstraliya va Okeaniya | 1,5 | 3,1 | 3,3 | 3,7 | 4,6 |

Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubiy, Janubi-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Evropa hamda AQShning shimoli-sharqiy qismi, «Bosvash» megopolisi kiradi. Dastlabki uchta mintaqada aholi qadimdan joylashgan bo’lib, u hozirgi vaqtda juda yuqori darajadagi aholi zichligiga ega. Bunday holat avvalambor bu erda mehnatni juda ko’p talab qiluvchi sholichilikning qadimdan mavjudligi, qolganlarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergan sanoat inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshgan industirlashtyiriksh jarayoni bilan uzviy bog’langandir. İnsonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishga intilishi ham muhim omillardan byirikdir. Hozirgi vaqtda dengiz va okeanlardan quruqlikka tomon 200 kmga cho’zilgan er yuzasi qismida insoniyatning yarmidan ziyod qismi 50 km kenglikka ega bo’lgan quruqlik qismida esa dunyo aholisining deyarli 30 %i to’plangandir. Dunyo bo’yicha aholi juda zich joylashgan hududlar qatoriga quyidagilar kiradi: Rur, Elzas va Lotaringiya hamda Parij va London rayonlari, Shimoliy İtaliya, Moskva rayoni, Donbass, Farg’ona vodiysi, Sharqiy Xitoy, Hind-Gang tekisligi, Yava oroli, Yaponiya orllari, Nil deltasi, AQShning Shimoli-Sharqiy, Buyuk ko’llar rayonlari va Sansan megopolisi.

Aholi siyrak tarqalgan hududlar er quruqlik yuzasining ancha katta qismini egallaydi. Shular qatoriga byiriknchi navbatda ekstremal tabiiy sharoitlarga ega bo’lgan geografik obektlar-cho’llar, tropik o’rmonlar, baland tog’lar, tundra, muzlik hududlari va boshqalar kiradi.

Er quruqlik yuzasining 15%i umuman o’zlashtyiriklmagan va doimiy aholisi yo’q hududlar hisoblanadi. Ayrim mamlakatlar ichida aholi zichligining juda yuqori ko’rsatkichlari Singapur (5 ming kishiga yaqin), Bangladesh (ming kishiga yaqin), Niderlandiya (460), Koreya Respublikasi (454), Livan, Belgiya, Yaponiya va boshqalarga (200 kishidan ortiq jami 40 mamlakat), juda past ko’rsatkichlar Rossiya, Kanada, Avstraliya, Mavritaniya, Liviya, Namibiya va boshqalarga xos. Aholi joylashishidagi juda katta hududiy farqlar mavjud mamlakatlar qatoriga Rossiya, Kanada, Xitoy, Braziliya, Misr, Turkmaniston, Tojikiston, İndoneziya kiradi. Dunyo aholisi vertikal mintaqalar bo’yicha ham notekis taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56%i), mutloq balandligi 200 metrgacha bo’lgan tekistlik va pastekistliklarda istiqomat qiladi. Salkam chorak qismi (24 %i) 200-500 metr balandlikka ega tekistlik va qirlarga to’g’ri keladi. Demak, Er shari aholisining 80%i mutlaq balandligi 500 metrgacha bo’lgan hududlarda joylashgan. Shu vaqtning o’zida 2000 metrdan baland hududlarga Er shari jami aholisining atigi 1%i to’g’ri keladi (9-jadval). Umuman olganda aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin bu qonuniyat Janubiy Amerikada o’z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari Osiyo qitasi bilan jami quruqlik yuzasiga xos bo’lgan ko’rsatkichlar bir hil miqdorlar xosligi bilan ajralib turishligini takidlab o’tish lozim.

**9-jadval.**

**Er shari aholisining vertikal mintaqalar bo’yicha taqsimlanishi**

| **Qitalar, materiklar regionlar** | **Dengiz sathidan balandligi** | | | | | **Aholi istiqomat qiladigan hududning o’rtacha balandligi, m** | **Hududning o’rtacha balandligi, m** |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | 200 metr-gacha | 200-500 m | 500-1000 m | 1000-2000 m | 2000 metr yuqori | | |
| | **Jami aholining taqsimlanishi, foiz** | | | | | | |
| **Evropa** | 69 | 24 | 7 | - | - | 170 | 300 |
| **Osiyo** | 56 | 24 | 12 | 7 | 1 | 320 | 950 |
| **Afrika** | 32 | 24 | 21 | 21 | 2 | 590 | 750 |
| **Shimoliy Amerika** | 47 | 33 | 8 | 8 | 4 | 430 | 700 |
| **Janubiy Amerika** | 42 | 15 | 23 | 9 | 11 | 645 | 580 |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **Avstraliya va Okeaniya** | 73 | 18 | 8 | 1 | - | 95 | 350 |
| **Quruqlik yuzasi (Antarktida va Grenlandiyadan tashqari)** | 56 | 24 | 12 | 7 | 1 | 320 | 725 |

## Mavzu: Migratsiya jarayoni, sabablari. Urbanizatsiya jarayoni, aglomeratsiya va megapolislar

### 1. Aholi migratsiyasi va uning sabablari

Migratsiya jarayoni aholi hududiy harakatining asosiy turi bo'lib, u inson bilan tabiat o'rtasida aloqadorlik vujudga kelgandan buyon shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Aholi migartsiyasi ayniqsa Buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab keng miqyosda amalga oshmoqda.

Migratsiya tashqi va ichki migratsiyaga taqsimlanadi. Mamlakatlar aholisining soni va tarkibiga bo'ladigan tasyirik nuqtai nazaridan tashqi migratsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Tashqi migratsiya katta hajmga ega mamlakatlarda uning aholi soni va tarkibiga bo'lgan tasyirik sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlar tarixida migratsiya saldosining ahamiyati tabiiy o'sish jumladan ustun bo'lgan ayrim davrlar kuzatilganligini takidlab o'tish joizdir. Hozyirikgi vaqtda ham mazkur mamlakatlarda migratsiya saldosi aholi soni o'sishida muhim omil bo'lib hisoblanmoqda. İsroil davlatida esa migratsiya saldosi aholi soni o'sishining deyarli 2/3 qismini taminlamoqda.

Yuqoridagi mamlakatlar aholining ko'chib kelishi bo'yicha etakchi hisoblansa, qator boshqa mamlakatlar, chunonchi İrlandiya aholining ko'chib ketishi bo'yicha dunyoda mashhur bo'lib qolgan. İrlandiya XIX-XX asrlarda aholining katta miqdorda ko'chib ketishi bo'yicha uch davrni boshidan kechirgan. Ushbu davrlar 1840-1900 yillarda qayd etilgan bo'lib, unda mamlakat aholisining mutloq soni 8,2 mln.dan 4,5 mln. kishiga tushib qoldi.

Tashqi migratsiyalar o'zlarining xususiyatlari, sabablari, hududiy qamrovi, davom etish davri bo'yicha bir-byirikdan farq qiladi. Migratsiya xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda, avvalambor xoxishiga ko'ra va majburiy migratsiyalar nazarda tutiladi. Majburiy migratsiyalarga XVI-XIX asrlar davomida necha o'n millionlab negr qullarning Afrikadan Amerikaga zo'rlab olib ketilishi misol bo'lishi mumkin.

Tashqi migratsiyalar asosan iqtisodiy sabab bilan bog'langan. Bunda yangi erlarni o'zlashtyiriksh maqsadida hamda ishchi kuchini shartnomalar bo'yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq migratsiyalar katta rol o'ynaganligini takidlab o'tish joizdir. Byiriknchi turdagi tashqi migratsiyalarda katta miqdorda aholining ko'chib ketishi Buyuk Britaniya, Germaniya, İtaliya, İspaniya, Frantsiya, Skandinaviya mamlakatlari, İrlandiya, Polsha, Rossiya mamlakatlariga, ko'chib kelishi AQSh, Kanada, Braziliya, Argentina, Urugvay, Chili, Avstraliya, Janubiy Afrika Respublikasiga xos bo'lgan. İkkinchi turdagi tashqi migratsiyalarda dastlabki davrlarda Xitoy va Hindistonlik ishchilar asosiy rolni o'ynaganligini takidlab o'tish kerak. Shularning katta jamoalari Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida barpo etilgan. Hozyirikgi vaqtda Shimoliy Afrika, Janubi-G'arbiy Osiyo, Janubiy Evropa ishchi kuchining katta miqdorining G'arbiy Evropa va qisman Shimoliy Evropa mamlakatlarida shartnoma ham ikkinchi turdagi tashqi migratsiyalarga misol bo'lishi mumkin. Chunki shunday migrantlarning soni G'arbiy Evropa mamlakatlarida 12-13 mln., dunyo bo'yicha esa 25 mln. kishini tashkil etadi. (AQSh, Avstraliya, JAR, Fors ko'rfazi mamlakatlari). Mazkur migrantlarning ichida yirik olimlar va mutaxassislar bo'lib, ularning soni salkam 1 mln. kishini tashkil etadi.

Siyosiy sabablar ham tashqi migratsiyalarga katta tasir ko'rsatadi. Siyosiy migratsiya iqtisodiy va siyosiy vaziyati beqaror, inson huquqlari poymol etilayotgan mamlakatlarga xos bo'lgan va hozir ham xos bo'lmoqda (Germaniya, İspaniya, İtaliya, Rossiya, SSSR, Kuba, Vetnam, Kambodja va boshqa qator mamlakatlar).

Hududiy qamrovga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarni ajratish qabul qilingan. Hozyirikgi vaqtda ikkinchi turdagi migratsiyalar asosiy ahamiyat kasb etmoqda.

Davom etishi bo’yicha doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Shartnoma asosida amalga oshyiriklayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Bir-ikki oy yoki undan ortiq vaqt davomida dam olish, davolanish yoki boshqa mavsumiy turdagi mehnat faoliyati bilan bog’liq migratsiyalar mavsumiy migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy-joyi va ish joyining tamomila o’zgarishi bilan bog’liq aholi ko’chishlari bilan bog’liq bo’lib, u migratsiyalar ichida asosiy o’rin egallaydi.

Dunyoda 80-yillarning oxiri va 90-yillarda bo’lib o’tgan siyosiy-mamuriy o’zgarishlar halqaro migartsiyalar hajmining keskin kengayib ketishiga, hamda Sharqiy Evropa, Sobiq SSSR va boshqa regionlarda aholini hududiy katta taqsimlanishiga sabab bo’ldi. Jumladan, O’rta Osiyo va Qozog’iston mamlakatlarida hozirgi vaqtda o’zaro davlatlararo migratsion aloqalar asosiy rol o’ynamoqda.

Keyingi yillarda aholi migratsiyasi bilan bevosita yoki bilvosita bog’langan qochqinlar sonining keskin ko’payishi hammani tashvishga solmoqda. Qochqinlarning katta miqdordagi va ichki oqimlari Afg’oniston, Hindiston, Shri-Lanka, İroq, Kipr, Sobiq İttifoq Respublikalari, ayniqsa Rosssiya, Efiopiya, Somali, Ruanda, Burundi, KXDR, Kongo Respublikasi, Sverre-Leone, Kolumbiya, Ekvador, Peru mamlakatlaridagi beqaror iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyat bilan to’g’ridan-to’g’ri bog’liqdir. Sobiq Yugoslaviyaning besh davlatga parchalanib ketishi va u bilan bog’liq bo’lgan harbiy harakatlar 2,5 mln.dan ortiq kishining qochqinlar qatoriga qo’shilishiga sabab bo’ldi. Qochqinlar oqimi yildan-yilga ko’paymoqda, uning kelib chiqishida avvalambor siyosiy beqarorlik, undan keyin millatlararo nizolar, ocharchilik, hududiy tortishuvlar asosiy rol o’ynamoqda. Shularning aksariyat qismi rivojlanayotgan mamlakatlarni iqtisodiy qoloqlikdan chiqib, rivojlangan davlatlar qatoriga qo’shilishi muammosi bilan bog’liq.

Tashqi va ichki migratsiyalar bilan urbanizatsiya jarayoni uzviy bog’liq. Urbanizatsiyaning geografik mohiyatini quyidagi misollarda ifodalash mumkin. Urbanizatsiyalashgan hududlar Er quruqlik yuzasining 1 foizdan sal ortiq qismini egallagani holda, bu erda jahon aholisining 45 foizdan ziyod qismi istiqomat qiladi, yalpi ichki mahsultning 80 foizi ishlab chiqariladi, shu vaqtning o’zida atmosfera va gidrosferaga chiqarilayotgan zaxarlik chiqindi va gazlarning 80 foizi ham ushbu hududga to’g’ri keladi.

### *2. **Urbanizatsiya jarayoni***

Urbanizatsiya jarayoni shaharlar soni va shahar aholisining miqdori va ulushining o’sishini, shaharlar bilan bog’liq murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojlanishini anglatadi.

Demak, urbanizatsiya kishilik hayotida shaharlar ahamiyatining beqiyos oshishini, jamiyatni aholining mehnat xususiyati, turmush tarzi va madaniyati, ishlab chiqarishni joylashishi bo’yicha shaharlashishini o’zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir. Urbanizatsiya ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan byirikdir.

Zamonaviy urbanizatsiya umumjahon jarayoni sifatida ko’pchilik mamlakatlarga xos bo’lgan uchta umumiy jihatlar bilan ifodalanadi.

Shulardan byiriknchi jihat – shahar aholisining, ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda yuqori suratlar bilan o’sishi.

Dunyoda 1900 yilda mavjud jami aholining salkam 14 foizi shaharlarda yashagan, bu ko’satkich 1950 yilda 29 foizni, 1990 yilda - 45, 2000 yilda esa 51 foizni tashkil etdi.

İkkinchi jihat – aholi va xo’jalikning asosan katta shaharlarda to’planganligi bilan bog’liq. Bunday xolat avvalambor ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-fan, talim tizimi bilan bo’lgan aloqadorligining murakkablashuvi bilan bog’langanligi. Malumki, katta shaharlar insonlarning manaviy va madaniy talablarini to’laroq qondiradi, hilma-hil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq taminlandi, mavjud axborot manbalariga yo’l ochib beradi. Jahonda XX asr boshida (aholisining soni 100 mingdan ortiq) 360 ta katta shaharlar mavjud bo’lib, shularga jami aholining atigi 5 foizi to’g’ri kelgan, bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi, 2000 yilda esa 3,5 mindan o’tib ketdi, ularga tegishli tarzda jami aholining 1/3 va 2/5 qismi to’g’ri keldi.

Katta shaharlar ichida aholisining soni 1 mingdan ortiq bo’lgan yirik va juda yirik shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. Shunday shaharlarning soni XX asr boshida 10 ga teng bo’lgan 80-yillarning boshida 200 dan, 2000 yilda esa 400 dan oshib ketdi. Mazkur shaharlar ichida

“supershahar”lar (aholisining soni 5 mln.dan ziyod) miqdori 90-yillarda 30 ni, 2000 yilda esa 60 ni tashkil etdi. Hozirgi vaqtda ushbu shaharlarda salkam 0,5 mlrd. kishi, yoki Er shari aholisining 8 foizdan ortiq qismi istiqomat qilmoqda.

Uchinchi jihat – shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog’langan. Zamonaviy urbanizatsiya jarayoni uchun ayrim shaharlar va shaharchalardan shaharlar bilan qishloqlarni o’zida qamrab olgan shaharlar aglomeratsiyalarga, megapolislarga o’tish, ayniqsa xos bo’lmoqda. Shaharlar aglomeratsiyalarining o’zagi vazifasini odatda poytaxtlar, boshqa muhim sanoat markazlari va yirik dengiz portlari bajarmoqda.

Juda yirik shaharlar aglomeratsiyalari Mexiko, Tokio, San-Paulu, Nyu-York shaharlari atrofida shakllangan, shularning har byirikda 16 mln.dan 30 mln.gacha kishi istiqomat qiladi.

Hozirgi vaqtda ikki va undan ortiq aglomeratsiyalar hududining qo’shilib ketishi natijasida urbanizatsiyalashgan rayonlar va zonalar, eng muhimi megopolislar vujudga kelmoqda. Ulardan Tokaydo, Bosvash Sansan, ChPİTS megapolislari alohida o’rin egallaydi.

Urbanizatsiya jarayoni umumiy xususiyatlardan tashqari ayrim regionlar va mamlakatlar miqiyosida o’ziga xos xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Shular ichida urbanizatsiya darajasi va suratlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Urbanizatsiya darajasi bo’yicha jahondagi barcha mamlakatlarni uch guruhga bo’lish mumkin.

1. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 50% dan yuqori).
2. O’rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20%-50%).
3. Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar (shahar aholisining ulushi 20%dan kam).

Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlar qatoriga Evropaning barcha davlatlari, Avstraliya, Yangi Zelandiya hamda Shimoliy va Janubiy Amerikaning ko’pchilik mamlakatlari kiradi.

O’rtacha darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning asosiy qismi Janubiy, G’arbiy, Markaziy va Janubiy, Janubi-Sharqiy Osiyo regionlari hamda Afrikada joylashgan.

Past darajada urbanizatsiyalashgan mamlakatlarning ham ko’pchiligi Afrika va Osiyoda mavjud ekanligini takidlab o’tish lozim.

Hozirgi vaqtda urbanizatsiya darajasi rivojlangan mamlakatlarda 7 %ni, rivojlanayotgan mamlakatlarda 37%ni tashkil etadi, dunyo bo’yicha bu ko’rsatkich 51%ga teng.

Urbanizatsiya jarayonining o’sish suratlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda urbanizatsiyalashganlik darajasiga bog’liq holda o’zgaradi. İqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining ulushi 75-90%ga, yani yuqori darajaga etganligi tufayli, urbanizatsiyalashish suratlari ancha pasaygan, ayrim hollarda yirik shaharlardagi aholi soni kamaymoqda. Shunga qaramasdan urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda taraqqiy etishda davom etib yangi –yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo’lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiyalashish jarayoni shahar aholisining nisbatan past ulushiga egaligi tufayli, har tomonlama va hamma yo’nalishlarda rivojlanmoqda. Lekin mazkur mamlakatlarda urbanizatsiya jarayoning sifat ko’rsatkichlariga mutanosib emas. Shahar aholisi ko’p hollarda qishloqlarda “ortiqcha” bo’lib qolgan aholi hisobiga o’smoqda. Qashshoq qishloq aholisining katta qismi yirik va katta shaharlarning xududlarida joylashib, “kulbasimon urbanizatsiyaning” tarqalishiga sabab bo’lmoqdalar. Shunday urbanizatsiyaning shakllari Mexiko, Lima, Manila, Pnompen, Dakka, Kalkutta, Bombey, Kinshasa va boshqa poytaxt shaharlar atrofida keng tarqalgan. Umuman urbanizatsiya jarayoni rivojlanayotgan mamlaktlarda boshqarib bo’lmaydigan holda taraqqiy etmoqda hamda demografik iqtisodiy va ekologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo’lmoqda. Atrof muhitning ifloslanishi umumiy hajmining 3/4 qismi urbanizatsiya jarayoni bilan aloqadordir. Bu ajablanarli voqea emas, chunki shahar va shaharchalar er quruqlik yuzasining atigi 1%ni ishg’ol qilgani holda, ularga dunyo aholisining yarmidan ortiq qismi va ishlab chiqarishning salohiyatining 3/4 qismi to’g’ri keladi. İqtisodiy rivojlangan davlatlarda atrof muhitni muxofaza qilish bo’yicha tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa moddiy mablag’larning etarli emasligi mazkur muammolarni to’la-to’kis hal etishga imkon bermayapti.

Shahar aholisining soni va ulushi tez o'sayotganligiga qaramasdan jahon aholisining yarmiga yaqini qishloq aholi manzilgohlarida yashamoqda. Ularning umumiy soni 15-20 mln. ni tashkil etadi.

Qishloq aholisi asosan guruhlashgan va alohida joylashgan qishloqlar bo'yicha taqsimlanadi. Bunda tarixiy va tabiiy shart-sharoitlardan tashqari iqtisodiy omillarning ahamiyati katta bo'lganligini aytib o'tish lozimdir. Aholi taqsimlanishining guruhlashgan shakllari dehqonchilik, ayniqsa haydaladigan va sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan region va malakatlarga xosdir. Alohida joylashgan qishloqlar (fermalar) chorvachilik intensiv rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya, Argentina) keng tarqalgan. Aholi joylashishining aralash shakllari ham mavjud, yaylov chorvachiligi rivojlangan hududlarning ko'pchiligida esa doimiy aholi manzilgohlari umuman barpo qilinmagan.

**Asosiy tayanch tushunchalar**

**Aholi -** o'zining hayotiy faoliyatini malum ijtimoiy va hududiy jamoalar doirasida amalga oshirayotgan insonlar guruhidir.

**Aholi migratsiyasi –** lotinchadan (migratio) ko'chish, ko'chyiriksh manosini anglatadi. Turar joyining o'zgarishi bilan yakunlanadigan aholining hududiy harakati.

**İrqlar –** bu insonlarning tarixan shakllangan o'xshash, avloddan avlodga o'tuvchi tashqi (teri-gavda) belgilari bo'yicha ayrim guruhlaridir.

**Millat –** insonlarning tarixan shakllangan umumjamoa guruhlari. Millatga hayot moddiy sharoitlari va hududning umumiyligi, til va milliy xarakter birligi xosdir.

**Urbanizatsiya –** shaharlar va shahar aholisining soni hamda ulushining ko'payishi bilan bog'langan ijtimoiy-iqtisodiy va geografik jarayon. Uning rivojlanishi avvalambor sanoatlashish suratlari va darajasi bilan belgilanadi.

**Megapolis-**

**Aglomeratsiya-**

**Takrorlash uchun savollar va topshyirikqlar**

1. Aholining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini yoritib bering.
2. Jahon aholisining soni milodgacha bo'lgan davrda qanday ko'paygan?
3. Jahon aholisining soni eramizning XX asrigacha bo'lgan davrda qanday ko'paygan?
4. Eramizning XX asrida aholi soni va dinamikasiga tasir qilgan voqea-hodisalar hamda omillarni baholang.
5. Aholini tabiiy takror barpo bo'lishining to'rt tipiga xos xususiyatlar to'g'risida so'zlab bering.
6. Aholini dunyoning turli regionlari va mamlakatlarida tabiiy takror barpo bo'lishiga xos farqlar hamda shuning asosiy sabablari to'g'risida so'zlab bering.
7. "Demografik protlash" tushunchasining mazmuni, uning asosiy omillari, sabablari va markazlari to'g'risida so'zlab bering.
8. Aholi migratsiyasi nima? Uning turlari, ahamiyati, geografiyasi to'g'risida so'zlab bering.
9. Aholi tarkibi deganda nimani tushunasiz? Aholining yosh-jinsiy, irqiy, milliy-etnik, ijtimoiy tarkibi haqida nimalarni bilasiz?
10. Jahon aholisining joylashishiga xos umumiy xususiyatlar to'g'risida so'zlab bering. Urbanizatsiya jarayoni, uni sanoatlashish jarayoni bilan aloqadorligini misollar bilan asoslang.

## 2-bo'lim *Jaxon sub regionlari va ayyirikm davlatlariga iqtisodiy va ijtimoiy tarif*

**1. Markaziy Osiyo davlatlari**
**2. Lotin Amerikasi**
**3. Evropa davlatlari (Buyuk Britaniya, İtaliya, Frantsiya, Germaniya)**
**4. Kanada va AQSh**
**5. MDX davlatlari**
**6. Osiyo sub regionlari**
**7. Xindiston, XXDR, Yaponiya,**
**8. Afrika (Misr arab respublikasi, JAR, Jazoir)**
**9. Rossiya.**

### Markaziy Osiyo davlatlari (Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari)

### Maruza rejasi

1. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniga tarif.
2. Tabiiy sharoiti va resurslariga baho.
3. Aholisi va uning joylashuvi.
4. Xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari:
 a) sanoati;
 b) qishloq xo'jaligi;
 v) transporti.
5. Markaziy Osiyo davlatlarining ichki tafovutlari.
6. MDH davlatlarining tashqi iqtisodiy aloqalari.

### 1. Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy geografik o'rniga tarif

Bu respublikalarning umumiy o'xshashligi, avvalambor tabiiy geografik o'rinda, tabiiy sharoit va resurslardan foydalanishda, tarixiy kelib chiqishda, turkiy xalo'larning taro'alganligi, xo'jalik xususiyatlarida va boshqalarda o'z aksini topgan.

Ayni paytda bu davlatlar ham siyosiy mustaqilikka erishib, bozor iqtisodiyoti munosobatlari sharoitida rivojlanayotgan respublikalar hisoblanadi.

Yangi siyosiy va iqtisodiy sharoitda davlatlar ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishining geografik, tabiiy va demografik omillari bilan, xalo' xo'jaligi tarmoqlari tarkibi, va ichki tafovut haqida quyidagi maruza matnida tanishamiz.

Bu respublikalar yagona tabiiy geografik o'lkani tashkil qiladi. Bu o'lka TURKİSTON deb ataladi. Turkiston Evrosiyo materigining o'rtasida joylashgan. Agar bu respublikalarning yaxlit geografik o'rni bilan tanishadigan bo'lsak, Markaziy Osiyo davlatlarining shimoliy chegarasi Ayirtov yao'inida, janubiy Kopetdog' tog'larining shimoliy etagidan tortib Pomir tog'larigacha, g'arbiy nuqtasi Kaspiy dengizining Mangishloq yarim oroligacha, sharqiy chegarasi esa Savr tog'larini etagidan qora İrtish daryosi vodiysigacha bo'lgan hududni o'z ichiga oladi. Bu davlatlarni har byirikni alohida ko'radigan bo'lsak, Qozog'iston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimolida joylashgan, u shimoldan Rossiya Federatsiyasi, janub va janubi-g'arbdan O'zbekiston, Turkmaniston va Qirg'iziston Respublikalari bilan, janubi-sharqda Xitoy Xalo' Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni kattaligi 2,7 mln.km kv bo'lib, u MDH, davlatlari ichida ikkinchi, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa byiriknchi o'rinda turadi.

Qozog'iston Respublikasining hududi Kaspiy dengizdan - Oltoygacha, Uraldan Tyan-Shan tog'larigacha chuzilgan. Uning sharqiy va g'arbiy nuqtalarigacha bo'lgan massofa 3 ming km, shimoliy va janubiy nuqtalari orasidagi masofa 1700 km tashkil qiladi.

Turkmaniston Respublikasi - Markaziy Osiyoning janubi – g'arbida joylashgan, bu respublika janubdan Eron va Afg'oniston, shimoldan Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqdan O'zbekiston bilan chegaradosh Turkmanistonning g'arbiy chegarasi esa Kaspiy dengizi bilan tutash. Mamlakat hududining maydoni 488,1 km kv tashkil qiladi. Markaziy Osiyo respublikalari ichida maydoni bo'yicha II o'rinda turadi.

Qirg'izston Respublikasi Markaziy Osiyoning shimoliy - sharqida joylashgan bo'lib, u shimol va shimoli - g'arbdan Qozog'iston bilan, janubdan. Tojikiston bilan, g'arbdan O'zbekiston, janubi - sharqdan esa - Xitoy Xalo' Respublikasi bilan chegaradosh. Uning maydoni 198,5 ming km kv.

Tojikiston Respublikasi ham Markaziy Osiyoning janubiy sharqida joylashgan bo'lib, u O'zbekiston, Qirg'iziston, Afg'oniston va Xitoy bilan chegaradosh. Hududining maydoni 143,1 ming km kv tashkil etadi.

Bu MO mamlakatlarining umumiy iqtisodiy geografik o'rni, materikning ichkarisida joylashganligi, okean va dengizlardan uzoqligi nuqtai nazardan noqulay imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Ayniqsa, Tojikiston Respublikasini fug'arolar urushi ketayotgan Afg'oniston bilan chegaradoshligi, nafao'at Tojikistonni respublikasining geosiyosiy o'rniga, balki butun Markaziy Osiyoga ham havf solmoqda.

Biroq Markaziy Osiyo davlatlari hududida Buyuk İpak Yo'lini tiklanayotganligi, bu davlatlarni Xitoy bilan bog'lanishiga va ochiq dengiz yo'liga chiqishga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, Turkmaniston va Eronni bog'lovchi Tajan - Mashxad - Seraxs yo'llarining qurilishi Markaziy Osiyo Yao'in Sharq va Turkiya Respublikalari bilan bog'lashda katta rol o'ynaydi.

## 2. Tabiiy sharoiti va resurslariga baho

Markaziy Osiyo davlatlarning hududi berk suv havzazini tashkil qilib, shimoliy yarim shardagi eng yirik cho'l shu mamlakatlar hududida joylashgan. Bu erning tabiati bir - byirikdan, keskin farq qiluvchi bo'lib, yirik To'ron tekisligi, va baland tog' tizimlari hisoblangan Pamir va Tyan-Shan o'ziga xos landshaftlarini tashkil qilgan. Eng katta tekisliklari cho'llardan iborat bo'lib - ularga Qoraqum va Qizilqum cho'llari kiradi.

Markaziy Osiyo hududining Okeanlarga nisbatan Uzoqda joylashganligi, iqlimini keskin kontinentalligi yozi quruq, qishi esa kam yog'ingarchilikli va sovuq bo'lishini vujudga keltiradi. Tog'li o'lkalarda esa iqlim vertikal zonallik qonuniyatlarga bo'ysinib, 3000 m baland qismlarda iqlim shunday sovuqki, hududi shimoliy subarktika va Arktika rayonlari singaridir. Shuning uchun ham bu baland tog'lar muzlik bilan qoplangan.

Markaziy Osiyo hudud berk hisoblanib, eng yirik daryolari Sirdaryo va Amudaryodir. Ular barcha Markaziy Osiyo davlatlarini hududidan o'tib o'zining suvini Orol dengiziga quyar edi, biroq ayni paytda bu daryo suvlari erlar betartib o'zlashtyiriklishi natijasida Orol dengiziga etib bormayapti. Bu holat - ekologik muammoni vujudga keltirgan. Xo'jalikda ishlatiladigan suv resurslari asosan erlarni sug'orish maqsadida foydalaniladi. Shu bilan birga tog' daryolari, - Vaxsh, Norin, Chirchiq, katta gidroenergiya resurslariga boy hisoblanadi. Markaziy Osiyo respublikalari juda katta tabiiy resurs boyliklariga ega.

Markaziy Osiyo respublikalari orasida Qozog'iston ancha boy tabiiy resurs zahiralariga ega, yani ko'mir, neft, mis, qo'rg'oshin, temir ruda va boshqalarga. Ayniqsa, rangli metallurgiya resurslari ancha katta. Polimetall rudalari havzalariga – Rudali Oltoy, Jung'oriya, Markaziy Qozog'iston tog'lari kiradi. Shunigdek, bu mamlakatda katta temir rudali konlariga – Sokolovsk - Sarbay, Lisakovsk va Ayat havzalari kiradi.

MDH mamlakatlari ichida ko'mir qazib chiqarish bo'yicha Qozog'iston uchinchi o'rinni egallaydi.

Asosiy konlari - Qorag'anda va Ekibastuz havzalaridir. Neft va gaz Manqishloq va Ural - Emba rayonidan qazib olinadi. Qozoqostondagi eng istiqbolli neft qazib oluvchi havza bu-Tengiz havzasidir. Shu bilan bir qatorda Qozog'iston katta fosforit zahiralariga ega bo'lib, qoratov tog'larida va Aktyub oblastida bu xom ashyo qazib olinadi. Gidroenergiya resurslari ko'proq mamlakatning sharqiy qismida bo'lib, bularga - Ural, İrtish, Tobol va İshim daryolarining resurslari kiradi.

Turkmaniston Respublikasining hududida neft, gaz, oltingugurt, boshqa kimyoviy xom ashyo resurslari mavjud. Neft qazib olinadigan rayonlar - G'arbiy Turkmanistonda – Nebit-Dag, gaz konlari esa Markaziy va sharqiy Qoraqum rayonlarida mavjud. Shuningdek Qora – Bo'g'ozgol qo'lig'ida - katta miqdorda kimyo xom ashyo-mirabimet qazib olinadi.

Markaziy Osiyo miqyosida ko'mir, surma va simob qazib olish bo'yicha Qirg'iziston etakchi o'rinda turadi, shunigdek bu erda neft va gaz ham qazib olinadi.

Katta gidroresurs imkoniyatlariga Qirg'iziston bilan bir qatorda Tojikiston ham ega. Panj va Vaxsh daryolari yirik energetika quvvatiga ega. Markaziy Osiyo doirasida umumiy gidroenergetika salohiyatining 55% Tojikistonga to'g'ri keladi.

Shuningdek Tojikistonda, ko'mir, neft, gaz, polimetall, rudalari, volfram, surma, tosh tuzi va qurilish materiallari xom ashyosi mavjud.

**3. Aholisi va uning joylashuvi**

1913 yilda Qozog'iston Respublikasida 5,6 mln kishi yashagan bo'lsa, 1959 yilda bu ko'rsatgich 9,2 mln kishiga, 1973 yilda 13,7 mln, 1984 yilda 15,6 mln, 1997 yilda esa 16,4 mln kishiga etdi.

Bu mamlakatning aholisi faqatgina tabiiy ko'payish hisobiga emas, balki ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida aholini ko'chib kelishi hisobiga ham ko'paydi. Mamlakat aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, aholi zichligi 1 km kvga - 5,8 kishini tashkil qiladi. Mamlakat maydonining chegaraga tutash hududlarida, Ayniqsa janubiy va shimoliy qismlarida aholi zichligi ancha yuqori.

Aholining bunday notekis joylashganligi avvalambor, aholinining tarixan o'rnashganligi, tabiiy sharoit xususiyatlari va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtyirikshdan kelib chiqqan.

Respublikada tabiiy resurslarning o'zlashtyiriklishi, qazib oluvchi va o'ayta ishlovchi tarmoqlarning vujudga kelishi o'z navbatida aholining ichki va Ayniqsa tashqi migratsiyasini kuchaytirdi, shu bilan birga uning milliy tarkibini o'zgartirdi. Bu respublikaning demografik xususiyatlaridan byirikdir.

Aholining milliy tarkibida mahalliy, yani o'ozoo'lar bilan boshqa millat vakillari ruslar, ukrainlar janubiy qismlarda uyg'urlar, dungonlar, nemislar, tatarlar, o'zbeklar keng taro'algan. **Yuqorida qayd qilganimizdek**, ayni paytda bu mamlakatda aholining tabiiy o'sishi unchalik yuqori emas. 1997 yil statistika malumotlariga qaraganda, aholi tuЁilishi har 1000 ta kishiga 15 tani tashkil etsa, shundan o'lim, 10 ta kishini, tabiiy o'sish esa 5 ta kishiga teng. Har 1000 ta tug'ilgan chaqaloqdan 1 yoshga etmasdan 25 tasi nobud bo'lmoqda.

Ayni paytda, aholining 52% i shaharlarda yashaydi. Shaharlar ichida aholisi 100 ming kishidan ko'proq bo'lganlari ahamiyatli salmog'ni tashkil qiladi. Shular jumlasiga Qorag'anda, Temirtau, Jezqazgan, Aktau, Qoratau, Kentau va Almati va boshqalar kiradi. Mamlakat siyosiy mustaqillik davrida respublikaning poytaxti Almati shahridan Astana shahriga ko'chyiriklgan.

Turkmaniston Respublikasi aholisi notekis joylashtgan bo'lib, bu holat mamlakat katta maydonining Qoraqum cho'lidan hamda boshqa geografik sharoiti noqulay bo'lgan hududlardan tashkil topganligi bilan bog'langan.

Aholining aksariyat qismi vohalarda yashaydi. Bu erlarda xar bir kv kmga 260 kishi to'g'ri kelsa, cho'llarda bu ko'rsatkich - 1 kishiga teng xolos. Umuman olganda aholining respublika bo'yicha o'rtaga zichligi 1 kv km ga 6,1 kishini tashkil qiladi.

Aholining katta qismi janubiy viloyatlarda yashaydi, Amudaryo, Murg'ob, Tajan daryolari bo'ylarida, shuningdek Kopetdog' tog'larining etaklarida.

Qirg'iziston Respublikasining aholisi 1997 yil malumotlariga qaraganda 4,6 mln. kishini tashkil qildi.

Aholining o'sishi asosan, yuqori darajadagi tug'ilish va past darajadagi o'lim bilan bog'langan. Bu erda xar 1000 ta kishiga 24 tani, o'lganlar 8 tani, tabiiy o'sish esa 16 ta kishini tashkil qiladi.

Aholining milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil etadi. Bu erda yana o'zbeklar, ukrainlar va boshqa millat vakillari ham istiqomat qiladi. Shahar aholisi 38 % ga teng. Eng katta shaharlari Bishkek, Jalolobod, O'sh va boshqalardir.

Aholi ko'proq vodiylarda, Chuv vodiysining shimolida va Farg'ona vodiysining janubida joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi esa, 1 kv kmga 20 ta kishini tashkil qiladi.

Tojikiston aholisi 1997 yil malumotlariga qaraganda 6 mln. kishini tashkil qiladi. Tojikiston aholini tabiiy takror barpo etilishi darajasining yuqoriligi bo'yicha MDH davlatlari ichida etakchi o'rinni egallaydi.

Mamlakatning asosiy relefi shakli tog'lardan iborat bo'lganligi tufayli, aholi asosan vodiylarda zich joylashgan. Aholini yuqori darajasida zich joylashganligi Farg'ona, Hisor, Vaxsh, Kofirnixon vodiylarida kuzatiladi.

Xo'jalikning bir tomonlama qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi, shaharliklar salmog'ining pastligiga olib kelgan. Mamlakatda aholining 37% shaharlarda yashaydi.

**4. Xo'jaligining rivojlanish xususiyatlari**

**a) Sanoati;**

Sobiq ittifoq sanoati davrida Qozog'iston Respublikasida yoqilЁi sanoati, energetika, qora metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmoqlari shakllandi.

Xalqaro mehnat taqsimotida Qozog'iston Respublikasi rangli metallurgiya sanoati bilan, yani mis, qo'rg'oshin, rux, alyuminiy, titan magniy, shuningdek kamyob va nodir metallar ishlab chiqarish bilan ajralib turadi.

Mis sanoati asosan Jezqazg'on oblastida joylashgan bo'lib, bularga asosan Balxash va Karsakpay mis eritadigan zavodlari, Jezqazgan, Sayan rudani boyitish korxonalari kiradi. Qozog'istoning ikkinchi mis havzalari uning sharqiy qismida mavjud bo'lib, bu erda Glubokoe mis zavodi ishlab turibdi.

Janubiy Kyusyu va Sikoku orollari Shimoliy Xonsyu bilan Xokkaydo kabi kam rivojlangan h’ududlardir. Ularda qishloq xo’jaligi ustun turadi, sanoat korxonalari ayrim shah’arlardagina bor. İshlab chiqilgan loyih’aga ko’ra, Xokkaydo orolida mah’alliy ko’mir va ruda resurslari h’amda chetdan keltyirikladigan xomashyo asosida yangi sanoat rayoni barpo etiladi. Xokkadote (Xokkaydo oroli) va Nagasaki (Kyusyu oroli) mamlakatning eng yirik baliq sanoati markazlaridir.

## Yaponiya va O’zbekiston o’rtasidagi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi

Munosabatlar uzoq yillik tarixiy ildizlarga ega. Ular asosiy karvon yo’li Markaziy Osiyo davlatlari orqali uzoq Sharqdan Evropaga o’tgan "Buyuk ipak yo’li" davriga borib taqaladi.

Bugungi kunda Yaponiya iqtisodiy taraqqiyoti jih’atidan jah’onda ikkinchi o’rinda turadigan mamlakatdir. Jah’on yalpi milliy mah’sulotining 14%i uning h’issasiga to’g’ri keladi. O’tgan asrning 80-yillar o’rtalaridan boshlab bu mamlakat jah’onda qarz beradigan eng yirik davlatga aylandi.

İslom Karimovning 1994 yil may oyida Yaponiyaga tashrifi amaliy h’amkorlik aloqalari taraqqiyotiga yangi turtki bo’ldi.

Utgan bir yil ichida mamlakatlarimiz o’rtasida tovar ayirboshlash h’ajmi sezilarli darajada o’sib, qiymati qariyb 29 million AQSh dollarini tashkil etdi. Shunisi diqqatga sazovorki O’zbekiston Yaponiyaga eksport qilayotgan mah’sulotlar h’ajmi 1994 yildagiga qaraganda 2 barobar o’sdi.

Ayni paytda ikki mamlakat mutaxassislari savdo-iqtisodiy h’amkorlik to’g’risidagi, sarmoyalarni o’zaro rag’batlantyiriksh va h’imoyalash to’g’risidagi, shuningdek, ikki yoqlama soliq olmaslik to’g’risidagi bitimlarning loyih’alarini tayyorlamoqdalar. Bu h’ujjatlar O’zbekiston bilan Yaponiya o’rtasidagi h’amkorlik aloqalarining rivojlanishi uchun keng istiqbollar ochadi.

Respublikamiz mustaqil bo’lgach, O’zbekietonga Yaponiya h’ukumati va ishbilarmon doiralari vakillaridan iborat ko’plab delegatsiyalar tashrif buyurdi. Ularning asosiy maqsadi mamlakatimizdagi sarmoyaviy iqlim va yurtimiztsing iqtisodiy imkoniyatlari bilan tanishishdan iborat edi.

O’zbekiston - Yaponiya iqtisodiy h’amkorlik qo’mitasi va Yaponiya - O’zbekiston iqtisodiy qo’mitasi o’zaro h’amkorlik taraqqiyotga munosib h’issa qo’shmoqda. Yaponiya - O’zbekiston iqtisodiy qo’mitasiga "Mitsui va Ko LTD" kompaniyasi prezidenti janob N. Kumagai rah’barlik

qilmoqda. İkki tomonlama iqtisodiy aloqalar taraqqiyotini muvofiklashtyirikshga u katta ah’amiyat berayotir.

Yaponiya h’ukumati mamlakat eksport banki orqali Ko’kdumaloq neft-gaz kondensati konini o’zlashtyiriksh uchun 10,5 milliard ien (qariyb 85 million dollar) h’ajmda mablag’ ajratishga qaror qildi. Bu loyih’a Yaponiyaning "M. Yu. Kellog" firmasi tomonidan amalga oshyirikladi. Bundan tashqari Yaponiya bilan Buxorodagi neftni qayta ishlash zavodi qurilishi va Farg’ona neftni qayta ishlash zavodini tamirlash borasida h’amkorlik qilish yuzasidan muzokaralar olib borilmoqda.

Uzaro h’amkorlik soh’asida Yaponiyaning "Taraqqiyotiga rasmiy erdam" (TRE) dasturi muh’im o’rin tutadi. Ana shu dastur asosida Yaponiya va O’zbekiston mutaxassislari Orol h’ududidagi shah’arlarni ichimlik suvi bilan taminlash va Sharqiy Bukantov (Qizilqum) volfram konini qazish loyih’alari uchun texnik-iqtisodiy asoslarni taiyorlash ustida ishlamoqdalar. Ayni paytda Yaponiya h’ukumati tomonidan telealoqa tarmoqlarini tamirlash loyih’asini amalga oshyiriksh uchun 12,7 milliard ien (140 million dollardan ziyod) h’ajmda imtiyozli kredit ajratish masalasi ko’rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari Toshkentda vagonlarni tamirlaydigan zavod kurilishi uchun imtiyozli kredit ajratish uchun tadqiqotlar o’tkazilmoqda. Yaponiya O’zbekistonga beg’araz yordam sifatida Toshkent tibbiyot-pediatriya instituti va Toshkent ilmiy-tadqiqot pediatriya instituti klinikalarini tibbiy uskunalar bilan jih’ozlash maqsadlari uchun 650 million ien, shiningdek, xorijdan keltyiriklayotgan mah’sulotlarni sotib olish uchun 900 million ien miqdorda mablag’ ajratdi.

1994 yilning dekabr oyida O’zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi bilan mamlakatimizdagi Yaponiya elchixonasi o’rtasidagi Alisher Navoiy nomidagi teatrni zarur uskunalar bilan jih’ozlash uchun 500 ming AQSh dollari miqdorida beg’araz yordam ajratish xususida almashuv h’ujjatlarini imzolash marosimi bulib o’tdi.

O’zbekiston iqtisodiyotining turli soh’alari uchun kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashga h’am katta etibor berilmoqda. O’tgan muddat ichida respublikamizning 40 nafardan ziyod vakili Yaponiyada malaka oshyirikb va yapon mutaxassislarining eng so’nggi yutuqlari bilan tanishib qaytdi.

"Taraqqiyotga rasmiy yordam" dasturidan tashqari Yaponiya h’ukumati O’zbekistonga 5 million AQSh dollari miqdorida insonparvarlik yordami ko’rsatishga qaror qildi.

Yaponiyaning yirik kompaniyalari bilan h’amkorlikda to’qimachilik, tog’-kon sanoati va boshqa soh’alar bo’yicha qo’shma loyih’alar ishlab chiqilmoqda. Respublikamizda dunyoning yirik firmalariga aylangan "Mitsui va Ko LTD", "Mitsubisi korporeyshn", "Marubeni korporeyshn", "Summimoto korporeyshn", 'Tomenkorporeyshn", "Toyotatsuikorporeyshn", "Chori" va "Ay-ti es japan LTD" kabi kompaniyalarning doimii vakolatxonalari faoliyat ko’rsatmoqda.

Nazorat va muh’okama uchun savollar

1. Yaponiyaning geografik o’rniga bah’o bering.
2. Tabiiy sharoitini tariflang.
3. Qanday tabiiy resurslarga boy?
4. Davlat tizimi qanday?
5. Ah’olisining o’sish va joylashish xususiyatlarini tushintyirikb bering.
6. Meh’nat resurslari h’amda ulardan foydalanish muammolari.
7. Yaponiya jah’onda qanday o’rin tutadi?
8. Sanoatining etakchi tormoqlari, geografiyasi qanday?
9. Asosiy qishloq xo’jaligi tormoqlari geografiyasi?
10. Transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatlari qanday?
11. Yaponiya-Uzbekiston iqtisodiy alokalari qanday rivojlanmoqda?

## MAVZU: Misr arab respublikasi

*Geografik joylashgan o’rni, tabiyi sharoiti va tabiyi resurslari* Misr arab Respublikasi Afrikaning shimoliy sharqida, Sinay yarim orolida joylashgan mamlakat. Maydoni 1001,4 ming km kv. Axolisi 69,5 mln. nafar tashkil qiladi (2001j). Poytaxti Koxira shaxarsi. Shimoliy sharqida Palestina milliy avtonomiyasi, janubida Sudan, g’arbida bo’lsa Liviya bilan chegaralashgan.

Mamlakat maydonining shimoliy bo’lagi Er O’rta dengizi bilan tutashadi. Bu dengizni Hind okeani bilan baylanistiratug’in eng yaqin suv yuli Misr arab respublikasiga qarashli uzinligi 173 km bo’lgan Suvaysh kanali shimolida o’tadi.

Misr arab respublikasining maydoni 1,2 mln. kv. km. bo’lib, o’ning 96% i cho’llardan iborat. Misr arab respublikasi -Respublika. Amaldagi konstitutsiyasi 1971-yili 11-sentyabrdagi referendumda qabul qilingan, unga o’zgarishlar kirtilgan. Rasmiy tili – arab tili, dini-islom dini.

Davlat boshlig’i Prezident bo’lib, u 6 yilga saylanadi. Qonun chiqaruvchi h’okimiyati Prezident amalga oshiradi. U bosh vazir va h’ukimat azolarini tayinlaydi va lavozimlaridan bwshatadi. Misr arab respublikasi territoriyasining 96% ti yaqini cho’ldan iborat. İqlimi - shimolida subtropik, qolgan bo’limida tropik cho’l iqlimi. Yanvarning o’rtacha temperaturasi 11-12 gradustan 15-16 gradusgacha, iyul oyida 25-26 gradusgacha bo’ladi.

Misr arab respublikasi territoriyasining derlik borchasi cho’l zonasida joylashgan. Shundan fakat 3,5% Nil daryosi deltasiga tug’ri keladi. Relefi va geologik tuzilishi tarafidan Misr arab respublikasi territoriyasi shartli ravishtv to’rt zonaga bo’linadi. 1) Liviya cho’li, 2) Arabiston cho’li, 3) Sinay yarim oroli, 4) Nil daryosi deltasi va voxasi. Relefi asosan tekislik, al Qizil dengizga yaqin erlar tag’liklardan iborat.

Foydali qazilmalaridan temir, marganets, mis, rux, volfram, molibden, uran, oltin, neft, tabiiy gaz, fosforit, osh tuzi, oxaktoshlarga boy. Sinay yarim orolida ko’mir konlari bor.

Mamlakatning bir bo’lagida h’avosi qurg’oq kam bulutli bo’lib, yog’in-sochin kam yog’adi. Cho’llik erlarda kundizi temperatura 50 gradus bo’lib, kechqurun 0 gradus atrofida bo’ladi. Er o’rta dengiz bo’yida subtropik, yozi issiq va qurg’oq, qishi iliq bo’lib keladi. Eng issiq oylari iyul, avgust bo’lib, İskandariya shaxarida 25 gradus, al Koxira shaxarida 27 gradus, Asuanda 33 gradusgacha issiq bo’ladi. Eng salqin oylari yanvar, fevral bo’lib topiladi. O’rtacha yilliq yog’inning mug’dari İskandariya shaxarida 180 mm ge, Koxirada 34 mm gacha etadi. Qog’in qisqa mudatta yog’ib, ko’pincha jala yog’adi. Nil voxasida yaqin erlarning balantligi 100-200 m. Nil voxasining kengligi janubida 1-3 km, deltaga yaqin erda 20-25 km. Sinay yarim orolining uchtan ikki bo’lagi At-Tix qirlari egallagan. Yarim orolning janubida balantligi 2641 m ga etadigan tog’lar bor.

Mamlakatdan bir gina Nil daryosi og’ib o’tadi. Mayda ko’llar ko’p. Nil deltasida kanallardan sug’arishda foydalaniladi. Ayrim kanallarda kema qatnaydi. Janubdan shimolgacha sariq qo’ng’ir cho’l to’proq, sung bo’z to’proq (arablar bodiya cho’l to’prag’i dep ataydi). Nilning delta bo’lagi batqoq to’proq. Mamlakatting g’arb tarafida ko’chma qumlar bor. Nil deltasining to’prog’i juda maxsulotdor. Misr arab respublikasi xududining katta bo’lagi suvsiz, o’simliksiz cho’llardan iborat. Kserofit va lichayniklar, butali o’simliklar ko’p o’sadi. Liviya cho’lining shimolida qishta efemerlar o’sadi. Putasimon va ot o’simliklari tarqalgan. Nil bo’ylarida asosan madaniy o’simliklar ekiladi. O’rta dengiz bo’ylarida chalov, suv piyozi, yontoq, namatak va bashqa da o’simliklar ekiladi.

Hayvonot dunyosi ancha boy bo’lib, kalta kesak, ilonlar, cho’l erlarida bo’lsa, bo’ri, tulki, sirtlon va bashqa h’ayvonlar ko’p uchraydi. Nil bo’ylarin da g’oz, uyrak, aqqu va bashqa da yirtqish qushlar uchiraydi.

b) *Misr arab respublikasi qisqacha tarixi.*

Misr arab respublikasi insoniyat tsivilizatsiyasining byirikncchi makonlaridan byirik sanaladi. 3-4-asrlarda Misr arab respublikasi Rim imperiyasi qatoriga kirgan. Tuluniylar (868-905), abbosiylar (905-935), İxshidiylar (935-969) avlodlari h’ukmronlik etti.

1958-yili 1-fevralda Suriya h’ukimatlarining o’z-aro kelishishi natijasida yangi unitar mamlakat Birlashgan arab respublikasi tuzildi.

1968-yili 30-martta J.A.Nosir İsroil tajavuzi oqibatlarini to’qtatish uchun barcha kuchlarni ishga soldi. 2-may umumaxoli referendum kuni maqullandi.

1970-yili 28-sentyabrda J.A.Nosir vafot etti. Shu yili 15-oktyabrda Sadat prezidet etib saylandi.1981-yili 6-oktyabrda Sadat diniy tashkilot azolari tarafidan o’ltyirikldi. Shu yili 13-oktyabrda Xusniy Muborak Prezident etib saylandi. Yangi boschi ichki siyosiy tartibni iqtisodiy

turmishni  yaxshilashda bir qancha ishlar olib bordi. Mamlakatta zomanaviy bozor munosobatlari rivojlandi. Xalqaro maydonda ag'ir siyosat yurgizildi.

Yaqin  Sharqtagi tinchlik  protsessin davom ettyiriksh Arab-İsroil muajorasi toqtatish Misr arab respublikasi sirtqi siyosatining asosiy masalasi bo'lib qoldi.

Misr arab respublikasi 1945-yildan  boshlab   Birlashgan Millatlar Tashkilotiga azo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasining suverenitetin 1992-yili  dekabrda  tan olgan.  1992-yili 23-yanvarda diplomatiya munasabatlarin o'rnatgan. Milliy bayrami - 23-iyul  revolyutsiya kuni. (1952)

*v) Axolisi va milliy tarkibi.*   Mamlakat axolisi 65,6 mln.ni tashkil qiladi. Axolisining 98% ini arablar tashkil qiladi. Nubiylar, borborlar, koptlar Misr arab respublikasining tub axolisi bo'lib, mamlakatka  kelgan  arablar bilan aralashib ketgan qadimgi Misr arab respublikasiliklarning avlodlari bo'lib topiladi. Greklar, armyanlar, italyanlar va frantsuzlarda yashaydi. Rasmi tili arab tili bo'lib, derlik xamma axoli shu tilda so'zlashadi. Axolisi asosan islom dinining suniylik bo'lib, xristianlar 10% ni tashkil qiladi.

Misr arab respublikasi axolisining 43,9% shaxarlik erlarda yashaydi. Eng iyrik shaxarlari Koxira, İskandariya, Portsaid, İsmailiya, Tanta, Suvaysh, Al-Mansura, Damanh'ur, Al –Mah'allat-ul-Kubro shaxarlari xisoblanadi.

12-aprel-Bah'or bayrami. 23-iyul-Misr arab respublikasi revolyutsiyasi kuni. 6-oktyabr-Mamlakat qurolli kuchlari kuni. 25-oktyabr-Sinay azod etilgan kun. 23-dekabr-mustaqillik kuni va b.

*Misr arab respublikasining xaiq xo'jalik tarmoqlari*

*a) qishloq xo'jaligi b) sanaoti  v) transporti*

Mamlakatning ekin maydoni 3,1 mln.gektarga yaqin bo'lib, Misr arab respublikasi iqlimi qishloq xojaligidan yiliga ikki marta maxsulot olish imkoniyatini beradi. Lekin maxalliy maxsulotlar mamlakatning 40% ni gina etkazib beradi. Shu sababli 1997-yildan boshlab, qishloq xojalik maydonlari kengaytyiriksh uchun mamlakatning janubi g'arbida  yangi erlarni ochish ishlari yo'lga qoyilgan. Natijada ekin maydonlarining soni 3,9 ml.gektarga etti.

Qishloq xojaligining etakchi soxasi dexkonchilik bo'lib, asosan Nil daryosi boylarida rivojlangan. Bu erda 3 mln gektarga yaqin  maydonda yiliga ikki marta ekin ekilib, maxsulot olinadi. Byiriknchi eng ko'p daromat keltiradigan  sholi va paxta ekiladi.

Bunnan boshqa da  bo'g'doy, arpa, ma'kk jo'xori**,** poliz ekinlari, shakar qamish  ekiladi. Tsitrus mevalardan mandarin,  apelsin, limon, xurmo, banan, anjir, uzimlar asosan mamlakatting shimoliy tarafida ekiladi.

Ta'biiy yaylovlari oz bo'lganligi sababli shorvachilik ancha rivojlanmagan. Maxalliy axoli qoramol, qo'y, echki bog'adi. Bol arachilik rivojlangan. Nil daryosi va ichki ko'llarda, Er O'rta dengizda baliq avlanadi.

**Transporti**. Misr arab respublikasida asosan yuklarning 85% avtomobillarda tashiladi. Yuk tashishning 10% i temir yullarga, 5% i suv transportlariga to'g'ri keladi. Avtomobil yullarining uzinlig'i 48,8 ming km, eng ahmiyatli magistrallari Koxira-İskandariya, İskandariya-Marso-Matruh', Koxira-Suvaysh va t. b.

Tashqi savdo yuklari asosan xorij davlatlariga dengiz kemalarida, samoletlarda tashiladi. Asosiy dengiz porti İskandariya, Koxira shaxarida eng yirik aeroport bor.

Misr arab respublikasi shet mamlakatlarga neft, paxta, ip gazlama, alyuminiy va b. maxsulotlar chiqaradi.

Chet davlatlardan mashina, asbop-uskuna, don va b. oziq-ovqat maxsulotlarini sotip oladi. Shunigdek yog'och, tsement, metall va b. oladi. Tashqi savdodagi asosiy xamkorlari İtaliya, Frantsiya, Germaniya, Yaponiya, AQSh davlatlari.

Shet eldan kelgan turistlar mamlakatka byudjetiga bir qancha daromat keltiradi.

Misr arab respublikasi pul birligi – Misr arab respublikasi-Funti.

Tibbiy xizmat ko'rsatish Sog'likni saqlash vazirliklari, sog'likni saqlash departamentlari bor. Mamlakatta tekin xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Xususiy shifoxonalar xam bor. Vrachlar Universitetting 9 meditsina, 4 stomatologiya, 6 farmatsevtika fakultetlarinda shuningdek shet ellarda tayorlanadi.

1952-yili Koxira shaxari yaqinida qurilgan Xulvon metallurgiya zavodi mamlakatning eng birinchi yirik karxonalaridan xisoblanadi. Bu zavod Asuan yaqinida qazip olingan sifatli temir rudasi asosida ishlaydi. Asuan shaxarida yiliga 300 ming tonna polat ishlab chiqaradigan metallurgiya markazi bor.

Suvaysh, Koxira İskandariya, Tanta shaxarlari neftni qayta ishlovchi markazlardan xisoblanadi.

Kimyo sanoati faqat mineral to'gin ishlab chiqaradi Kafr-uz-Zayyat va Abu-Zabaldagi zavodlar yiliga 200 ming tonna superfosfat ishlab chiqish quvatiga ega. Abu-Zabalda qurilgan antibiotiklar zavodi farmatsevtika zavodiga asos bo'ldi. Shuningdek 5 farmatsevtika karxonasi qurildi. Bulardan boshqa da Asuanda kaltsiy, Suvayshda ammoniy sulfat, İskadariya yaqinida soda zavodlari, Xulvoa koks-ximiya zavodi bor. Oziq-ovqat sanoati qishloq xojalig'i maxsulotlarin qayta ishlaydi. Armant, Kum-Umbu, Adfu shaxarlarinda yirik shakar zavodlari bor. Asuan gidroenergetik majmuasiga kiruvchi elektr stantsiyalar va yoqilg'i bilan ishlaydigan elektr stantsiyalari yiliga ortacha 525 mlrd. kvt. saattan ortiq elektr energiyasin qayta ishlaydi.

Mashinasozlik sanoati xam qayta qurilgan. Mostorodda elektr kabellari zavodi va metall buyimlar fabrikasi, Xulvonda vagonsozlik, avtomobil, polat simlari zavodlari, İskandariyada toqimachilik sanoati uskunalari zavodi, Koxirada velosiped va televizor zavodlari bor.

**O'zbekiston-Misr arab respublikasi aloqalari.**

Moziga nazar tashlasak O'zbekiston Respublikasining Misr arab respublikasi mamlakati bilan aloqalarii uzoq o'tmishka borib taqaladi. 1992-yili yanvarda Misr arab respublikasi ra'smiy delegatsiyasining O'zbekistonga kelishi va 1992-yili dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti İslom Karimovning Misr arab respublikasi mamlakatiga borishi ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarining chuqirlashishiga sabap boldi.

2000-yilgacha mamlakatlar o'rtasida 10 ga yaqin ikki taraflama hujjatlarga qo'l qoyildi.

**Hindiston Respublikasi**

Hindiston Respublikasining umumiy maydoni 3.3 mln.kv.km dir.

Hududi, asosan, ulkan uchburchak shaklida bo'lgan Hindiston yarimorolida joylashgan, u shimoldan janubga 3.2 ming. kv. km , g'arbdan sharqqa 2.9 ming km masofaga cho'zilgan. Shuningdek, Hindistonga Lakadif hamda Andaman va Nikobar orollari guruhlari ham qarashlidir.

Siyosiy-hududiy tuzilishiga ko'ra Hindiston Federativ respublikadir.

Uning tarkibida 25 ta shtat va markazga bo'ysunadigan yettita ittifoqdosh hududlar mavjud. Davlatning siyosiy markazi Dehli shahridir

Hindiston Respublikasi Janubiy Osiyo subregionida eng yirik davlatdir.

Hindiston katta masofada dengizlar bilan tutashgan. Unda G'arb va sharq mamlaktlari o'rtasida dengiz orqali olib boriladigan serqatnov savdo yo'llari joylashgandir.

Hindistonning tabiiy sharoiti xilma-xil va ancha boy. Mamlakt shimoliy tomondan baland Himolay tog'lari bilan o'rab turilishi uning iqlimiy sharoitlarining juda qulay bo'lishida, nihoyatda boy agroiqlim resurslari bilan ta'minlanishida asosiy rol o'ynaydi. Uning yerosti qazilma boyliklari ham xilma-xil. Temir va marganes rudalari, xrom, titan zaxiralari dunyo ahamiyatiga ega. Shuningdek, ko'mir, oltin, va boshqa bir qator rangdor metal zaxiralariga boy. Hududi va dengiz sayozliklardan neft ham topilgan.

Hindiston aholisining soni bir milliarddan oshgan, aholisining soni tez o'sayotgan mamlakatdir. So'nggi yuz yil ichida uning (1900-2004) aholisi 239mln. dan 1mlrd. 64ming 400kishigacha ko'payadi. Agar aholisining hozirgi o'sish suratlari saqlanib qolsa, mamlakat aholisining soni, BMT hisobi bo'yicha 2025-yilda 1.4 mlrd. kishiga yetadi. Shu sababli, Hindistonda aholi o'sishining sekinlashishiga xizmat qiladigan demografik siyosatni olib borishga to'g'ri keladi. Ammo oilani rejalashtirishga qaratilgan bu siyosat hanuzgacha sezirarli darajaga olib kelmadi.

Hindiston jahondagi eng ko'p millatli mamlakatdir. Ahoisining milliy-etnik tarkibi juda murakkab. Unda yashayotgan millat, elat va qabilalar turki til guruhlariga, dinlarga mansubdir. Ularning urf-odatlari ham turlicha, ijtimoiy rivojlanish darajalari esa har-xil bosqichdadir.

Mamlakatdagi asosiy millatni hindlar, bengallar, bixarlar, panjobliklar, tamillar, kashmirliklar va boshqalar tashkil qiladi. Ammo Hindistonda hech bir millat ko'pchilikni tashkil qilmaydi.

Aholiningdiniy tarkibi ham ancha murakkab. Aholining 80 % induizm diniga mansub. Ikkinchi o'rinni islom diniga mansub aholi egallaydi. Ular malakat aholosining 100mln.dan ko'proq qismi (11%) ni tashkil qiladi. Jammu va kahmir shtatlari aholisining 2/3 qismi islom diniga mansub. Shunngdek, Hindistonda 18mln. xristianlar, 15mln. sikxlar, 5mln. buddiizm va boshqa din vakillari ham yashaydilar.

Hindistonning ijtimoy-iqtisodiy va madaniy hayotida O'rta Osito xalqlarining alohida o'rni bor. Temuriylar sulolasining yorqin namoyondalaridan bo'lgan zaxriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari bu mamlakat tarixida beqiyos iz qoldirgan.

Binobarin,Bobur asos slogan Boburiylar saltanatining Hindiston tarixidagi ulkan xizmatlari-tarixan biron marta ham birlash olmagan Hindiston, Pokiston va Bangladesh hududlarini yagona makazlashgan ulkan hokimiyat atrofida birlashtirganni va unda bir yo'nalishli ijtimoit-iqtisodiy taraqqiyot yo'liga asos slogan edi. Darhaqiqat, Boburiylar sulolasi Hindistonda uch asrdan ortiq (1526-1858-y-y) vaqt davomida hukmronlik qildi. Bu yllar davomida tili, dini, maanfatlari turlicha bo'lgan, ko'pincha bir-birlariga dushman bo'lgan (hind xalq ijodiyoti namunalaidan bo'lgan “Maxobxorat”, “Ramayana” dagi voqealarni eslang) o'nlab tarqoq davalt va davlatchalar mavjud edi.

Hindiston aholisining o'rtacha zichlik ko'rsatkichlari juda yuqori-1kv. km maydonga 330 kishidan to'g'ri keladi.

Mamlakat aholisining urbanizatsiya darajasi u qadar yuqori emas. Hozir mamlakat aholisining 26% shaxarda yashaydi. Hozir Hindistonda 4 mingtadan ortiq shaxarlar bor. Ularning 300 dan ortig'i tyirikk shaxarlardir. Millioner shaxarlarning umumiy soni 23 ta.

## FRANSIYA DAVLATI

### 1. Fransiya davlatining tashkil topishi va rivojlanish bosqichlari

Fransiya feodal munosabatlar eng rivojlangan, klassik shaklga ega boʻlgan davlat edi. U 843 yilda Verden shahrida Karl Buyukning uch nevarasi yigʻilishida franklar imperiyasining uch qismga boʻlinib ketishi natijasida tashkil topgan. Verden ahdiga muvofiq marhum Ludovik Xudojoʻyning katta oʻgʻli Lotar imperatorlik unvonini saqlab qoldi, lekin ukalari Ludovik Nemis va Karl Yaltiroqboshga nisbatan hech qanday maxsus huquqqa ega emas edi. Ukalarining har qaysisi oʻz holicha mustaqil qirol boʻlib qoldi, Lotarga Italiya, Sharqda Reyn bilan Gʻarbda Mass, Shelda, Sena va Rona daryolari oʻrtasidagi yerlar (bunga Burgundiya ham kiradi), Reynning sharqidagi yerlar Ludovik Nemisga tegdi. Lotarga qarashli yerlarning gʻarbidagi yerlar Karl Yaltiroqboshga tegdi. Keyinroq, Lotar oʻlgandan soʻng yerlar qaytadan boʻlinadi. Lotarning avlodlari Italiyadagi yerlarnigina oʻz qoʻlida saqlab qoladi, Reyn boʻyidagi yerlarning hammasini Ludovik bilan Karl oʻzaro boʻlishib oldi. Burgundiya mustaqil qirollik boʻlib ajralib chiqdi. Imperatorlik unvoni keyinroq borib Karolinglar xonadonining boshqa avlodlari vakillariga oʻtdi. Masalan, 875-877 yillarda Karl Yaltiroqbosh imperator boʻldi, 880-887 yillarda imperatorlik toji Ludovik Nemisning oʻgʻli Karl Semizga oʻtdi. X asrning boshlariga kelib esa imperatorlik unvonining hech kimga hech qanday real ahamiyati qolmadi.

Shu tariqa, Verdenda boʻlgan taqsimot Yevropada keyinchalik vujudga kelgan uchta katta davlat - Fransiya, Germaniya va Italiyaning tashkil topishini umumiy bir tarzda belgilab berdi. IX asrning oʻrtasida mazkur davlatlarning ichida eng yaxliti "gʻarbiy franklar"ning davlati edi, u keyinchalik vujudga kelgan Fransiyaning kurtagi boʻldi. Bu yerdagi aholining asosiy ommasi endi tashkil topayotgan fransuz xalqidan iborat boʻlib, u alohida bir shimoliy roman tilida, ilk fransuz tilida gapyirikshar edi. Bu davlatning poytaxti Parij boʻlib, u Luara daryosi yaqinidagi Sena daryosi boʻyida joylashgan. "Gʻarbiy franklar qirolligi"da yoki, oddiy qilib aytganda, Fransiyada (uni X-XI asrlarda Fransiya deb atay boshlaydilar) Korolinglar X asrning oxyirikgacha hokimiyatni oʻz qoʻllarida saqlab keldi.

Germaniya va Italiyada esa Korolinglar ancha ilgari X asrning boshlaridayoq hokimiyatdan mahrum boʻldi. Lekin Fransiyada ham feodal tarqoqlik tezlik bilan avj olib bordi. "Byiriknchi fransuz qiroli" Karl Yaltiroqbosh oʻz zodagonlariga uzluksiz yon berishga majbur boʻldi. 847 yilda

u Mersen kapitulyariysini chiqarib, unda har bir erkin kishiga senor topib olishni taklif qildi; qirol o‘z fuqarolari ustidan shunday hokimiyatga ega bo‘ldi. 887 yildagi Kersin kapitulyariysi yer benifitsiylarining, shuningdek, graflik lavozimining ham nasldan-naslga meros bo‘lib qolishini qonunlashtirdi. Shu vaqtdan boshlab benifitsiylar nasldan-naslga meros bo‘lib qoladigan yerlarga - feodlarga, lenlarga; graflik vitse-graflik (vikontlik), markgraflik (yoki markizlik) va gersoglik unvonlari nasldan-naslga qoladigan knyazlik unvonlariga aylandi. Joylarda hududiy hukmdorlarga xos barcha huquqlarga, ya’ni qirollik huquqlariga o‘xshash huquqlarga ega bo‘lgan knyazlik sulolalari vujudga kela boshladi.

Shunday qilib, Fransiya davlati tashkil topgan vaqtda nomigagina yagona davlat bo‘lib, aslida u ko‘pgina (aniqrog‘i o‘n mingga yaqin) xilma-xil senorliklarning yig‘indisidan iborat edi. Bularning ba’zilari qirol hokimiyatini rasman tan olgan, lekin amalda deyarli mustaqil edi. Boshqa senorlar esa faqat qirolga sodiqlik haqida qasamyod qilar, biroq hatto rasman bo‘lsada unga bo‘ysunmagandi. Ular qirolga bo‘ysunishni - vassal bo‘lishni tahqirlanish, deb hisoblardilar.

Maydoni 544000$km^2$. Aholisi 58,3mln (1996 y.), 59,8mln (2001y.), 62,1mln kishi (2006y.). Fransiyaning IGO’ uchun 2 ta asosiy xususiyati xosdir:

1.Fransiya “EIH”ga a’zo mamlakatlar bilan bevosita chegaradosh bo’lib, uning chegarasi yaqinida bu mamlakatlarning industrial rayonlari joylashgan.Masalan: Reyn-Rur, London rayoni, qolaversa Yevropadagi Markaz o’qi o’tgan.

2.Fransiya sohillari Atlantika okeanining dengiz va qo’ltiqlari bilan bevosita tutashgan bo’lib, bu holat jahon mamlakatlari bilan arzon dengiz transporti orqali savdo-sotiq qilish imkononi beradi.

Fransiya quruqlik orqali 8 mamlakat bilan chegaradosh bo’lib, ayniqsa GFR, Italiya, Buyuk Britaniya bilan chegaradoshligi muhim rol o’ynaydi.

Fransiya ma’muriy jihatidan 96departamentga bo’lingan.Parij alohida departament huquqiga ega.Mamlakatda 4mln ga yaqin jazoirliklar, portugallar, italyanlar va ispanlar yashaydi.

Fransiya Horijiy Yevropada maydoniga ko’ra eng yirik mamlakat hisoblanadi.

Aholisi. Fransiyada tabiiy o’sish darajasi anchagina past bo’lib, millatning qarishi kuzatilmoqda.Tug’ilish koeffisenti 13%$_0$, o’lim 9%$_{0.}$ 1ayolga 1,9 bola to’g’ri keladi.15 yoshgacha bo’lganlar 19%, 64 yoshdanyuqori bo’lganlar 16%.O’rtacha umr 76-83 yosh.YAMD 24080 dollar (2001y.).Mehnat resurslarini to’ldyirikshning muhim vositasi qadimdan immigrasiya bo’lib kelgan.Aholi joylashuviga qishloqlardan odamlarning shaharlarga to’xtovsiz ko’chib kelishi (XX-asrda aholining buyuk ko’chishi) kuchli ta’sir etadi.Natijada urbanizasiya jarayoni jadal rivojlanib bormoqda.Hozirda Fransiya aholisining 79%i shaharlarda, 21%i qishloqlarda yashaydi.

Yyirik shaharlari: Parij 2,1mln kishi, Marsel 808 ming, Lion, Tuluza, Nissa, Strasburg.

Fransiya 1949 yil NATOga kirgan edi, lekin 1966 yil u NATOdan rasmiy ravishda chiqib ketgan bo’lsada, baribir hamkorlikni rivojlantyirikb kelmoqda.Prezident 7 yil muddatga saylanadi.
Asosiy siyosiy partiyalari:

1.Respublikani quvvatlovchi birlashma (1976y.t.t.).Sharl Fure, Robert Ouen, Sen-Simon.
2.Fransiya sosialistik partiyasi (FSP 19051.).
3.Fransiya kommunistik partiyasi (FKP 1920 y.t.t.).

Fransiya xo’jaligi 2-jahon urushida katta iqtisodiy zarar ko’rdi.Ekonomikasining deyarli barcha tarmoqlari yangi texnika bilan ta’minlandi.Eng yangi tarmoqlar-atom, radiotexnika, neft ximiyasi aerokosmik tarmoqlar rivojlanadi.

Fransiya sanoat mahsulotlarining hajmi jihatidan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida dunyoda 4-o’rinni egallaydi.Milliy daromadda qishloq xo’jaligining salmog’i 1/10qismidan kamroqni tashkil etsada, u aholini asosiy oziq-ovqat bilan ta’minlaydi va eksportda ham katta rol o’ynaydi.

Sanoati.Energetika qisman o’z resurslariga tayanadi.Ko’mir asosan shimoldan (Elzas va Lotaringiyadan), neft va tabiiy gaz esa oz miqdorda janubi-g’arbdan qazib olinadi.Mamlakat neftga bo’lgan ehtiyojini asosan chet el hisobiga (Jazoir, Liviya, Venesuela, MDH va Yaqin Sharq mamlakatlari) qondiradi.Shuning uchun ham neftni qayta ishlovchi asosiy markazlar dengiz bo’ylaridagi port shaharlarda (Marsel, Bordo, Nant, Gavr, Ruan) joylashgan.Fransiyani uran rudasiga boyligi va ko’p qazib olishi, shuningdek Afrikadagi sobiq mustamlakalardan uran

konsentrantini ko’plab keltyiriklishiga asoslanib atom energetikasi va atom sanoati tez rivojlanmoqda.

Qora metallurgiya sanoati Evropadagi eng katta Lotaringiya temir rudasi konlaridan foydalanadi.Lekin temir rudasini eksport qilishni ilgarigi ahamiyati yo’qolib bormoqda.O’rta Er dengizi sohillari boksitga boy bo’lib,
Alp va Pireney tog’ etaklaridagi arzon GESlar energiyasi alyuminiy eritish imkoniyatini beradi.

Mashinasozlik butun sanoat mahsuloti qiymatining 1/3qismidan ko’prog’ini va eksport mahsulotining asosiy qismini beradi.Mashinasozlik sanoatining joylashuvida Parij ayniqsa katta rol o’ynaydi.Butun mamlakatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining 25%ini birgina Parij beradi.

Ximiya sanoati tarmoqlari jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan byirik bo’lib, bu sanoat korxonalari tarqoq joylashgan.Ximiya zavodlari xom-ashyolar yaqinida, portlarda, GESlar yaqinida va katta shaharlarda joylashgan.To’qimachilik sanoati o’zining ilgarigi ahamiyatini yo’qotgan (ip-gazlama va jun-gazlama) hozirda sintetik tolalardan to’qilgan turli matolar bilan jahonga tanilmoqda.

Qishloq xo’jaligi.Fransiya hududining 35%i haydaladigan erlardir.Qishloq xo’jaligi ko’p tarmoqli bo’lib, go’sht, sut tayyorlash, bug’doy, qand lavlagi etishtyiriksh jihatidan Horijiy Yevropada 1-o’rinda, uzum vinosi tayyorlash, sohillarda ustrisa yig’ish jihatidan dunyoda 1-o’rinda.Asosiy texnika ekini-qand lavlagi.Rona daryosi etaklarida-sholi, SHampan viloyatida (O’rta dengiz bo’yi) uzum, Nissa rayonida gul ko’p ekiladi (parfyumeriya uchun).Mehnatga yaroqli aholining 10%i qishloq xo’jaligida band.

Fransiyada tashiladigan jami yukning 60,7 % i dengiz transportida, 21,2 % i avtomobil transportida, 10,6 % i temir yo’l transportida, 5,2 % i quvur transportida, 1,5 % i ichki suv transportida, 0,8 5 i havo transportida tashiladi.

Fransiyada tashiladigan jami yo’lovchining 84,2 % i avtomobil transportida, 9 % i temir yo’l transportida, 6,8 % i havo transportida tashiladi.

Mamlakat ichkarisida tashiladigan yuklarning yarmi temir yo’llarda tashiladi.Temir yo’llar salkam 40000km bo’lib, uning 10000km i elektrlashtyiriklgan.”Parij-Bordo” temir yo’lining tezligi 350km.soat.Uzunligi 515km.”Parij-Strasburg”.

Tashqi savdoda dengiz floti muhim rol o’ynaydi.Fransiya eksportining 3/4qismi tayyor buyumlar (avtomobillar “Reno”, samolyotlar A-310, dengiz kemalari, qurol-yarog’, AESlar uchun uskunalar, temir, alyuminiy, atir-upa, bug’doy, sut, go’sht, shakar, vino) ga to’g’ri keladi.

Tashqi savdo 1-galda “EIH”ga va AQSH, Yaponiya bilan olib boriladi.

Fransiya chetga kapital eksport qiluvchi yirik davlat.Xalqaro turizm Fransiyaga katta daromad keltiradi.1989 yil Fransiyaga 50,2mln turist kelib ketdi va turizmdan 16,5mlrd dollar daromad tushdi.Dunyoda 1-o’rinda.2001 yil Fransiyaga 75mln turist kelgan.

Pul birligi-Fransiya franki. Xozirgi kunda EVRO

## *Mavzu: Avstraliya va Okeaniya*

*Avstraliyaning asosiy xususiyatlari.* Eng mitti, eng past, eng quruq materik, xaltali hayvonlar vatani, sayyoramizning yaxlit noyob qo’riqxonasi, o’rtasidan Janubiy tropik chizig’i o’tadi, evkalipt daraxti vatani (bo’yi 2 m dan 150 m gacha), materikdagi berk havza maydoni (60%) jihatidan byiriknchi o’rinda, yagona davlat – Avstraliya ittifoqi bor, aholisining yarmi ikkita shaharda (Sidney, Melburn) yashaydi.

*Geografik o’rni.* Avstraliya (lotincha “australius” – janubiy) to’liq Janubiy yarimsharda joylashgan. Materik o’rtasidan janubiy tropik chizig’i o’tganligi uchun uning shimoliy qismi issiq yoritilish mintaqasiga janubiy qismi esa mo’tadil yoritilish mintaqasiga to’g’ri keladi. Quruqlikni shimol, g’arb va janubdan Hind okeani, sharqdan Tinch okean suvlari o’rab turadi. Maydonining kichikligiga ko’ra unga ***materik – orol*** nisbatini berishgan. Odam yashaydigan materiklardan ancha uzoqda joylashgan.

*O’rganish tarixi.* Avstraliya odam yashaydigan materiklar orasida eng keyin kashf etilgan. Yevropaliklardan byiriknchi bo’lib Avstraliya quruqligiga qadam qo’ygan kishi gollandiyalik **Villyem Yanszon**dir. U 1606-yilda Keyp-York yarimorolini tekshirdi va materikka ***Yangi***

***Gollandiya*** deb nom berdi. Shu sana Avstraliyaning kashf etilgan vaqti bo'lib, geografiya tarixiga kirdi. Keyinchalik, ispaniyalik **L. Torres,** gollandiyalik **A.Tasman** va boshqalar materikni o'rgandilar.

*Geologik tuzilishi.* Avstraliya ham Afrika singari qadimgi geologik o'tmishda Gondvana materigining bir qismi bo'lgan. Mezozoy erasining oxyirikga kelib Avstraliya mustaqil materik tariqasida shakllandi. Materik asosini qadimgi qattiq va mustahkam platforma tashkil etadi. U Hind-Avstraliya litosfera plitasining bir bo'lagidir. Platformaning mustahkam kristalli zamini materikning shimolida, g'arbida va markaziy qismlarida yer yuzasiga chiqib yotadi. Sharqiy qismidagi Katta Suvayirg'ich tizmasi gersin tog' burmalanishida ko'tarilgan. Lekin nurash ta'syirikda pasayib qolgan. Platformaning botiqlari va dengiz sohillari cho'kindi tog' jinslari bilan qoplangan. Demak, qadimgi magmatik va metamorfik jinslar past tog', plato va yassi tog'liklarda, cho'kindi jinslar pasttekislik, tekislik va daryo havzlarida tarqalgan. Keyingi tektonik harakatlar natijasida Yangi Gvineya, Tasmaniya materik-orollari quruqlikdan ajralib qolgan.

*Foydali qazilmalari.* Platformaning zaminida ***temir, mis, qo'rg'oshin, rux, uran rudalari, qalay, oltin, platina*** kabi rudali qazilmalar joylashgan. Cho'kindi jinslar bag'rida ***fosforit, osh tuzi, toshko'mir*** va ***qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz*** tarkib topgan. Avstraliya temir va rangli metallar (boksit, qo'rg'oshin, rux, nikel) hamda uran zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Ko'pgina qazilma boyliklar yer yuzasiga yaqin joylashgan. Shu bois, ular arzon – ochiq usulda qazib olinadi. Avstraliya – rux, qo'rg'oshin va kumush qazib chiqarishda dunyoga mashhur.

*Relyefi.* Avstraliya relyef tuzilishiga ko'ra uch qismga ajraladi. Byiriknchisi, G'arbiy Avstraliya yassi tog'ligidir. U yassi tog'lik va baland tekisliklaridan iborat. Nurash natijasida yemyiriklib, pasayib qolgan balandliklar va qoldiq tog'lar ko'zga yaqqol tashlanadi. Kelib chiqishiga ko'ra ularni palaxsali tog'lar guruhiga kyiriktish mumkin.

Ikkinchisi, Markaziy tekislik bo'lib, u materikning eng past va yassi tekisliklaridan iborat. Ular dengiz va daryo yotqiziqlaridan tuzilgan. Tekislikning mutlaq balandligi 100 m dan oshmaydi. Materikning eng past joyi (Eyr ko'li – 16 m) ham shu yerda.

Materikning sharqida uzoq masofaga cho'zilgan uchinchi tog'li qismi – Katta Suvayirg'ich tizmasini hosil qiladi. Bu tizmaning eng baland joyi janubiy qismidagi Avstraliya Alpi tog'lari (Kossyushko cho'qqisi, 2230 m) hisoblanadi.

*Iqlim xususiyatlari.* Avstraliyaning geografik o'rni, havo massalari, okean oqimlari, relyefi materik iqlimining o'ziga xos xususiyatlarini shakllantirgan. Shunga ko'ra, Avstraliya yerimizdagi eng qurg'oqchil materik hisoblanadi. Uning hududida Afrikaga nisbatan besh baravar kam yog'in yog'adi. Bu yerda quruq tropik iqlim tipi hukmronlik qiladi. Shuning uchun materikning markaziy va g'arbiy qismlarida yog'ingarchilik juda kam bo'ladi. Okeandan esadigan janubi-sharqiy passatlar Katta Suvayirg'ich tizmasining sharqiy yon bag'irlariga yog'in keltiradi.

*Iqlim mintaqalari.* Avstraliya materigida 4 ta iqlim mintaqalari tarkib topgan. ***Subekvatorial iqlim mintaqasi*** materikning $20^o$ j.k. gacha bo'lgan hududlarni egallaydi. Yozda (dekabr-fevral) ekvatorial havo massalari ko'p yog'in keltiradi (800-2000 mm). Qishda (iyun-avgust) esa tropik havo massalari hukmronlik qiladi va havo quruq bo'lib, yog'in kam yog'adi. Bu mintaqada o'rtacha havo harorati yozda +24 $^oC$, qishda esa 16-24 $^oC$ ni tashkil etadi.

***Tropik iqlim mintaqasi*** katta maydonni egallaydi. Oldingi mintaqa singari ko'p quyosh radiatsiyasini oladi. Ikkita iqlim tipi shakllangan.

***1.*** Quruq tropik iqlim tipi, tekislikni egallaydi, yog'in kam (100-500 mm), yillik havo harorati 30-32 $^oC$.

***2.*** Nam tropik iqlim mintaqasi, Tinch okean sohilida tarkib topgan, yog'in ko'p (2000 mm gacha), yillik harorat 16 $^oC$.

***Subtropik iqlim minataqasi*** materikning janubiy qismini va Tasmaniya orolining shimoliy sohil bo'ylarini qamrab oladi. Bu mintaqada uchta iqlim tipi hosil bo'-gan. G'arbdan sharqqa tomon dastlab O'rta dengiz subtropik iqlim tipi (yog'in 300-1000 mm), so'ngra kontinental (yog'in 100-500 mm) va janubi-sharqiy qismida nam subtropik iqlim tiplari (yog'in 2000-3000 mm) mavjud. Tasmaniya oroli g'arbiy shamollar ta'syirikda bo'lib, mo'tadil iqlim mintaqasi asosiy qismini egallaydi (yog'in 500-2000 mm, qishda +8 $^oC$, yozda +16 $^oC$).

*Ichki suvlari.* Materikning katta qismi quruq tropik iqlim mintaqasida joylashganligidan daryolar oz. Avstraliyaning 60% maydoni oqmas ichki berk havzaga, 7% i Tinch okean va 33% i Hind okeani havzasiga qaraydi. Daryolarning quruq o'zanlari ***kriklar*** deb ataladi. Bu daryolarda suv ahyon-ahyonda yog'adigan yomg'irlardan keyin paydo bo'ladi va tez orada qurib qoladi. Yil bo'yi sersuv bo'lib oqadigan daryolar Avstraliyaning sharqiy qismida mavjud. Daryolar yomg'irdan va yer osti suvlaridan to'yinadi. Avstraliyaning eng katta daryo tizimi – Murrey va uning yirik irmog'i ***Darling***dan iborat. Avstraliyada kichik oqmas ko'llar ko'p. Ular juda sho'rlangan. Ko'llar ichida eng yyirikgi Eyr ko'li, uning maydoni suv bilan to'lgan paytda 15 ming kv. km ga yetadi. Eyr okean sathidan 16 m pastda joylashgan. Materikning cho'l va chalacho'l zonalarida yer osti suvlarining zaxirasi ko'p. Ularning ahamiyati katta.

*Tabiat zonalari.* Avstraliya maydoniga ko'ra qiyoslansa, cho'l zonasi egallagan hududlar bo'yicha byiriknchi, o'rmonlar maydoniga ko'ra oxirgi o'rinni egallaydi. Materikda quyidagi tabiat zonalari tarkib topgan. ***Nam ekvatorial o'rmonlar*** materikning shimoliy-sharqiy sohillarini egallaydi. Daraxtlardan ***palma, lavr, daraxtsimon paporotniklar, evkaliptlar*** ko'p uchraydi. ***Tropik o'rmonlarda*** xaltali ayiq – ***koala, lirodum, kenguru, xaltali iblis, o'rdakburun, yexidna,*** rang-barang ***to'tilar, qushlar*** yashaydi. Savannalar materikning shimoliy, sharqiy qismlarida katta maydonlarni egallaydi. Savannalarda siyrak o'rmonlar (evkalipt, akatsiya, kazuara, butilkasimon daraxtlar), o't hamda buta o'simliklar mavjud. Bu zonada ***kenguru, vombatlar*** (xaltali kemiruvchilar), ***xaltali chumolixo'r,*** suv havzalarida ***qushlar*** ko'p.

***Cho'l zonasi*** materikning ichki qismida katta hududlarni egallaydi. Bu zonada efemer o'simliklar bilan birga doimiy yashil butazorlar (asosan, evkalipt, akatsiyadan iborat) o'tib bo'lmas changalzorlarni – ***skreblarni*** hosil qiladi. Bu zonada ***gigant kengurular, vombatlar, yexidna, dingo iti, emu tuyaqushi, zaharli ilonlar, mali –*** inkubator tovug'i va kemiruvchilar yashaydi.

Eng janubdagi ***subtropik iqlim*** mintaqasidagi tabiat zonalari hududiy xususiyatga ega. Materikning g'arbiy qismida qattiq bargli o'rmonlar va butalar (asosan, evkaliptlar), janubi-sharqida evkalipt o'rmonlari, undan janubda doimiy yashil dublar o'sadi. Avstraliya Alp tog'larida balandlik mintaqalari mavjud. Tog' etagidagi o'rmonlar, butazorlar asta-sekin tog' tepasida alp o'tloqlari bilan almashinadi. Tasmaniya aralash o'rmonlar bilan qoplangan.

Avstraliyada 19,9 mln aholi yashaydi (2004-yilda). Avstraliyaning tub joy aholisi – aborigenlar avstroloid-negroid irqiga mansub bo'lib, ularning terisi to'q jigarrang, sochlari to'lqinsimon, qora, yapaloqburun bo'ladi. Olimlarning etnografik ta'rificha, ular bu yerga Janubi-Sharqiy Osiyodan kelgan.

*OKEANIYA*

*Okeniyaniya davlatlarining umumiy tavsiflari:*

| | |
|---|---|
| ***Vanuatu:***<br>*Hududi: 14.763 ming kv. km*<br>*Aholisi: 185 ming ga yaqin*<br>*Poytaxti: Port-Vila*<br>*Davlat tili: Bislama, ingliz, fransuz*<br>*Pul birligi: vatu (100 santim)*<br>*Davlat tuzumi: Respublika*<br>*Dini: xristian* | ***Kyirikbati:***<br>*Hududi: 810.7 kv. km*<br>*Aholisi: 84 mig kishi*<br>*Poytaxti: Bayriki*<br>*Davlat tili: Ingliz, tunguar*<br>*Pul birligi: Avstraliya dollari*<br>*Davlat tuzumi: Respublika*<br>*Dini: Xristian* |
| ***Marshall Orollari:***<br>*Hududi:181.3 kv. km*<br>*Aholisi: 63 ming kishi*<br>*Poytaxti: Madjuro*<br>*Davlat tili: Marshall tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Dollar (Aqsh)*<br>*Davlat tuzumi: Respublika*<br>*Dini: Xristian* | ***Mikroneziya:***<br>*Hududi: 702 kv.km*<br>*Aholisi: 130 ming ga yaqin*<br>*Poytaxti: Palikir*<br>*Davlat tili: Ingliz*<br>*Pul birligi: Dollar (Aqsh)*<br>*Davlat tuzumi: Federativ Respublika*<br>*Dini: Xristian* |

| | |
|---|---|
| ***Nauru:***<br>*Hududi: 22 kv.km*<br>*Aholisi: 10.7 ming kishi*<br>*Poytaxti: mavjud emas*<br>*Davlat tili: naura tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Avstraliya dollari*<br>*Davlat tuzumi: Respublika*<br>*Dini: Xristian* | ***Palau:***<br>*Hududi: 497 kv.km*<br>*Aholisi: 18 ming ga yaqin*<br>*Poytaxti: Koror*<br>*Davlat tili: Palay tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Dollar (AQSH)*<br>*Davlat tuzumi: Respublika*<br>*Dini: Xristian* |
| ***Papua-yangi-Gvineya:***<br>*Hududi: 462.8 ming kv.km*<br>*Aholiisi: 4.6 mln. kishi*<br>*Poytaxti: Port-Morsbi*<br>*Davlat tili: Ingliz, motu*<br>*Pul birligi: Kina (100 toya)*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian* | ***G'arbiy Samoa:***<br>*Hududi: 2.8 ming kv. km*<br>*Aholiisi: 224.7 ming kishi*<br>*Poytaxti: Apia*<br>*Davlat tili: Ingliz*<br>*Pul birligi: tala (100 sene)*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian* |
| ***Solomon orollari:***<br>*Hududi: 29.8 ming kv.km*<br>*Aholiisi: 349 ming kishi*<br>*Poytaxti: Xoniara*<br>*Davlat tili: Ingliz*<br>*Pul birligi: Dollar (S.O)*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian* | ***Tonga:***<br>*Hududi: 748 kv.km*<br>*Aholiisi: 108 ming kishi*<br>*Poytaxti: Nukualofa*<br>*Davlat tili: Tonga tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Paanga (100 seniti)*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian, mormon* |
| ***Tuvalu:***<br>*Hududi: 26 kv. km*<br>*Aholiisi: 10 ming ga yaqin*<br>*Poytaxti: Fongfale (Funafuti)*<br>*Davlat tili: Tuvalu tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Avstraliya dollari*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian* | ***Tuvalu:***<br>*Hududi: 26 kv. km*<br>*Aholiisi: 10 ming ga yaqin*<br>*Poytaxti: Fongfale (Funafuti)*<br>*Davlat tili: Tuvalu tili, ingliz*<br>*Pul birligi: Avstraliya dollari*<br>*Davlat tuzumi: Konstitutsion monarxiya*<br>*Dini: Xristian* |

Okeniya haqida umumiy ma'lumot.

*Asosiy xususiyatlari.* Okeaniya – bepoyon suvli maydonlarda sochilib yotgan orollar dunyosi, suv tagidan hisoblansa, harakatdagi eng baland vulqoni bor, zaharli ilonlari, yirtqichlari va yirik sutemizuvchi hayvonlari yo'q, yagona uch ko'zli kaltakesak shu yerda yashaydi, endemik organizmlari ko'p, quruqlikka nisbatan suvli muhit eng ko'p maydonni (98%) egallaydi. Quruqlikning 90% maydoni ikki orolga to'g'ri keladi.

*Geografik o'rni.* Geografik olimlar Okeaniya tabiatining rang-barangligiga asoslanib, uni alohida qit'a deb ajratishadi. Tinch okeanining markaziy va g'arbiy qismlarida sochilib yotgan katta-kichik orollar ***Okeaniya*** deb ataladi.

O'zi egallagan maydonga nisbatan quruqlik atigi 2% ni tashkil etganligi uchun ham Okeaniya nomini olgan. Okeaniya o'z tarkibiga 7000 dan ortiqroq orollarni birlashtiradi. Orollarning umumiy maydoni atigi 1,3 mln.km$^2$.

Okeaniya hududi tabiiy-geografik va etnografik farqlariga asoslanib, uchta qismga, ya'ni to'plam orollariga bo'linadi:

① Melaneziya (yunoncha, ***melos-qora, nesos-orol,*** ya'ni ***qora orollar***).

② Mikroneziya (yunoncha, ***kichik orollar***).
③ Polineziya (yunoncha, ***ko'p orollar***).

*O'rganish tarixi.* Okeaniya to'g'risidagi ma'lumotlar yevropaliklarga F.Magellan sayohatidan (1521-y.) keyin ma'lum bo'lgan. J. Kuk (1771-1773-y.) ko'plab orollarni xaritaga tushyirikb tavsif bergan. XIX asrda ruslar 40 marotaba ekspedtsiya uyushtirgan. Shu asrning oxyirikda **"Chellenjer"** ekspeditsiyasi (1873-1876-y) Okeaniya orollari, aholisi haqida qiziqarli ma'lumotlar to'plagan. Bu borada **M.N.Mixluko-Maklay** (1871-1882-y.) Yangi Gvineyada papauslar bilan birga yashab, ularning yashash tarzi haqida bebaho ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

*Geologik tuzilishi va relyefi.* Orollarning geologik tarixi va qanday jinslardan tuzilganligiga ko'ra bir necha guruhlarga bo'lish mumkin. Materik orollari (Yangi Gvineya, Yangi Zelandiya), vulkanik orollar (Gavayi, Pasxa, Tuamotu), geosinklinal orollar (Mariana, Yangi Kaledoniya). Bulardan tashqari, Okeaniyada eng baland nuqtasi Yangi Gvineya orolidagi Jaya cho'qqisi (5030 m) hisoblanadi.

Okeaniyadagi asosiy qazilma boyliklarga ***rangli metal rudalari, ko'mir, fosforit, boksit, neft*** (Yangi Gvineya, Yangi Zelandiyada) va boshqalar tegishli.

*Iqlim mintaqalari.* Deyarli barcha orollar ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Faqat Yangi Zelandiya va unga yaqin bo'lgan orollar subtropik va mo'tadil iqlim mintaqalariga to'g'ri keladi. Umuman, Okeaniya iqlimi iliq, yumshoq bo'lib, haroratning tebranishi fasllar bo'yicha kecha va kunduzda ham katta emas. Kunduz tush paytida +30 $^{o}$C, kechasi +23 $^{o}$C ni tashkil etadi. Yog'inlar ko'p yog'adi, o'rta hisobda 3000 – 4000 mm. Gavayi orolidagi tog'larning shamolga ro'para yonbag'irlariga yiliga 12500 – 14000 mm yog'in yog'ishi kuzatilgan. Bu yer yuzidagi eng ko'p yog'in yoqqan joydir. Okeaniyada havo bosimining tez o'zgarishi kuchli dovullarning hosil bo'lishiga olib keladi. Dovul va sunami to'lqinlaridan g'arbdagi orollar tabiati, aholisi katta zarar ko'radi. Yangi Gvineya tog'larida 4420 m dan yuqorida doimiy qorlar, hato kichik muzliklar bor. Yangi Ze-landiya tog'larida ham qor-muzliklar ko'p uchraydi.

*O'simliklar va hayvonot dunyosi.* Orollarning asosiy qismi doimiy yashil nam o'rmonlar va savannalar bilan qoplangan. Daraxtlardan qimmatlisi ***kokos*** va ***sago*** palmalari, ***kauchukli daraxt, banan, non*** va ***qovun daraxtlari, mango, shakarqamish,*** Yangi Zelandiyada ***daraxtsimon paporotniklar, kauri tilog'ochi, karam daraxti, zig'ir*** va boshqa endemiklar o'sadi. Tog'larning shamolga ro'para bo'lgan yonbag'irlarida, tekisliklarda qalin o'rmonlar bo'lsa, teskari tomonida savannalar hosil bo'lgan.

Hayvonot olami o'ziga xos. Yangi Gvineya va unga yaqin orollarda ***kazuar tovug'i*** (emu oilasiga mansub), Yangi Zelandiyada bo'yi 3 m keladigan ***moa tovug'i, uch ko'zli kaltakesak, kivi tovug'i,*** barcha orollarda dengiz qushlari juda ko'p ***(albatros, bo'ron qushi, baliqchi qush).*** Orollarga keltyiriklgan ***kalamush,*** yovvoyilashgan ***mushuk, echki, quyon*** tabiatga juda katta zarar keltirmoqda. Kalamush, mushuk qushlarga qirg'in keltirsa, echki va quyonlar o'simliklarni yo'q qilmoqda.

*Aholisi.* Okeaniyada 12,7 mln aholi yashaydi (2004-y.). Yangi Zelandiyada tub joy aholisi ***maorlar*** jami aholining 9% ini tashkil etadi. Asosiy aholisi ingliz – yangi zelandiyaliklardan iborat. Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Yangi Gvineya, Gavayi orollarida kelgindilar ko'p. Bu yerda aholining ko'pchiligi shaharlarda yashaydi. Boshqa orollarda qishloq aholisi ko'pchilikni tashkil etadi. Mahalliy aholi kokos palmasi, banan, shakarqamish, ananas, kofe, kakao yetishtiradi. Baliqchilik, o'rmonchilik, turistlarga xizmat ko'rsatish, dengizdan dur olish, rangli metal rudalari, ko'mir, neft qazib chiqarishda ishlashadi.

### Janubiy Afrika Respublikasi.

Bu mamlakat afrika materigining chekka janubida joylashganligi uchun shunday nom bilan atalgan. Maydoni 1,222 ming km$^2$ . Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi: dengiz bo'yida joylashganligi, muhim dengiz yo'llari ustida joylashganligi. Janubiy Afrika Respublikasi iqlimiy jihatdan asosan tropik va qisman subtropik mintaqalarda joyldashgan. Mamlakat hududida Drakon, Kap tog'lari joylashgan. Asosiy daryosi Oranjevaya. Janubiy Afrika Respublikasi quruqlik orqali

Namibiya, Botsvana, Zimbabve, Mozambik, Svazilent davlatlari bilan chegaradosh. Lesoto davlati orol ko'rinishida to'liq Janubiy Afrika Respublikasini ichida joylashgan.

Janubiy Afrika Respublikasi foydali qazilmalarga boy. Asosiy qazilma boyliklari: temir rudasi qazib olish bo'yicha dunyoda 9- o'rinda (yiliga 30 mln t. va ¾ qismini Evropaga eksport qiladi.).

Marganes va xrom qazib olishda dunyoda 1- o'rinda;

Nikel qazib olishda 6- o'rinda;

Mis qazib olishda 10- o'rinda;

Fosforit qazib olishda 6- o'rinda;

Oltin qazib olishda 1- o'rinda (yiliga 630 t.)

Ko'mir qazib olishda 8- o'rinda (yiliga 180 mln t. qazib oladi, Yevropa va Yaponiyaga eksport qiladi). Olmos, platina va uran qazib olishda 1- o'nlikka kiradi.

Aholisi soni 44 mln kishi (2003 yil), 47,3 mln kishi (2006 yil) bo'lib, u demografik tanglikda. 2003 yil ma'lumoti bo'yicha Janubiy Afrika Respublikasida tug'ilish koeffisienti -23‰, o'lim 14‰. Agar aholining tabiiy ko'payishi shu xolatda ketsa, 2025 yil aholi soni 35 mln kishiga tushib qoladi. Chaqaloqlar o'limi 57‰. 1 ayolga 2,8 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar soni 34 %, 64 yoshdan o'tganlar 5% . o'rtacha umr 53-54. YAMD butun Afrika materigi bo'yicha o'rtacha 2120 $. Janubiy Afrika Respublikasida eng yuqori 10910 $ tashkil etadi. 15 yoshdan 49 yoshgacha bo'lgan aholining 20 % i "VICH" bilan zararlangan. Bu ko'rsatkich Afrika materigida 6,5 % ni, butun dunyoda esa 1,2 % ni tashkil etadi. Botsvanada eng yuqori 39 %.

Aholdisining 4/5 qismini tub joy xalqlari (zumus, bantu, bur, kasa), 12 % ini oq tanlilar (ingliz, golland, fransuz), qolganini Osiyodan ko'chib kelganlar va mulatlar tashkil etadi. Aholi zichligi 1 $km^2$ joyga 36 kishi. Urbanizasiya darajasi 45 % . Hayot darajasi o'rtacha. Millioner shaharlari yo'q, lekin millioner aglomerasiyalari mavjud: Yo'xannesburg, Keyptaun, Durban, Pretoriya.

Davlat tili afrikans va ingliz.

Janubiy Afrika respublikasi siyosiy-ma'muriy jihatdan 9 ta provinsiyadan tashkil topgan. Federativ respublika. Kap xududini dastlab 1662 yil gollandlar bosib olgan, XIXasr boshida esa inglizlar bosib olgan. 1961-yildan boshlab Janubiy Afrika respublikasi mustaqil deb e'lon qilingan. Janubiy Afrika respublikasi 1915-92 yillar Namibiyani mustamlaka qilgan. Asosiy siyosiy partiyalari:

1.Millatchilar partiyasi (1948 yil).

2. Konservativ partiyasi (1982-yil)

3. Progressiv – federal partiyasi

Davlat boshlig'i prezident, boshqaruv organi esa 3 palatali parlametdan iborat. Janubiy Afrika respublikasi rivojlangan industrial – agrar ko'chirma kapitalizm davlatidir. U Afrika xududining 4,1 % ini egallagan, aholisining 6 % ini o'z ichiga olgani holda, butun Afrikada ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotini 40% ini, po'latni 80 % ini beradi. Qit'adagi jami temir yo'llarning 1/3 qismi, avtomobillarning deyarli yarmi Janubiy Afrika Respublikasiga to'g'ri keladi.

Vitvatersrant rayoni nafaqat Janubiy Afrika respublikasini, balki butun afrikaning eng yirik sanoat rayonidari. Bu rayon "Afrika Ruri" nomini olgan. Janubiy Afrika respublikasining iqtisodiy poytaxti Yoxannesburg shu rayonda joylashgan bo'lib, eng yirik va zamonaviy shahar. Vitvatersrant rayoni – toshko'mir, uran, oltin, platina, xromid, olmos, asbest konlari asosida tashkil topgan.

O'tgan XXasrda 100 yildan ortiq vaqt davomida JAR iqtisodini asosini oltin qazib olish tashkil etadi. Olmos qazib olish va uni zaxirasi bo'yicha JAR dunyoda 5-o'rinda turadi. Afrikada byiriknchi olmosni 1869 yil hozirgi Kimberli shahri o'rnidan bir cho'pon bola topgan. Shuning uchun tarkibida olmos bo'lgan tog' jinsi kimberlit deyiladi. 3 t. kimberlitdan 1 karat (0,2 gr) olmos olinadi. Dunyoda qazib olinayotgan barcha olmosning (yiliga 100 mln karat) 10 % i JAR ga tegishli. JAR yiliga 3,5 ming t. uran qazib oladi va bu soha bo'yicha u dunyoda Kanada va AQSH dan keyin 3- o'rinda turadi.

Mamlakatda yiliga 3,5 mln t. xrom rudasi, 3,7 mln t. marganes, 10 mln karat olmos va boshqa foydali qazilmalar qazib olinadi.

JAR da yiliga 100 mlrd kVt/s elektr energiyasi hosil qilinadi. Uning asosiy qismini Vitvatersrand rayonidagi IES lar va Keyptaun AES i beradi. Asosiy sanoat tarmoqlari: qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik, ximiya, engil, oziq-ovqat sanoatlari.

Yirik sanoat markazlari: Yoxannesburg, Pretoriya, Keyptaun, Durban, Ist-London, Port-Elizabet, Nyukasl.

JAR ni barcha hududini birday iqtisodiy rivojlangan deb bo'lmaydi. Chunki, "aparteid" (alohida rivojlanish) siyosiy chuqurlashgan davrda, ya'ni 1976-1981 yillar sovuq rezervasiyalar o'rnida 10 ta "qoralar mustaqil davlati" yoki bandustan tarkib topgan. U erlarda sosan "qora tanlilar" yashaydi. Erlari kam unum, qishloq xo'jaligi esa kam mahsul. Yirik shaharlari yo'q. JAR dagi unumdor erlarning 87 % i oq tanllarga qaraydi.

Shunday qilib, JAR xo'jaligida iqtisodiy rivojlangan mamlakatni ham, iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatni ham ko'rish mumkin. Shuning uchun JAR iqtisodi 2 yoqlama mamlakat deyiladi. Qishloq xo'jaligida asosiy o'rinda dehqonilik turadi. Mamlakatda yiliga 15 mln t. g'alla etishtyirikladi. G'allaning 4/5 qismini makkajo'xori tashkil etadi. JAR da yiliga 2 mln t. bug'doy, 500 000 t. sargo etishtyirikladi. G'alladan tashqari yana eryong'oq, tamaki, kungaboqar, paxta, sitrus mevalari ham etishtyirikladi.

JAR da 13 mln bosh qoramol, 31 mln bosh qo'y, 1,5 mln bosh cho'chqalar boqiladi. Chorvachilikning bunday rivojlanishida Evropaliklarning roli yuqori.

Transporti. Avtomobil transporti mamlakat ichkarisida yo'lovchi va yuk tashishda muhim ahamiyatga ega. Avtoyo'llarning umumiy uzunligi 40 ming km. Temir yo'llarning yuk tashishdagi roli yuqori. Temir yo'llarning umumiy uzunligi 23 ming km dan ortiq.

Havo transporti yaxshi rivojlangan bo'lib, eng yirik universal porti Durban porti, eng yirik ko'mir va ruda eksport qiluvchi mahsus porti Richards- Bey portidir. Mazkur portlardan yiliga 50100 mln t. yuk o'tadi. Port-Elizabet va Keyptaun portlari kichikroq portlardir.

Asosiy eksportiN temir, marganes, xrom, nikel, oltin, mis, foforit, ko'mir, uran, olmos, makkajo'xori, chorva mahsulotlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, ximiya sanoati mahsulotlari, bug'doy, sanoat buyumlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya, Buyuk Britaniya, GFR, Fransiya.

Pul birligi – rand.

## Mavzu: Argentina Federativ Respublikasi

Argentina – Janubiy Amerikaning janubi-sharqidagi davlat. Maydoni 2,8 mln km$^2$ Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi sharqiy tomondan katta masofada okean sohilida joylashganligidir. Ayni vaqtda AQSH ga yaqinligi va Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlat Braziliya bilan chegaradoshligidir.

Tabiiy sharoitiga ko'ra Argentinaning shimoliy qismi tropik, markaziy qismida katta masofada subtropik, janubiy qismida esa mo''tadil iqlim mintaqalari joylashgan. Argentinaning janubiy qismida Pategoniya o'lkasi (plato), markazida Pampa, shimolida esa Gran-Chako o'lkalari joylashgan. Mamlakatning shimoli-sharqiy qismini esa La-Plata pasttekisligi egallagan. Mamlakat hududining shimolida janubiy tropik chizig'i kesib o'tgan. Amerika qit'asidagi eng baland tog' cho'qqisi Akankagua (6960 m) Argentinada joylashgan.

Foydali qazilmalardan asosan neft va tabiiy gazga boy, ulardan tashqari toshko'mir, uran, temir, polimetall, oltingugurt konlari bor.

Aholisi 35 mln kishi (1996-yil), 36,9 mln kishi (2003-yil), 39 mln kishi (2006 yil). Tug'ilish koeffisienti 19 ‰, o'lim 8 ‰ . 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 31 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 9 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 70-77 yosh. 1 ayolga 2,5 bola to'g'ri keladi. YAMD 10980 $ (2001y). Aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, ular asosan La- Plata pasttekisligida joylashgan. Pategoniyada aholi juda siyrak. Etnik tarkibiga ko'ra argentinlar, ispan, italyan va evropaliklarning avlodlari hisoblanadi. Eng yirik shahari Buenos-Ayresda 10,8 mln aholi yashaydi, Kordova (1,1 mln). Aholisining ko'pchiligi katolik mazxabiga e'tiqod qiladi. Davlat tili ispan tili. Argentina – 1816-yil 9-iyul kuni mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Unga qadar Ispaniya mustamlakasi bo'lib kelgan. 1982-yil aprel-iyun oylari Malvin (Folklend) orollarida Angliya-Argentina qurolli kuchlari to'qnashuvi bo'lgan va xanuz bu joylar munozaraligicha qolib kelmoqda.

Argentina – LAES , LAIX tashkilotlariga a’zo.

Argentina – federativ davlat bo’lib, 23 provinsiya, 1 milliy territoriya va 1 ta federal okrugini o’z ichiga oladi. Konstitusiyaga binoan qonun chiqaruvchi oliy organ – milliy kongress va ijrochi xokimiyatdan iborat. Asosiy siyosiy partiyalari:

1.Grajdan radikal ittifoqi (1891-yil)

2. Murosasizlar partiyasi (1963-yil)

3. Xristian demokratik partiyasi (1954-yil)

4. Sosialistik partiya (1986-yil)

5. Argentina kommunistik partiyasi (1918-yil).

Argentina Janubiy Amerikadagi eng rivojlangan davlatlardan byirik. Argentina ekonomikasiga AQSH, Germaniya va Buyuk Britaniyaning kapitali kuchli ta’sir etadi. Asosiy rivojlangan sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, qora metallurgiya, mashinasozlik, ko’n poyabzal, rangli metallurgiya tarmoqlaridir. Yirik sanoat markazlari: Buenos-Ayres, Kordova, Rosario.

1987-yil mamlakat 2,7 mln t. cho’yan, 3,4 mln t. po’lat, 2,7 mln t. prokat ishlab chiqargan. 184 ming avtomobil ishlab chiqargan. 47 mlrd kVt/s elektr –energiyasi hosil qilgan.

Qishloq xo’jaligi asosan La-Plata pasttekisligida rivojlangan. Donli ekinlar etakchi o’rin tutadi, ayniqsa, makkajo’xori va bug’doy. 1986-87 yillar mamlakatda 32 mln t. don etishtyirikldi. Bulardan tashqari mamlakat shimolida paxta, shakarqamish, sholi, tamaki, sitrus kabilar etishtyirikladi. Qishloq xo’jaligida etakchi tarmoq qo’ychilik bo’lib, u asosan Pategoniyada, pampaning g’arbiy qismida va tog’li rayonlarda yaxshi rivojlangan. Ma’lumki, Argentina jahonda XGMT da jun teri, go’sht eksport qiluvchi mamlakat sifatida tanilgan. Argentinadagi eng rivojlangan sanoat tarmog’i ko’n –poyabzal sanoati bejiz rivojlangan emas. Ma’lumki, Argentina maydoniga ko’ra jahonda 1-o’nlik mamlakatlari qatoriga kiradi.

Maydoni yirik bo’lganligi sababli Argentinada temir yo’llar transporti yaxshi rivojlangan. Temir yo’llarning umumiy uzunligi  39,8 ming km ni tashkil etadi. Avtoyo’llarning umumiy uzunligi 54,6 ming km ga teng. Havo transportiham yaxshi rivojlangan bo’lib, 10 ta xalqaro aeroport bo’lgan. Pul birligi – peso, real.

Asosiy eksporti: don, go’sht, jun, vino, mevalar va sanoat mahsulotlari chiqariladi.

Asosiy importi: mashinalar, asbob-uskunalar, yoqilg’i, ximiya mahsulotlari, elektr stansiyalar uchun jihozlar.

Tashqi savdosi asosan AQSH, Horijiy Yevropa, Yaponiya, MDH ga to’g’ri keladi.

**Braziliya Federativ Respublikasi.**

Braziliya nafaqat Janubiy Amerikadagi balki yer sharidagi  eng ulkan tropik mamlakat. U maydonining kattaligiga (8557 ming km$^2$ ) ko’ra ham, aholisining soniga (187 mln 2006 y) ko’ra ham dunyoda 5- o’rinda turadi. Braziliya Janubiy Amerika materigining  sharqiy va markaziy qismini egallagan. Braziliya Janubiy Amerika materigi maydonining  47 % ini o’z ichiga olgan bo’lib, quruqlik orqali materikning 10 davlati bilan chegaradosh. Iqtisodiy geografik o’rnining qulayligi:

- dengiz bo’yida joylashganligi;
- Janubiy Amerikaning barcha davlatlari bilan chegaradoshligi (Ekvador, Chilidan tashqari.)
- AQSH ga yaqinligi, Venesuella va Argentina bilan chegaradoshligi.

Braziliya hududida 50 dan ortiq mineral resurslar uchraydi. Ulardan masalan; temir rudasi qazib olish bo’yicha dunyoda 1-o’rinda (yiliga 160 mln t.). Marganes qazib olishda 5-o’rinda

Xrom qazib olishda 8- o’rinda

Boksit qazib olishda 5- o’rinda turadi. Ulardan tashqari uran, qalayi, nikel, olmos kabilarni qazib olishda dunyoda yuqori o’rinlarda turadi.

Mamlakat xududi ekvatorial, subekvatorial va tropik iqlim mintaqalarida joylashgan. Iqlimi sernam bo’lganligi uchun mamlakatda o’rmonlar (selva, kampos, kaatinga) katta maydonlarni egallagan. Amazoniya o’rmonlarida 25 000 dan ortiq o’simlik turi uchraydi, shundan 4000 turi daraxtlardir. Bu o’rmonlar hayvonot dunyosiga ham boy. Braziliya hududining 2/3 qismini o’rmonlar egallagan. Mamlakat jahonda suv resurslari, agroiqlim resurslari bilan ta’minlanganlik

darajasiga ko’ra dunyoda oldingi o’rinlarda turadi. Bularning hammasi Braziliyani ulkan iqtisodiy salohiyatga ega ekanligini ko’rsatib turadi.

Aholisi. Mamlakat aholisi demografik portlashda. Aholisi 176,5 mln (2003y), 187 mln (2006 y) kishi. Tug’ilish koeffisienti 20 ‰, o’lim 7 ‰ . 15 yoshgacha bo’lganlar jami aholining 30 % ini, 64 yoshdan o’tganlar 6 % ini tashkil etadi. O’rtacha umr 65-73 yosh. 1 ayolga 2,2 bola to’g’ri keladi. YAMD 7070 $ (2001y). Aholisining o’rtacha zichligi 1 $km^2$ ga 21 kishi. Aholisining 90% i mamlakat hududining 2/5 qismida yashaydi, ya’ni mamlakatning janubi-sharqida okean sohillarida yashaydi. Mamlakatning ichki, g’arbiy rayonlarida (Amazoniyada) butun aholining 5 % i yashaydi. Aholining bunday notekis joylashganligiga avvalo tarixiy va iqtisodiy sabablar ta’sir etgan. Aholi Braziliyada yiliga 1,7 % ga o’smoqda. Aholisining etnik tarkibi (80 dan ortiq millat va elat) juda murakkab. Yevropaliklarning ajdodlari (portugal, ispan, italyan, nemis) mamlakat aholisining 55 % ini, oraliq emigrant guruhlar (metis, mulat, sambo) 38 % ini, negrlar esa 6 % ini tashkil etadi. Tub joy aholisi Amazoniyada, negrlar esa mamlakatning shimoli-sharqiy rayonlarida ko’p tarqalgan.

Braziliyani 1500-1501 yillar portugal sayyohi Pedru Kobral kashf etgan. O’sha davrdan boshlab Braziliyaga evropaliklar ko’chib kela boshlagan.

Urbanizasiya darajasi 80 %. Millioner shaharlari 11 ta: San-Paulu (9,4 mln kishi), Rio-de-Janeyro (5,5 mln kishi), Salvador, Belu-Orizonti, Resifi, Portu-Algeri, Brazilia, Kuritiba, Belen, Manaus, Fortaleza. Agar shahar aglomerasiyalarini qo’shib hisoblasak, San-Pauluda 26 mln, Rio-de- Janeyroda 19 mln ikshi. Aholisining 89 %i katolik, qolganlari: iuda, protestant. Davlat tili portugal tili.

Braziliya federativ respublika bo’lib, u 26 shtat va 1 ta poytaxt federal okrugidan tashkil topgan.

Qonun chiqaruvchi organi – Milliy Kongress.

Asosiy siyosiy partiyalari :

1. Sosial – Demokratlar partiyasi
2. Demokratik harakatdagi partiya
3. Mehnatkashlar partiyasi
4. Liberal front partiyasi
5. Milliy tiklanish partiyasi.

Braziliya 1500-yildan XIX asrgacha Portugaliya mustamlakasi bo’lib kelgan. 1888- yil qullik bekor qilingan. 1891-yil Braziliya qo’shma shtatlari tashkil topdi. Braziliya ADT (OAG) BMT, LAIX, LAES va Amazoniya paktiga a’zo.

Sanoati . braziliya sanoati ishlab chiqarish xajmiga ko’ra dunyoda 1-o’nlik mamlakatlari qatoriga kiradi. U rivojlanayotgan mamlakatlarning eng etakchisi, peshqadami, nihoyat tayanchidir.

Braziliya industrial- agrar mamlakatdir. Eng rivojlangan sanoat tarmoqlari: avtomobilsozlik (yiliga 1 mln avto ishlab chiqaradi); samolyotsozlik (“Embraer”dunyo bo’yicha 17% 3-o’rin); EHM, mikro va mini kompyuterlar (dunyoda AQSH, Yaponiya va Germaniyadan keyin 4- o’rinda);

Qora metallurgiya (yiliga 26 mln t. dunyo bo’yicha 7- o’rin);

Ximiya sanoati (yiliga 30 mln t. neft qazib oladi, chetdan 100 mln t. keltiradi.); kemasozlik, aerokosmika, o’rmon, engil sanoat tarmoqlari rivojlangan. Oziq-ovqat sanoati tarmoqlaridan: kofe sanoati, qand-shakar sanoati, konditer, sitrus, kakao, soya yog’i olish, tamaki sanoati kabilar.

Braziliyada yirik harbiy sanoat barpo etilgan. Hozirda fantalab sanoat tarmoqlari tez rivojlanmoqda. Dunyodagi eng yirik GES lar (Chitayku, Tukurui, Ksinda) shu mamlakatda qurilgan.

Braziliyada qishloq xo’jaligi yuksak rivojlangan bo’lib, qishloq xo’jalik mahsulotlarini eksport qilish xajmi bo’yicha u dunyoda 3- o’rinni egallaydi. Braziliya dunyoda shakarqamish etishtyiriksh bo’yicha (yiliga 250 mln t.), kofe etishtyiriksh bo’yicha, banan etishtyiriksh bo’yicha 1-o’rinda, soya va apelsin etishtyiriksh bo’yicha AQSH dan keyin 2- o’rinda turadi. Paxta tolasi etishtyiriksh bo’yicha Braziliya dunyoda 6- o’rinda (yiliga 800 ming t.) turadi. Sholi etishtyiriksh bo’yicha esa butun Amerika qit’asida 1- o’rinda (yiliga 10 mln t.) turadi. Braziliyada chorvachilik ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatda 125 mln qoramol, 32 mln cho’chqa, 28 mln qo’y va echkilar bor. Mamlakatdagi qishloq xo’jaligi erlarining 80% i latifundistlar qo’lida.

Braziliyada aholi va xo’jalikning joylashuvida okean bo’yi tipi yaqqol ko’zga tashlanadi. Eni 300-350 km li okean bo’yi mintaqasida, ya’ni tashqi Braziliyada butun mamlakat ishlab chiqarishi

va aholisining 90% i to’plangan. Mamlakatning sanoat uchburchagi hisoblangan San-Paulu , Rio-de- Janeyro va Belu-Orizonti shaharlari tashqi Braziliyada joylashgan.

San-Paulu shahri Braziliyaning iqtisodiy poytaxti bo’lib, Lotin Amerikasining qolaversa, butun Janubiy yarim sharning bosh sanoat rayonidir. “Osmono’par binolar” ko’pligi uchun uni “Lotin Amerikasining Nyu -Yorki” deb atashadi. San-Paulu XIX asrning o’rtalarigacha kichkina viloyat markazi bo’lgan, so’ngra Yevropa va Yaponiyaliklarning ommaviy ko’chib kelishi natijasida shahar juda tez o’sdi.

Rio-de-Janeyro mamlakatning eng yirik port, bankir va turizm shaharidir. U 1960-yilgacha mamlakat poytaxti bo’lib kelgan. Shaharda Isus Xristosning 40 metrli haykali va dunyodagi eng katta “Mrakana” futbol stadioni joylashgan. XX asrning 2-yarmidan boshlab Braziliyada Amazoniyani o’zlashtyirikshga qaratilgan regional siyosat yuritilinmoqda. Mazkur siyosat bo’yicha mamlakat poytaxti Rio-de –Janeyrodan Braziliaga ko’chyirikldi va Transamazoniya avtomobil yo’li (5,5 ming km) qurilib ishga tushyirikldi.

Transporti. Asosiy transporti avtotransport bo’lib, mamlakatda avtoyo’llarning umumiy uzunligi 1,3 mln km ga teng. Temir yo’llarining umumiy uzunligi 30 ming km. Dengiz transporti yaxshi rivojlangan. Eng yirik dengie portlari: Rio-de- Janeyro, Santus, Itaki, ular universal portlar. Eng yirik ruda eksport qiluvchi porti – Tubaran. Bulardan tashqari: Forta- Leza, Salvador, Port – Alegri kabilar mavjud.

Asosiy eksporti: po’lat, temir, alyuminiy, qalayi, transport jihozlari, kofe, soya, apelsin, shakar, tamaki, teri, go’sht, to’qimachilik buyumlari.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, neft, ko’mir, mineral o’g’itlar, bug’doy, oziq-ovqat, ximiya sanoati mahsulotlari.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari, EI (ES), Osiyo davlatlari. Pul birligi – real.

## Mavzu: Kanada

Kanada – Shimoliy Amerikaning shimolida joylashgan. Maydoni 10 mln km$^2$ ga yaqin bo’lib, kattaligi jihatidan dunyoda 2-o’rinda turadi. Iqtisodiy geografik o’rnining qulayligi: 3 tomondan okean bilan chegaradoshligi va AQSH bilan chegaradoshligi.

Suvdagi chegaralarini ichida Buyuk ko’llar va San-Lavrentiy daryosining ahamiyati katta. Tinch okeani orqali Osiyo davlatlari bilan, Atlantika okeani orqali Yevropa davlatlari bilan bog’langan.

Kanada tabiiy resurslarga boy. Ayniqsa neft, tabiiy gaz, ko’mir, uran, temir, mis, nikel, polimetall va asbestga boy. Mamlakatni g’arbida baland tog’lar mavjudligi sababli gidroenergiya resurslariga boy. Yirik mahsuldor o’rmon zapaslariga ega.

Aholisi. 1997-yilda 29,8 mln kishi, 2003 yilda 31,6 mln kishi bo’lib, Tug’ilish koeffisienti 11 ‰, o’lim 7‰ . 15 yoshgacha bo’lganlar jami aholining 18 % ini, 64 yoshdan o’tganlar 13 % ini tashkil etadi. O’rtacha umr 77-82 yosh. Aholisining etnik tarkibiga immigrasiya hal qiluvchi ta’sir ko’rsatgan. Aholisining asosini Yevropadan AQSH ga ko’chib kelganlarning avlodlari tashkil etadi. Kanadalik inglizlar – 45%, Kanadalik fransuzlar – 30%. Etnik gruppalar – 25%, indeyeslar va eskimoslar juda kamchilikni tashkil etadi. Davlat tillari – ingliz, fransuz. Hozirda ham aholisining tabiiy o’sishining ¼ qismi immigrasiya hisobiga bo’ladi. YAMD si 26530 $(2001).

Aholisining zichligi juda past 1 km$^2$ ga 2,7 kishi bo’lib, juda notekis joylashgan. Aholisining asosiy qismi (2/3) AQSH chegarasi bo’ylab 300-400 km li polosada yashaydi. Kanada hududining 2/3 qisimni egallagan shimoliy qisimda 20-25 km$^2$ joyga 1 kishi to’g’ri keladi. Urbanizasiya darajasi yuqori 76%. Millioner shaharlar: Monreal (1060000 kishi).

Kanada hududiga dastlab 1497 yil J.Kabot kelgan, Evropaliklarning ommaviy ko’chib kelishi XVII asrda boshlangan. 1605 yil fransuzlar, 1623 yil inglizlar ko’chib kelgan. 1756-63 yillari Kanada Buyuk Britaniya qo’liga o’tgan. 1867 yildan Kanadaga dominiant statusi berilgan. 1931 yildan Angliya hukumati Kanada mustaqilligini tan oldi.

Kanada – 10 ta viloyat, 3 ta territoriyadan iborat bo’lgan federal davlat. Hamdo’stlik tarkibida Kanada NATO va NORAD ga a’zo. Asosiy siyosiy partiyalari:

1. Liberal partiya (1873-yil tashkil topdi).
2. Kanada kommunistik partiyais (1921 yil).

Kanada yuqori darajada rivojlangan industrial-agrar davlat. Kanadaning “Ettilik” ga kyirikshiga AQSH monopoliyalari va Buyuk Britaniyaning ta’syirik kuchli. Rivojlangan davlatlar ichida chet el kapitalining ko’p kyirikb kelishi jihatidan 1-o’rinda AQSH turadi. Sarmoyasining 72,1 % ini AQSH kapitali tashkil etadi.

Kanada mineral xom-ashyo ishlab chiqarish va eksport qilishda ham eng katta mamlakatlardan hisoblanadi (xom-ashyoning 80 % i eksport qilinadi). Sanoatining asosiy tarmoqlari: o’rmon, sellyuloza-qog’oz, qora va rangli metallurgiya, neftni qayta ishlash, oziq-ovqat sanoati (bug’doy, go’sht), mashinasozlik.

Kanad energetikasining asosini neft va tabiiy gaz tashkil etadi, GES va AES lar ham bor. Kanada neft markazi – Edmonton.

Rangli metallurgiya sanoati asoan chetdan keltyiriklgan va o’zida ishlab chiqarilgan boksitga asoslangan. Eritilgan alyuminiy asosan AQSH ga eksport qilinadi. 2001 yil Kanada 540 mlrd kVt/s elektr energiyasi ishlab chiqardi. 14 mln t. po’lat eritildi, 56 mln t. ko’mir qazib olindi, 91mln $m^3$ neft, 72 mlrd $m^3$ tabiiy gaz qazib olindi.

Yog’ochsozlik va sellyuloza-qog’oz sanoati eng rivojlangan bo’lib, Kanada 1986-yil 9,2 mln t. qog’oz ishlab chiqarda. Bu sanoatning rivojlanishiga boy xom-ashyo bazasi, arzon suv yo’llari va elektr-energiyasi, shuningdek, jahon bozorida ehtiyojning yuqoriligi sabab bo’lgan. Ishlab chiqarilgan qog’oz va yog’och-taxtaning deyarli hammasi eksport qilinadi.

Kanada mashinasozlik sanoatida asosiy tarmoqlar transport mashinasozligi va qishloq xo’jaligi mashinasozligidir. Ayniqsa avtomobillar, kemalar, teplovozlar. Kanada 1986-yil 1846000 avtomobil, shu jumladan 1550000 (1995-yil) engil avtomobil ishlab chiqarildi (dunyoda 9- o’rin).

Aholi jon boshiga qishloq xo’jalik mahsulotlarini etishtyiriksh, qishloq xo’jalik mahsulotlarini eksport qilish, mehnat unumdorligini va qishloq xo’jaligini mexanizasiyalash sohasida Kanada dunyoda etakchi o’rinlarda turadi. Ayniqsa donli ekinlar etishtyiriksh muhim o’rin tutadi. Masalan, 1987-yil Kanadada 55,8 mln t. don etishtyirikladi. Donli ekinlar asosan janubda va Ko’lbo’yi va Dasht rayonlarida ekiladi. Kanadaning bug’doy poytaxti – Vinnipeg.

Mamlakat maydoni kattaligi sababli temir yo’llar transporti asosiy hisoblanadi. Temir yo’llarning umumiy uzunligi 70,5 ming km. temir yo’llar asosan g’arb va sharqni, ichki rayonlarni portlar bilan, AQSH bilan bog’laydi. Avtomobil yo’larning uzunligi 887 ming km.

Ichki suv tansporti ayniqsa dengiz transporti va havo transporti rivojlangan. Eksportning 2/3 qismi xom-ashyolar: bug’doy, o’rmon, o’rmon sanoati mahsulotlari, go’sht, sut mahsulotlari, metallar. Kanada tashqi savdosining 75 % i AQSH ga to’g’ri keladi. Importining asosiy qismini ¾ ini tayyor buyumlar: mashina va jihozlar. Pul birlig – kanada dollari.

**Mavzu: Xitoy xalq respublikasi.**

Xitoy xalq respublikasi – Markaziy va Sharqiy Osiyodagi davlat. U maydonining kattaliga ko’ra dunyoda 3- o’rinda turadi (9,5). Maydoni g’arbdan sharqqa 5,7 ming km ga, shimoldan janubga 3,7 ming km masofaga cho’zilgan. Mamlakatning sharqi va janubi-sharqiy qismlari katta masofada okean bilan tutash, lekin mamlakat xududining katta qismi okeandan uzoqda, lekin Yanszi va Xuanxe daryolari bo’ylab dengiz kemalari 1000 km dan ko’proq ichkariga kyirikb bora oladi. Iqtisodiy geografik o’rnining qulayligi Yaponiya va “Osiyo yo’lbarslari” mamlakatlariga yaqinligi, Rossiya bilan chegaradoshligi, shuningdek Xitoy xalq respublikasining svilizasiya markazi bo’lib kelganligidir. Xitoyning quruqlik chegarasining asosiy qismi baland tog’lar va cho’llardan o’tadi.

Xitoy xalq respublikasi siyosiy-ma’muriy jihatidan 23 ta provensiya, 5 ta avtonom rayon va markazga bo’ysunuvchi 3 ta shahar (Pekin, Shanxay, Tenszin) dan tashkil topgan. Xitoy xududi tarixda bir necha bor mo’g’ul va yapon bosqinchilari tomonidan istilo qilingan. Shuninng uchun Xitoyni shimolida 4000km li Buyuk Xitoy devori qurilgan. Gobi, Alashan, Ordos, Takla- Makon cho’llari bor.

Xitoy xududining 80 % ini rel’efi murakkab, ya’ni tog’lardan iborat, ayniqsa Himolay, Kunlun,Tyanshan, Tibet, Nanshan, Hingan tog’lari egallagan hududlar qishloq xo’jaligi va transport yo’llarini o’tkazish uchun noqulaydir.

Xitoy Xalq respublikasini shimoli mo’tadil, markazi subtropik, janubi subekvatorial iqlim mintaqalarida joylashgan. Qishloq xo’jaligi uchun eng qulay bo’lgan Buyuk Xitoy tekisligi va

Xitoyning sharqiy sohillari musson yomg'irlari va tayfunlar (soatiga 100 -150 km tezlikda sohillarga bostyirikb keluvchi kuchli bo'ronlar) shahar va qishloqlarga, ekinzorlarga, sug'oruv sistemalariga katta zarar etkazadi. Mamlakat xududining 10% ini o'rmonlar egallagan. Mamlakat mineral resurslarga boy. Mamlakat shimolida yirik ko'mir konlari (markazida-Datun), yonuvchi slanes, osh tuzi, yirik neft konlari (ayniqsa, Sariq dengiz shelfida, Dasinga mamlakat neftining yarmi to'g'ri keladi), temir, qalay, surma, boksit konlari bor. Xitoyning g'arbiy va janubi-g'arbiy xududlari kam o'zlashtyiriklgan.

Xitoy 2000-yildan buyon dunyodagi eng seraholi mamlakat bo'lib kelmoqda va immigrasiyaning asosiy o'choqlaridan byirikga aylanib qolgan. Aholining ko'plab ko'chib ketishi, ayniqsa, XIX va XX asrda kuzatilindi.

Xorijiy mamlakatlarda Xitoyliklar ko'p to'plangan markazlar paydo bo'ldi, ularni Xuasiyao deydi. Xorijiy mamlakatlarda xozirda 30 mln dan ortiq Xitoyliklar yashaydi. Buni 90 % i janubi-sharqiy Osiyoga to'g'ri keladi. Xuasiyaolar sababli Singapur aholisining 85 %, Malayziya aholisining 34 %, Tailand aholisining 13 % i xitoyliklardir.

1949 yildan 1990 yillargacha Xitoy aholisi 2 barobar ko'paydi, va 1134 mln, 1998 yil 1248 mln, 2003 yil 1295 mln, 2006 yil 1318 mln kishiga etdi. Tug'ilish koeffisienti 13 ‰, o'lim 6‰ . 1 ayolga 1,7 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 22 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 7 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 69-73 yosh. YAMD – 3950 $ (2001). Xitoyda iqtisodiy faol aholi 700 mln kishini tashkil etadi, shuni 2/5 qismidan ortig'i yoshlardir. Demografik siyosatga qaramay Xitoyda tabiiy o'sish yiliga 12mln kishidan ortiq. Etnik tarkibiga ko'ra Xitoy ko'p millatli davlat. Xanlar yoki Xansiylar butun aholining 92 % ini tashkil etadi. "Kichik millat" lar butun aholining 8 % ini (80 mln kishi) tashkil etgani holda 60ga yaqin millat va elatlardan tashkil topgan. Ular Xitoyning g'arbiy qismida va tog'li hududlarda tarqalgan bo'lib, butun Xitoy xududining yarmini egallagan. Aholining o'rtacha zichligi 1 $km^2$ ga 100 kishidan ortiq, biroq aholisining 90 % i mamlakat hududining 1/3 qismida to'plangan. G'arbiy xududlarda, ya'ni mamlakat xududining 20 %ida odam deyarli yashamaydi. Xitoy aholi bo'yicha har qanday ko'rsatkichlarda (shaharlar soni, qishloqlar soni (700 ming), millioner shaharlar 34 ta) dunyoda byiriknchi o'rinda turadi. Urbanizasiya 24%. Asosiy siyosiy partiyalari : Xitoy kommunistik partiyasi (1921 yil tashkil topdi).

Xitoy xo'jaligining tarixiy rivojlanishida Sobiq SSSR ning ta'syirik kuchli bo'lgan. Sobiq SSSR Xitoy xalq respublikasiga 1,8 mlrd so'm kredit bergan va 260 ta yirik korxona qurishga yordam bergan. 1960 yillardan Mao Szedum siyosati ("katta sakrash" va "madaniy revolyusiya") sababli Sovet-Xitoy munosabatlari yomonlashgan va chegara notinchligi kuzatilgan. 1980 yillardan 2 davlat munosabatlari yana yaxshilangan.

Xozirgi Xitoy sanoati ishlab chiqarishning umumiy xajmiga ko'ra dunyoda byiriknchi o'rinda turadi. Mamlakat xududi iqtisodiy taraqqiyotiga ko'ra 3 ta iqtisodiy zonaga: G'arbiy, Shraqiy va Markaziyga bo'linadi.

Xitoy sanoatini avvalambor og'ir sanoat belgilaydi. Og'ir sanoat tarmoqlari orasida, ayniqsa toshko'mir qazib chiqarish muhim rol o'ynaydi. Asosiy ko'mir havzalari Shimoli-Sharqda (Fushun va Fusin) va Shimoliy Xitoydadir. (Datun). Fushun va Fusinda ko'mir asosan shaxta va ochiq usulda, Datunda esa shaxta usulida qazib olinadi. Ko'mir konlarining metallurgiya markazlariga yaqinligi iqtisodiy qulaylikni oshiradi. Xitoy 1987 yil 920 mln t. 1990 yil 1100mln t. ko'mir qazib olib jahonda etakchilik qilmoqda. Neft asosan mamlakatni shimoli-g'arbida va Sichuon Ra viloyatida qazib olinadi. Eng yirik neft koni Dasinga konidir.

Mamlakatda 1995-yil 140 mln t. neft qazib olindi (jahonda 5-o'rinda). Xitoy xalq respublikasida 1987- yil 496 mlrd kVt/s, 2000-yil 930 mlrd kVt / s (dunyoda 3-o'rin) elektr energiyasi hosil qilingan bo'lib, uning asosiy qismi (75 % i) IES larda hosil qilingan. IES lar asosan mamlakatning shimoli-sharqiy va sharqida ya'ni ko'mir havzalari atroflarida joylashgan. GES lar Xuanxe va Yanszi daryolarining yuqori oqimlarida qurilgan. AES lar ham mavjud. Xitoyda noodatiy energiya manbalaridan ham (Geotermal va qalqish ES) foydalaniladi.

Qora metallurgiya sanoatining asosiy markazlari kokslanuvchi yirik ko'mir va ruda konlari bo'lgan rayonlarda vujudga kelgan. Ularning ichida eng yyirikgi shimoli-sharqdagi Anshan

metallurgiya kombinati bo’lib, bu erda yiliga 7-8 mln t. cho’yan eritiladi. Shimoliy Xitoydagi eng yirik kombinat Baotouda, mrakaziy Janubiy Xitoyda Uxanda joylashgan.

Temir zapasi bo’yicha byiriknchi o’rin, qazib olish bo’yicha 4- o’rinda turadi. Xitoy Xalq respublikasida 1990-yil 60 mln t. po’lat, 44 mln t. prokat eritilindi. 2000-yil 115 mln t (byiriknchi o’rinda).

Mashinasozlik korxonalarida ixtisoslashgan korxonalar emas, universal korxonalar ustun turadi. Ular asosan yirik shaharlarda, dengiz portlarida, metallurgiya bazalari yaqinida joylashgan. Masalan: Shenlida og’ir mashinalar va stanoklar, Chanchunda avtomobillar, ayniqsa Yanszi bo’ylarida mashinasozlik rivojlangan. Shanxayda dengiz kemalari ishlab chiqariladi. Xitoy Xalq respublikasida 1987-yil 472 ming avtomashina, 40 ming traktor ishlab chiqarilgan.

Ma’lumki, Xitoy ip –gazlama ishlab chiqarishda dunyoda byiriknchi o’rinda turadi. Ishlab chiqarilgan gazlamaning 90% i ip-gazlamalardir. Mamlakatning asosiy paxta bazasi Shimoliy Xitoy, ip-gazlama sanoati Shanxayda joylashgan.

Qishloq xo’jaligida 400 mln dan ortiq kishi band. 1990-yil Xitoyda 450 mln t. g’alla yetishtyirikldi. Buni asosiy qismini (180mln t) sholi tashkil etadi. Sholi mamlakatni asosan janubi-sharqida, ya’ni Yashil Xitoyda (choy xam). Bug’doy (1990 yilda 95 mln t.) shimoli-sharqida, shuningdek makkajo’xori, gaolyan “Sariq Xitoy”da yetishtyirikladi.

Mamlakatni shimoli-g’arbiy va g’arbiy qismlari “quruq Xitoy” deyiladi. Bu erda ekstensiv chorvachilik, janubi-g’arbda – “sovuq Xitoy” da (Tibet, Kunlun, Himolay) qishloq xo’jaligi sust rivojlangan. Xitoyda 1987 – yil 4,2 mln t, 1990-yil 4,5 mln t. paxta tolasi etishtyirikldi. Cho’chqalar soni dunyo bo’yicha 870 mln, Xitoyda 326 mln, qo’ylar 178 mln, qoramol 126 mln bosh.

**Hindiston Respublikasi.**

Hindiston janubiy Osiyodagi aholisi soni va maydoniga ko’ra eng yirik davlat. Maydoni 3291 (3288) mln km$^2$ bo’lib, u maydoniga ko’ra dunyoda 7-o’rinda turadi. Iqtisodiy geografik o’rni mamlakat iqtisodini rivojlantyiriksh uchun qulay. Mamlakatning quruqlik chegarasi 15 000 km, dengiz chegarasi 5,5 ming km. quruqlik chegarasi orqali 7 ta davlat bilan chegaradosh bo’lib, bu chegaralar baland tog’ va cho’llardan o’tganligi uchun iqtisodiy jihatidan uqadar qulay emas. Mamlakatni janubiy qismi yarimoroldan iborat bo’lib, bu qism Janubi-G’arbiy Osiyo, Janubi-Sharqiy Osiyo, Avstraliya va Afrika davlatlari o’rtasidagi dengiz yo’llari o’rtasida joylashgan.

Hindiston Evropa, Osiyo va Avstraliya o’rtasidagi muqim xalqaro havo yo’llari tugunida joylashgan. Masalan: Moskva – Toshkent – Dehli – Singapur. Hindiston xududi shimoldan janubga 3200 km, g’arbdan sharqqa 2700 (2900)km ga cho’zilgan.

Hindiston aholisi demografik portlashda. Masalan: 1988-yil mamlakatda 800 mln kishi yashagan bo’lsa, u yiliga 15-17 mln kishiga ko’payib, 2003 yil 1068 mln, 2006 yil 1122 mln kishiga etdi. Tug’ilish koeffisienti 25 ‰, o’lim 8‰ . 1 ayolga 3,1 bola to’g’ri keladi. 15 yoshgacha bo’lganlar jami aholining 36 % ini, 64 yoshdan o’tganlar 4 % ini tashkil etadi. O’rtacha umr 62-64 yosh. YAMD –2820 $ (2001). Mamlakat umumiy chaqaloqlar soniga ko’ra (yiliga 27 mln) dunyoda byiriknchi o’rinda turadi. Ayni paytda umumiy chaqaloqlar o’limi bo’yicha ham dunyoda yetakchi (yiliga 9 mln). Rivojlanayotgan mamlakatlar ichida Hindiston byiriknchi bo’lib oilani rejalashtyirikshga o’tgan, lekin u yaxshi samara bermadi. Sababi ko’p asrli yosh nikoh qurish an’anasidir. Hind aholisini etnik tarkibiga ko’ra ham dunyoda 1-o’rinda. 150 dan ortiq xalqlar bor. Asosiy tillar 15 ta, shevalar soni 1,6 mingta. Eng yirik xalqlari: hindlar, bixarlar, bengallar. Hindistonliklar tili – hind tili, millatlararo muomala tili – ingliz. Aholisini 83% i induizmga, 11% islomga , qolgani xristian, sinkxizm va buddizmga e’tiqod qilishadi. Varanasi va Gang daryosi induizm dini uchun, Lumbini shahri buddistlar uchun muqaddas joy.

Aholisi ancha notekis joylashgan. Mamlakatda aholining o’rtacha zichligi 1 km$^2$ ga 330 kishi. Hind-Gang pasttekisligida esa 800 kishigacha. Himolay tog’larida, mamlakatning shimoli-g’arbida va markaziy qurg’oqchil hududlarda aholi ancha siyrak.

Mamlakatda urbanizasiya darajasi 26 % . Hindistonda 4500 shaharlar bor, millioner shaharlar soni 23 ta. Eng yiriklari: Mumbay (12,6 mln) va Kalkutta (11 mln). hindistonda 600mingdan ortiq qishloqlar bor.

Hindistonni XVIII-asrda inglizlar bosib olgan va 200 yil mustamlaka qilgan . U 1947 yil 15-avgustda mustaqillikka erishgan va 1950 yil 26-yanvarda respeublika deb e'lon qilingan. Davlat tuzumiga ko'ra Federativ Respublika bo'lib, 25 shtatdan va 6 ta ittifoqdosh hududdan tashkil topgan. Kashmir va Panjopda siyosiy ahvol yaxshi emas. Asosiy siyosiy partiyasi: Hindiston milliy kongresidir (1885 yilda tuzilgan).

Hindiston xo'jaligi ulkan tafovutlar mamlakati. Masalan: bir tomonda industrlashtyiriksh, tub agrar islohotlar, kosmik dasturlarni amalga oshirlishi, qudratli sanoat korxonalari, AES lar.

Ikkinchi tomonda qashshoq aholi va qoloq qishloq xo'jaligi, ersizlik, uysizlik, erga omoch va xo'kizda ishlov berish. Hindiston umumiy ishlab chiqarish hajmi bo'yicha jahonda 11- o'rinda turadi, lekin jon boshiga YAIM bo'yicha 102-o'rinda (340 $) turadi.

Hindiston qoramollar soniga ko'ra (250 mln) dunyoda 1-o'rinda, lekin dunyoda go'sht iste'mol qilish bo'yicha oxyirikda.

Qishloq xo'jaligi traktorlari ishlab chiqarish bo'yicha (yiliga 110 ming) dunyoda Rossiya va Yaponiyadan keyin turadi, lekin omoch-xo'kiz-arava.

Temir yo'llar uzunligi bo'yicha Osiyoda 1- o'rinda, lekin ular tor izli.

FTI mutaxassislari soniga ko'ra Rossiya va AQSH dan keyin turadi, lekin ular chet ellarga ko'p ketib qolmoqda.

Kinofilmlar ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda (750 ta) 1-o'rinda, lekin aholisining yarmidan ko'pi savodsiz.

Hashamatli uylar va xaroba kulbalar bor.

Hindistonda iqtisodiy faol aholi soni 626 mln kishi bo'lib (Xitoydan keyin 2- o'rinda), uning 1/5 qismi sanoatda band. Aholisining 70 % dan ortig'i qishloq xo'jaligida band. Mamlakatning asosiy qazilma boyliklari: ko'mir, temir rudasi, marganes, mis, uran, titan, neft, olmos kabilardir.

Ko'mir qazib chiqarish bo'yicha (yiliga 210 mln t.) Hindiston dunyoda 6- o'rinda turadi. Damadar vodiysi – Hindiston Ruridir. Temir rudasi qazib olishda ham dunyoda 6- o'rinda turadi. U yiliga 55 mln t. an ortiq temir rudasi qazib oladi, bu AQSH bilan tengdir. Temirning 40% i eksport qilinadi.

Elektr energiyasi ishlab chiqarish bo'yicha u dunyoda 8- o'rinda (yiliga 380 mlrd kVt/s) turadi.

Elektr energiyasini asosan IES, AES (3 ta) va GESlar beradi. Mamlakatning etakchi sanoat tarmoqlari: Engil sanoat, oziq-ovqat, metallurgiya, mashinasozlik va kimyo. Ma'lumki jahon engil sanoati 5 regionda kuchli rivojlangan bo'lib, ularning byirik Janubiy Osiyodir. Hindistonda ip-gazlama va jut-gazlama sanoatlari yaxshi rivojlangan. Ip-gazlama – Bombeyda, jut-gazlama – Kalkuttada, oziq-ovqat sanoatida choy, qand-shakar, o'simlik moyi (eryong'oq), qandolatchilik etakchi o'rin tutadi.

Mamlakatda qora metallurgiya sanoati rivojlangan bo'lib, u dunyoda po'lat eritish bo'yicha 10-o'rinda (yiliga 18 mln t.) turadi. Rangli metallardan alyuminiy eritish yaxshi rivojlangan. Eng yirik metallurgiya markazi – Bakaro shaxrida joylashgan.

Hindiston xo'jaligida dastgohlar, traktorlar, avtomobillar, teplovozlar, televizorlar, EHM lar, AES lar uchun jihozlar, kosmik sanoat uchun jihozlar, ximiyaviy tolalar, farmosevtika ("Farmed" qo'shma korxonasi) kabilar rivojlangan.

Mamlakatning tog'-kon sanoati, ayniqsa Dekan yassitog'ligida kuchli rivojlanib bormoqda. bu erdagi og'ir sanoatning eng muhim yangi qurilishlarini J.Neru "Yangi Hindistonning qasrlari" deb atagan.

Hindiston xo'jaligining iqtisodiy rivojlanishida 4 ta yirik markaz ajralib turadi. Ular iqtisodiy poytaxtlardir: Dehli, Madoras, Bombey,Kalkutta.

Dehli 1911- yildan beri mamlakat poytaxti, hozirda Yangi Dehli. Qishloq xo'jaligida dehqonchilik yetakchi, bunga sabab tabiiy sharoitning qklayligidir. Mamlakat xududi asosan subekvatorial iqlim mintaqasida joylashgan. U haydaladigan erlar maydoniga ko'ra faqat AQSH dan keyin turadi xolos. Mamlakat qishloq xo'jaligi asosan 2 mavsumga, ya'ni rabi (qishki) va harif (yoz) mavsumiga bo'linadi.

Hindiston qishloq xo'jaligida sholi, choy, paxta, shakarqamish, bug'doy, eryong'oq, zirovorlar yetishtyiriksh yetakchi.

Hindiston dunyoda sholi yetishtyiriksh bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 110 mln t. Xitoydan keyin), shakarqamish yetishtyiriksh bo'yicha 2-o'rinda (yiliga 170 mln t. Braziliyadan keyin), choy yetishtyiriksh bo'yicha 1-o'rinda, bug'doy etishtyiriksh bo'yicha 3- o'rinda (yiliga 50 mln t. Xitoy va AQSH dan keyin), paxta yetishtyiriksh bo'yicha 3- o'rinda (yiliga 1,7 mln t. paxta tolasi Xitoy va AQSH dan keyin), eryong'oq va zirovorlar yetishtyiriksh bo'yicha 1- o'rinda turadi.

Sholi asosan Gang va Braxmaputra daryolari vodiysida, bug'doy esa Hind-Gang pasttekisligida ekiladi. Panjob – Hindistonning bug'doy mintaqasi nomini olgan.

Paxta va eryong'oq Dekan yassitog'ligida, jut G'arbiy Bengaliyada, choy Sharqiy Hindiston tog' yonbag'irlarida, kokos yong'og'i va dorivorlar Arab dengizi sohillarida etishtyirikladi.

Hindiston dunyoda qoramollar soni (250 mln bosh), echkilar soni (77 mln bosh) bo'yicha byiriknchi o'rinda turadi, lekin hind aholisi go'sht,sut, hayvon yog'i, tuxum iste'mol qilish bo'yicha dunyoda oxirgi o'rinlarda (jon boshiga 1,5-2 kg) turadi. Bunga sabab induizm dini (vegeterianlik).

Hindiston transportida etakchi o'rinda temir yo'l, avtomobil va dengiz transporti turadi. Temir yo'llarning uzunligi bo'yicha (63 ming km) mamlakat Osiyoda byiriknchi o'rinda tursada, temir yo'llarning tor izligi va lakamotivlarning eskiligi temir yo'l transportining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Avtoyo'llarning uzunligi 1,7 mln km bo'lib. Uning 833 ming km qattiq qoplamadir. Mamlakat ichidagi umumiy tashiladigan yukning 80% i, yo'lovchining 70 % i temir yo'l transportiga to'g'ri keladi.

Hindiston tashqi savdosida dengiz transporti etakchi. Eng yirik dengiz porti "bosh darvozasi" Bombey, keyin esa Kalkutta turadi.

Asosiy eksporti: choy, shakarqand, ip-gazlama (paxta), kanop, charm, dorivorlar, farmasevtika mahsulotlari, mashina va jihozlar. Zargarlik va badiiy xunarmandchilik buyumlari, kiyim-kechak.

Asosiy importi: neft, mashina va jihozlar, oziq-oaqat, mineral o'g'itlar, po'lat.

Asosiy savdo sheriklari: AQSH, Rossiya, Yaponiya, GFR. Pul birligi – hind rupiyasi.

## Janubi Sharqiy Osiyo davlatlari.

Bu regionga Hindi-Xitoy va Malakka yarimorollari hamda Malaya arxipelagida joylashgan 11ta davlat kiradi. Ular II-jahon urushiga qadar Buyuk Britaniya, Fransiya va Gollandiyaning mustamlakasi bo'lgan. Mazkur davlatlar 1989- yilgacha o'z mustaqilligini qo'lga kyiriktgan. Eng oxyirikda esa 2002 yil 20-may kuni Sharqiy Timor mustaqil deb e'lon qilindi.

Region xududi 4,4 mln km$^2$ bo'lib, er shari quruqlik maydoninig 3,1 % ini egallagan. Maydoniga ko'ra eng yirik davlatlari: Indoneziya (1,9 mln km$^2$ ), boshqa davlatlarning birortasining maydoni 677 ming km$^2$ dan (Myanma) katta emas. Maydoning kattaligiga ko'ra eng mittisi Singapur (0,6 ming yoki 620 km$^2$ ) bo'lib, uning maydoni Moskva shahari maydonining 2/3 qismiga teng. Singapur maydonining uzunligi 42 km, eni 22 km. Singapurdan tashqari Bruney (6000 km$^2$ ), Sharqiy Timor (15 ming km$^2$) kabi kichik davlatlar ham joylashgan.

Indoneziya rspublikasi 13700 dan ortiq orollardan tashkil topgan. Iqtisodiy geografik o'rnining qklayligi avvalo regionning barcha mamlakatlarini (Laosdan tashqari) dengiz bo'yida joylashganligi;

− region mamlakatlarining bir-byirikga qo'shni joylashganligi
− muhim dengiz yo'lari bo'yida joylashganligi

Masalan Singapur ham Sharqiy, ham G'arbiy darvoza.

Janubi-Sharqiy Osiyo iqlimiy jihatidan ekvatorial va subekvatorial mintaqalarda joylashganligi uchun yog'in-sochin mo'l. Shuning uchun o'simliklarga ayniqsa o'rmonlarga boy. Indoneziya va Filippin orollari byiriknchi darajali seysmik mintaqaga kirganligi uchun tez-tez kuchli zilzilalar bo'lib turadi (masalan, 2004 yil 26-dekabrdagi sunamida 300 ming odam o'ldi) va harakatdagi vulqonlar ko'p (Apo, Karakatau, Slamet, Kerinchi).

Janubi-Sharqiy Osiyo foydali qazilmalarga boy. Ayniqsa, qalayi, neft-gaz, volfram, nikel, xrom kabilarga. Masalan: dunyoda xrom qazib olish bo'yicha Filippin 5-o'rinda, nikel qazib olish bo'yicha Indoneziya 5-o'rinda, Filippin 7-o'rinda, mis qazib olish bo'yicha Filippin 8-o'rinda turadi. Malakka yarim oroli erning qalayi belbog'i nomini olgan bo'lib, bu erda er sharidagi eng yirik qalayi zapasi joylashgan. Bruney sultonligi OPEK ga a'zo, Indoneziya esa kuzatuvchi.

Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarining boshqarilish shakli va davlat tuzumi xilma-xil. Masalan: Vetnam, Laos,Myanma, Indoneziya, Filippin, Singapur kabi davlatlar respublika, Bruney, Malayziya, Kambodja, Tailand kabi davlatlar monarxiya shaklida boshqariladi. Myanma va Malayziya federativ davlat tuzilishiga ega.

Aholisi. Janubi-Sharqiy Osiyoda 544 mln kishidan (2003y) ortiq aholi yashaydi. 2006-yilda 565 mln kishiga etdi. Tug'ilish koeffisienti 22 ‰, o'lim 7‰ . 1 ayolga 2,7 bola to'g'ri keladi. 15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 31 % ini, 64 yoshdan o'tganlar 5 % ini tashkil etadi. O'rtacha umr 66-70 yosh. YAMD –3390 $. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari aholisi er shari aholisining 8,5 % ini tashkil etadi. Aholisi soniga ko'ra Indoneziya (220 mln), Filippin (82 mln), Vetnam (81 mln), Tailand (63 mln) , Myanma (50 mln) kabi davlatlar etakchi (2003). Aholisi soni eng kam bo'lgan davlatlar: Bruney (0,4 mln), Sharqiy Timor (0,8 mln) kabilardir.

Region aholisi yiliga 9-10 mln kishiga ko'paymoqda. Eng yuqori tabiiy ko'payish Vetnam, Laos, Kambodja, Filippinga to'g'ri keladi. Aholi ko'payishi shu holatda ketsa, 2025 yilga borib dunyodagi eng seraholi 11 davlat qatoriga Filippin va Vetnam ham kiradi. Tug'ilish ko'rsatkichi eng yuqori davlatlar: Laos (36‰), Kampuchiya (28‰), Filippin .
Tug'ilish ko'rsatkichi eng past bo'lgan davlatlar; Cingapur (11‰), Tayland (13‰).
Janubi-Sharqiy Osiyoda tug'ilish koeffisenti 22‰ ni tashkil etadi.
Yoshlar salmog'i eng yuqori (43-44 %) bo'lgan mamlakatlar: Kambodja, Laos, Sharqiy Timor; eng kam bo'lgan davlatlar: Singapur, Tailand (21-23%). Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari aholisining o'rtacha zichligi 1km$^2$ 122 kishi bo'lgani holatda, Vetnam, Tailand, Filippinda 200 kishidan ortiq, Laos,Kambodja,Bruneyda 35-40 kishi. Yava yarimorolida 2000 kishi va Singapurda 6653 kishini tashkil etadi. Ko'pchilik davlatlari ko'p millatlidir. Masalan: Indoneziyada 150 dan ortiq, Vetnamda 50 dan ortiq, Myanma va Tailandda30 dan ortiq xalq yashaydi. Urbanizasiya darajasi Singapurda 100%, qolgan barcha davlatlarda 40 % ga etmaydi. Millioner shaharlari jami 15 ta bo'lib, ular ichida eng yyirikgi Jakarta (9 mln). Hindi-Xitoy aholisi asosan buddizmga, Malaya arxipelagi aholisi islom diniga e'tiqod qiladi. Dunyoda musulmonlar soni eng ko'p bo'lgan davlat Indoneziya.

Xo'jaligi XX asrning 70 yillariga qadar Janubi-Sharqiy Osiyo jahonning eng qoloq o'lkalaridan bo'lib kelgan. Shu yillardan keyin ichki iqtisodiy rivojlanish, tabiiy resurslar (tog'-kon) va chet el investisiyalari omillari ta'syirikda region mamlakatlarida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshladi.

Hozirda region mamlakatlari sanoatining rivojlanishiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:
1.Yangi sanoatlashgan "Osiyo yo'lbarslari" davlatlari: Singapur, Tailand va Malayziya. Bu mamlakatlarda Yapon kapitali ta'syirikda va mahalliy ishbilarmonlar faoliyati tufayli "iqtisodiy mo'jiza" lar ro'y bermoqda. Masalan: Singapur dunyodagi eng yirik savdo markazi, moliyaviy markaz, turizm markazi, industrial markaz (neftni qayta ishlash, kemasozlik, elektrotexnika) larga aylanib bormoqda. Malayziyada kondensionerlar, elektro va radio texnikalar, avtomashinalar va boshqa rezina buyumlar, maishiy texnika buyumlari, rangli metallurgiya sanoati; Tailandda tabiiy kauchuk buyumlari, rangli metallurgiya sanoati, mashinasozlik, engil sanoat rivojlanib bormoqda.
2. Neft-gaz sanoati rivojlangan davlatlar: Indoneziya va Bruney sultonligi.

Indoneziya yiliga 65 mln t.dan ortiq neft qazib oladi, 30 mlrd m$^3$ dan ortiq tabiiy gaz qazib oladi. Asosiy sanoat tarmoqlari: neftni qayta ishlash, neft – kimyo, tikuvchilik va to'qimachilik, qorametallurgiya sanoati, kauchuk va o'rmon sanoatlari. Eng yirik sanoat markazlari: Jakarta, Surabaya, Medon, Padang, Bandun shaxarlarida joylashgan.

Bruney sultonligida sanoat tarmoqlari rivojlanmagan bo'lib, u erda qazib olinayotgan neft (yiliga 8-10 mln t) va tabiiy gaz (10-13 mlrd m$^3$ ) hom holatida eksportga chiqariladi.
3. Industrlashtirish yo'lidan borayotgan davlatlar. Bu guruhda Vetnam aloxida ajralib turadi. Mamlakatda qorametallurgiya, mashinasozlik, to'qimachilik, oziq-ovqat sanoatlari rivojlanib borayotgan bo'lsada, xo'jalikda oziq-ovqat va engil sanoat etakchidir. Yirik sanoat markazlari Xanoy va Xoshiminda joylashgan. Myanmada asosan sellyuloza – qog'oz sanoati, to'qimachilik, oziq-ovqat va rangli metallurgiya sanoatlari rivojlanmoqda. Yirik sanoat markazi Yangon shahrida joylashgan.

Filippinda asosan tog'-kon sanoati (mis, xrom, temir, alyuminiy) engil va oziq-ovqat sanoati rivojlanib bormoqda. eng yirik sanoat markazlari: Manila va Sebu shaharlari.

4. Sanoati juda sust rivojlangan davlatlar: Laos va Kambodja. Ularda asosan xunarmandchilik, zargarlik va qo'lda buyumlar yasash (savat, shlyapa). Bruney va Sharqiy Timorda zamonaviy sanoat yo'q. Janubi-Sharqiy Osiyoda oziq-ovqat sanoati muhim o'rin tutadi. Dunyo bo'yicha kokos yog'i ishlab chiqarish va uni eksport qilishda mazkur region etakchi bo'lib, bu sohada Indoneziya, Malayziya, Tailand davlatlari etakchi. Choy sanoati Indoneziya, Malayziya, Vetnamda ; qand-shakar sanoati Indoneziya, Malayziya, Tailand ; kofe sanoati Indoneziyada ; brouler xo'jaligi (akarashka) Tailand, Malayziya, Myanmada yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi. Janubi-Sharqiy Osiyo qishloq xo'jaligi asosiy o'rnida oziq-ovqat ekinlari turadi. Bunga sabab oziq-ovqat muammosini bu regionda xaligacha hal qilinmaganligidir. Regionning musson iqlimli joylarida, Mekong, Irovadi va Xongxa daryo vodiylarida sholikorlik rivojlangan. Bu erlarda yil bo'yi sholi etishtyirikladi va 2-3 marta hosil yig'ib olinadi. Indoneziyada jami ekin maydonining 2/3 qismiga, Filippinda 90% iga sholi ekiladi. Mekong va Xongxa daryolarining deltalari Vetnamning "sholi savatchasi" (karzinasi) nomini olgan. Regiondagi asosiy sholi etishtiruvchi davlatlar:
Indoneziya (yiliga 45 mln t. dunyoda 3- o'rin).
Tailand (yiliga 21 mln t. 4-o'rin)
Vetnam (yiliga 19 mln t. 6- o'rin)
Myanma (yiliga 15 mln t.)
Filippin (yiliga 8 mln t.)

Shakarqamish etishtyiriksh bo'yicha dunyoda indoneziya 7- o'rinda turadi. Mamlakatda yiliga 25 mln t dan ortiq shakarqamish etishtyirikladi. Dunyo bo'yicha etishtyirikladigan tabiiy kauchukning 85 % ini Janubi- Shraqiy Osiyo davlatlari, avvalo Indoneziya, Tailand, Malayziya uchligi beradi.

Myanma, Tailand, Laos chegarasida dunyodagi eng mashhur "oltin burchak" joylashgan.

Asosan Indoneziyada qisman Vetnamda kofe etishtyiriksh rivojlangan. Region qishloq xo'jaligida yuqoridagilardan tashqarichoy, kakao, paxta, eryonhoq, tamaki, kokos va moyli palma etishtyiriksh rivojlangan. Janubi-Shraqiy Osiyoda chorvachilik sust rivojlangan bo'lib, bu tarmoqdan faqat parrandachilik (broyler) yaxshi rivojlangan. Janubi-Sharqiy Osiyo dunyo bo'yicha YAIM 2,2 % ini beradi.

Transporti. Temir yo'l transporti eng rivojlangan davlatlar: Indoneziya (7 ming km ) va Myanma (5 ming km). avtomobil transporti va yo'llarining uzunligi ortib uning ahamiyati oshib bormoqda. indoneziya va Filippinda dengiz transporti rivojlangan. Regiondagi eng yirik dengiz porti Singapur (yiliga 115 -120 mln t yuk o'tkazadi) va Bangkok (60 mln t.) portlaridir. Xoshimin,Jakarta, Surabaya portlari kichikroq. Havo transporti xalqaro aloqalarda muhim o'rin tutadi. Eng katta aeroporti Changi (Sing). Keyingi o'rinlarda Bangkok va Jakarta aeroportlari turadi. Janubi- Sharqiy osiyo tabiiy va tarixiy rekreasion resurslarga boyligi uchun keyingi paytlarda xalqaro turizm va dam olish tarmoqlari rivojlanib bormoqda.

Asosiy eksporti: neft-gaz, qalayi, volfram, nikel, mis, alyuminiy, xrom, radiotexnika, rezina buyumlar, elektrotexnika, kondisionerlar, sholi, kauchuk,kofe, kokos yong'og'i va yog'i, broyler, tropik mevalar, tamaki.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, kapital, bug'doy, sanoat mahsulotlari. Pul birligi: rupiya (Indoneziya), peso (Filippin), rentit (Malayziya), dollar (Singapur va Bruney), bat (Tailand), dong (Vetnam), riel (Kambodja), kip (Laos), kyat (Myanma).

**Janubi-G'arbiy Osiyo davlatlari.**

Bu regionda Yaqin va O'rta Sharq hamda Kavkaz orti 20 mamlakati joylashgan. Uning maydoni 7 mln $km^2$ , aholisi 245 mln kishidan ortiq. Bu regionda dunyodagi eng yirik yarimorol Arabiston va Kichik Osiyo yarimoroli joylashgan. Bu regiondagi Afg'oniston, Armaniston va Ozarbayjondan tashqari barcha davlatlar dengiz bo'yida joylashgan. Bu iqtisodiy qulaylikdir. Bu regionning iqtisodiy geografik o'irninng qulayligi: ko'pchilik davlatlarning dengiz bo'yida joylashganligi, Yevropa, Shimoliy Afrika va Hindistonga yaqinligi, muhim dengiz va havo yo'llarida joylashganligi, neft va tabiiy gazga boyligi. Bu regionni iqtisodiy jihatdan eng kuchli davlatlari: Turkiya, Isroil, Kipr. Eng qoloqlari: Afg'oniston, Yaman.

Janubi-G’arbiy Osiyoning dunyo miqyosida tutgan o’rni quyidagicha: bu region er shari maydoninig 4,6 % ini egallagan ; dunyo aholisining 4,6 % ini o’z ichiga oladi; dunyo bo’yicha YAIM ning 2,6 % ini shu region beradi ; dunyo bo’yicha yalpi eksport mahsulotining 3, 7 % i shu regionga to’g’ri keladi.

Tabiiy sharoiti juda xilma-xil. Turkiya, Armaniston, Afg’oniston, Eron kabi davlatlarda tog’lar katta maydonni egallagan. Arabiston yarimoroli davlatlarida cho’llar (Rub-el- Xali, Katta va kichik Nefut, Suriya), Eronda esa sho’rxok cho’llar (Dashti-Kevir, Dashti-Lut) katta maydonlarni egallagan. Iqlimiy jihatdan regionni shimolini subtropik, katta janubiy qismini esa tropik iqlim mintaqasi egallagan.

Regionning asosiy foydali qazilmasi neft va tabiiy gaz. Jahon neft zaxirasining 2/3 qismi, qazib olishning ¼ qismi Fors korfazi bo’yi davlatlariga to’g’ri keladi. Neft zahirasi bo’yicha dunyoda Saudiya Arabistoni, Eron, Iroq, Quvayt, BAA etakchi o’rinda turadi.

Dunyoda topilgan 30 ta ulkan neft konining 15 tasi Fors korfaziga to’g’ri keladi. Gavar (Saudiya Arabistoni), Al-Burxon (Quvayt), Manifa (Saudiya Arabistoni) kabi konlardan sutkasiga 2 ming tonnagacha neft fontan bo’lib otilib chiqadi. Neft quduqlarining umumiy soni 5 ming ta.

Tabiiy gazni qazib chiqarish bo’yicha Saudiya Arabistoni, Iroq, Eron va BAA davlatlari etakchi.

Fosforitning yirik konlari Iordaniyada (dunyoda 5-o’rinda). Kaliy tuzining yirik konlari Isroilda (5-o’rinda). Oltingugurtning yirik konlari Iroqda (dunyoda 4-o’rinda). Mis va xromning yirik konlari Eron va Turkiyada. Gidroenergiya resurslariga Afg’oniston, Gruziya va Armaniston boy. Turkiya va Kiprning O’rta Er dengizi sohillari tabiiy-rekreasion resurslarga boy. Shuning uchun u erlarda turizm rivojlangan.

Aholisi . Kavkaz orti davlatlari, Isroil va Kiprdan tashqari barcha davlatlarda demografik portlash, ayniqsa Falastin hududida (yillik o’sish 3,7 %). Aholi soniga ko’ra:
Turkiya (71 mln 2003 yil, 73,7 mln 2006 yil);
Eron (67 mln 2003 yil, 71 mln 2006 yil);
Afg’oniston (29 mln 2003 yil, 31 mln 2006 yil);
Iroq (24 mln 2003 y, 29,6 mln 2006 y);
Saudiya Arabistoni (24 mln 2003 y, 24 mln 2006 y);
Yaman (19 mln 2003 y, 21,6 mln 2006 y);
Suriya (18 mln 2003 y, 29,5mln 2006 y) kabilar etakchi.

Baxrayn, Katar, Kipr kabi davlatlarda aholi soni 1mln kishiga etmaydi. Regionning qolgan barcha davlatlarida (Kavkaz orti, BAA, Isroil, Iordaniya, livan, Amman, Quvayt, Falastin) aholi soni 2,5-8,2 mln (2003 y) kishi oralig’ida.

Tug’ilish koeffisienti eng yuqori bo’lgan davlatlar: Yaman (43 ‰), Afg’oniston (42‰), Falastin (39‰), Iroq , Saudiya Arabistoni (35‰). Dunyo bo’yicha 22‰.

Tug’ilish koeffisienti eng past bo’lgan davlatlar: Gruziya (9‰), Kipr (12‰), Armaniston, Ozarbayjon (14‰).

O’lim koeffisienti eng yuqori bo’lgan davlatlar: dunyo bo’yicha 9 ‰. Afg’oniston (18‰), Iroq va Yaman (10‰).
O’lim koeffisienti eng past davlatlar: BAA, Quvayt (2‰), Baxraynda (3‰).
Chaqaloqlar o’limi eng yuqori Afg’onistonda (154‰); eng kam Kipr va Isroilda (5‰). Dunyo bo’yicha 55‰.

15 yoshgacha bo’lganlar soni eng ko’p davlatlar: Yaman (48%), Iroq (47%), Falastinda (46 %), Saudiya Arabistoni (43 %). Dunyo bo’yicha 30 %.
15 yoshgacha bo’lganlar soni eng kam davlatlar: Gruziya (20%), Kipr (22 %), Armaniston (24 %).

64 yoshdan yuqori bo’lganlar soni eng ko’p va eng kam bo’lgan davlatlar: Gruziya (14 %), Kipr, Katar (11%), BAA (1%), Quvayt (2 %).Dunyo bo’yicha 64 yoshdan o’tganlar 7%.

IYAD salmog’i dunyo bo’yicha 7160 $ (2001 y). Regionda IYAD eng yuqori : Quvaytda (21500$), Kiprda (21100$), eng past: Yaman (730$).

Aholisining o’rtacha zichligi 1 $km^2$ ga 37 kishi bo’lgani holda O’rta Yer, Qora va Kaspiy sohillarida 50-100 kishi, baland tog’ va cho’llarda 1-10 kishiga to’g’ri keladi.

Urbanizasiya darajasi Quvaytda 96 %, Isroilda 92 % , Katarda 80 %, Omanda 13%.

Regionda 21 dan ortiq millioner shahar va shahar aglomerasiyalari mavjud. Ular ichida Istambul va Tehron eng yyirikgidir. (10-20 mln kishi).

Region davlatlari davlat tuzumiga ko’ra mutloq teokratik, konstitusion, federal monarxiya davlatlariga va respublika davlatlariga bo’linadi.

Aholisining etnik tarkibiga ko’ra Arabiston yarimoroli davlatlari bir millatli, Turkiya, Iroq, Eron, Afg’oniston kabi davlatlar esa ko’p millatlidir.

Makka va madina shaharlari musulmonlar uchun, Erusalim shahri esa xristian, musulmon va iudaistlar uchun muqaddas joy sanaladi.

Xo’jaligi. Regiondagi Turkiya, Isroil va Kipr davlatlari Osiyoning yangi industrial davlatlari qatoriga kiradi. Ular evropa modeli asosida rivojlanmoqda. Yaqin kelajakda Turkiyani Evropa ittifoqiga kyirikshi mo’ljallangan. Fors korfazi bo’yi davlatlarida neft-kimyo sanoati, Eronda ko’p tarmoqli iqtisodiyot, Afg’oniston va Yamanda qoloqlik hukmron. Regionda asosiy rivojlangan sanoat tarmog’i neftni qazib olish va uni qayta ishlashdir. Agar dunyo bo’yicha yiliga jon boshiga 500 kg neft qazib chiqarilayotgan bo’lsa, bu ko’rsatkich Fors qo’ltig’i bo’yida 3,3 ming t. ni tashkil etadi. Fors korfazi bo’yi davlatlari yiliga 800 mln t.dan ortiq neft qazib oladi va eksport qiladi. Uning 1/3 qismi (250 mln t) shu joyda qayta ishlanadi. Eng yirik neftni qayta ishlash korxonalari Saudiya Arabistoni, Eron, Quvayt va BAA da joylashgan. Aynan shu mamlakatlar eksportini 90-95 % ini neft va neft mahsulotlari tashkil etadi.

Jun-gazlama va ip-gazlama to’qimachiligi Turkiyada, gilam to’qish Eron va Afg’onistonda.

Qora metallurgiya sanoati Turkiya, Eron va Gruziyada, mashinasozlik turkiya va Isroilda rivojlangan. Janubi- G’arbiy Osiyoning eng yirik sanoat markazlari: Istambul, Tel- Aviv va Tehron shaharlarida; kichikroq sanoat markazlari: Anqara, Izmir, bog’dod shaharlarida joylashgan. Mazkur sanoat markazlarini va aholini asosan IES lar, qisman GES lar energiya bilan ta’minlaydi. Eronda AQSH va Evropa iqtisodi qarishiligiga qaramay AES qurilmoqda.

Qishloq xo’jaligi. Region mamlakatlariningt ko’pchiligi agrar-industrial rivojlanish hususiyatiga ega, shuning uchun ularning iqtisodiyotida qishloq xo’jaligi muhim o’rin tutadi. Lekin ko’p mamlakatlarni qishloq xo’jaligi oziq-ovqat bilan taminlay olmaydi. Bunga sabab: mexanizasiya va kimyodan kam foydalanish, shuniningdek suv tanqislgidir. Zamonaviy sug’orish usullaridan Isroil, Suriya, Iroq kabi davlatlar foydalanmoqda. Turkiyada angor echki boqish, Arabiston yarimoroli davlatlarida tuya boqish, Eron va Afg’onistonda qorako’lchilik rivojlangan. Turkiyada paxtachilik, tamaki, sitrus mevalari, g’alla etishtyiriksh, Eronda xurmo, sitrus mevalari, qand lavlagi, paxtachilik, Iroq, Suriya va isroilda paxta, tamaki va xurmo, Arabiston yarimoroli davlatlarida xurmo etishtyiriksh rivojlangan. Afg’oniston (Shibirgen koni) tabiiy gazni Tojikiston va O’zbekistonga eksport qiladi.

Transporti. Eron, Turkiya, Kavkaz orti davlatlarida temir yo’l transporti, Turkiya, o’rta Er dengizi bo’ylari va Kavkaz ortida avtomobil transporti yaxshi rivojlangan. Temir yo’llarning uzunligi Trukiyada 10 ming km, Eronda 5,2 ming km, Saudiya Arabistonida 700 km.

Quvur transporti Saudiya Arabistonida yaxshi rivojlangan. Shuningdek Eron, Iroq, Turkiya va Ozarbayjonda ham quvur transporti mavjud. Temir yo’llarning umumiy uzunligi: Afg’onistonda 11 km, Iordaniyada 600 km, Iroqda 3000 km, Isroilda 830 km, Livanda 408 km, Suriyada 1400 km. Baxrayn, Katar, BAA, Quvayt, Oman, Yaman, Kipr kabi davlatlarda temir yo’llar yo’q.

Janubi-G’arbiy Osiyoda asosan dengiz transporti rivojlangan bo’lib, u tashqi savdoda muhim rol o’ynaydi.

Fors korfazida faqat neft eksport qiluvchi maxsus portlar mavjud: Ras-Tannura, Obodon, El-Jubdil, El-Jubail, Bender-Abbas, Maskad kabilardir. Universal portlardan eng yiriklari: Jidda va Yanbu (Saudiya Arabistoni).

Tashqi savdo sheriklari: AQSH, Yaponiya va Xorijiy Yevropa davlatlari.

Asosiy eksporti: neft-gaz, neft- kimyo sanoati mahsulotlari, sun’iy matolar, kraskalar, jun-mato (angorka), xurmo, sitrus, qorako’l, fosforit, kaliy tuzi.

Asosiy importi: mashina va jihozlar, qorametallurgiya mahsulotlari, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari. Pul birligi: Iordaniya, Baxrayn, Quvayt, Iroqda – dinar;

Oman, Saudiya Arabistoni, Yaman, Katar, Eronda – riol;

Livan, Kipr, Suriyada – funt ;
BAA da – dirxam ;
Isroilda – shekel;
Turkiya – lira;
Afg'onistonda – afg'oni.

**Mavzu:Yaponiya xo'jaligiga umumiy iqtisodiy geografik ta'rif.**

Yaponlar o'z mamlakatini qadimdan Nippon yoki Nixon deb atashadi.Bu so'zlarning ma'nosi "quyosh" yoki "asos" demakdir.Yaponiyani ko'pchilik "Quyosh chiqadigan mamlakat" deb atashadi.Ramziy belgi sifatida davlat bayrog'iga quyosh tasvyirik tushyiriklgan.Yuqoridagi holatlarning barchasi Yaponiyaning tabiiy geografik o'rniga mos tushadi.$180^0$ 5-soat farq.Yaponiya-Osiyoning sharqida asosan materik orollarida joylashgan davlat bo'lib, u 4 ta yirik orol (Xonsyu, Xokkaydo, Kyusyu, Sikoku) va to'rt mingta mayda orollardan tashkil topgan.Yaponiya orollari 3,5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, $20^0 25^1$ va $45^0 33^1$ shimoliy kenglik, $122^0 56^1$ va $153^0 59^1$ sharqiy uzunlikda joylashgan.Yapon orollarini shimoldan Oxota dengizi, janubdan Fillipin dengizi, janubi-g'arbdan Sharqiy Xitoy dengizi, g'arbdan Yapon dengizi va Koreya bo'g'ozi, sharqdan Tinch okeani o'rab turadi.

Yaponiya Evrosiyo va Tinch okeani litosfera plitalarida to'qnashgan joyda joylashganligi uchun byiriknchi darajali seysmik va vulkanik mintaqa hisoblanadi.Yaponiya hududida tez-tez zilzila bo'lishidan tashqari 188 ga yaqin vulqonlar joylashgan, ulardan 40 tasi harakatdagi vulqonlardir.Yaponiya sohillarida tez-tez sunami va tayfunlar bo'lib turadi, musson yomg'irlari kuzatiladi.

Mamlakat maydoni 372,2 ming $km^2$ bo'lib, u maydoniga ko'ra AQSHning Kaliforniya shtatiga teng yoki O'zbekiston Respublikasi maydonidan 77 ming $km^2$ ga kichik.

Yaponiyaning iqtisodiy geografik o'rni avvalo orollarda joylashganligi va materikka yaqinligi bilan belgilanadi.Bu avvalo Yaponiyani Rossiya Fedarasiyasi, XXR va "Osiyo yo'lbarsi" davlatlariga yaqinligi bilan izohlanadi.Ayni paytda Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionining markazidir.Bu holatlar mamlakatni xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

Yaponiya xukumati bilan Rossiya xukumati orasida Shikotan oroli majorasi mavjud.

Yaponiya hududini 3/4 qismini tog'lar va qir-adirlar egallagan.Eng katta pastekisligi Toxio qo'ltig'i bo'yidagi Konto pastekisligidir.Tog'lar Saxalin oroli va Kuril orollaridagi tog'larning davomi bo'lib, ular shimol va shimoli-sharqdan, janub va janubi-g'arbga cho'zilgan.Eng baland cho'qqisi Fudziyama vulqoni (3776m.) hisoblanadi.Pastekisliklar asosan sohillarda joylashgan bo'lib, ular mamlakat hududini 15%ini tashkil etadi.

Yaponiyani shimol qismi (Xokkaydo oroli, Xonsyu orolini shimoli) mo''tadil, janubiy qismi (Xonsyu orolining janubi, Kyusyu, Sikoku, Ryukyu) subtropik iqlim mintaqasida joylashgan.Barcha hududi musson iqlim tipiga ega.Yillik yog'in miqdori 1000 mm dan (Xokkaydo orolining sharqida) 3800 mm gacha (markaziy Xonsyu tizmalarida).Qor butun Yaponiya hududida yog'adi, qor qoplami qalinligi mamlakat shimoli-g'arbida 4,5 m gacha etadi.Daryo tarmoqlari zich, lekin qisqa tog' daryolaridir.Eng yirik daryolari-Sinano, Tone, Kitakami, Isikari.

Yaponiya o'rmon resurslariga boy mamlakatlardan hisoblanadi.Hududining 2/3 qismidan ko'prog'ini o'rmonlar egallagan.O'rmonlarini 1/3 qismini sun'iy o'rmonlar tashkil etadi.Igna bargli o'rmonlar jami o'rmonlarning 1/2 qismini egallagan.Yaponiya florasida 2750 o'simlik turi uchraydi, shundan 168 tasi daraxt o'simliklaridir.Faunasidagi endem turlarga: yapon maxakasi, qiziltumshuq maymun, ayiq, quyon, olmaxon, yapon xoldor bug'usi, ko'rshapalak, ko'pgina qushlar kiradi.Ryukyu oroli sut emizuvchilarga kambag'al.Yaponiya hududida sut emizuvchilarning 270 turi, qushlarning 800 turi, sudralib yuruvchilarning 110 turi, dengiz sohillarida esa baliqlarning 600 turi, molyuskalarning 1000dan ortiq turi uchraydi.

Yaponiya mineral resurslarga kambag'al.Mamlakat hududida toshko'mir, mis, oltingugurt, marganes, neft, tabiiy gaz, oltin kabi foydali qazilmalar uchraydi.Lekin ular mamlakat extiyojini qondirmaydi.Yoki ularni qazib olish chetdan import qilishga nisbatan qimmatga tushadi.Shuning

uchun Yaponiya importining 49% ini yoqilg'ilar, 13 % ini ruda va boshqa xom-ashyolar tashkil etadi.Shu bilan birga Yaponiya boy dengiz, geotermal, gidroenergiya va agroiqlim resurslariga ega.

Keyingi vaqtdarda Yaponiya rekrasion resurslarga katta e'tibor qaratmoqda.Hozirda mamlakatda milliy bog'lar soni 25 taga etadi, 1973 yil byiriknchi suv osti parki tashkil qilingan.

Yaponiya aholi soniga ko'ra dunyoda 10-o'rinda turadi, 2003 yilda uning aholisi 127,5 mln. kishiga yetdi.Aholisining tabiiy ko'payishi jihatidan Yaponiya "demografik tanglik" tipidagi davlat hisoblanadi.2001 yil ma'lumotiga ko'ra mamlakatda tug'ilish koeffisenti 9%$_0$, o'lim koeffisenti 8%$_0$ni tashkil etadi.Agar tug'ilish va o'lim orasidagi nisbat shu holatda ketsa, Rossiya va Fransiya demograflarining ma'lumotlariga ko'ra Yaponiya aholisining soni 2025 yil 121 mln. kishi bo'lishi prognoz qilinmoqda.2001 yil ma'lumotiga ko'ra davlatda har bir ayolga 1,3 bola to'g'ri keladi.15 yoshgacha bo'lganlar soni dunyo bo'yicha umumiy aholini 30 % ini, O'zbekistonda 38 % ni, Yaponiyada esa 15 % ni tashkil yetadi.64 yoshdan yuqorilar esa dunyo bo'yicha
7 % ni, O'zbekistonda 4 % ni, Yaponiyada esa 17 % ni tashkil etadi.O'rtacha umr ko'rish dunyo bo'yicha erkaklarda 65 yoshni, ayollarda 69 yoshni (O'zbekistonda esa 68-73 yosh) tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada dunyo bo'yicha eng yuqorini, ya'ni erkaklarda 77 yoshni, ayollarda 84 yoshni, o'rtacha esa 81 yoshni tashkil etadi.Yaponiya bolalar o'limi ko'rsatkichi eng past bo'lgan sog'lom odamlar millati mamlakatidir.Dunyo bo'yicha bolalar o'limi ko'rsatkichi 1000 chaqaloqqa 56 kishini tashkil etgani holatida, bu ko'rsatkich Angolada 198 kishini, O'zbekistonda 20 kishini, Yaponiyada 3 kishini tashkil etadi.Bunda davlat demografik siyosati katta rol o'ynaydi, ya'ni oilani rejalashtyiriksh va kechroq turmushga chiqishni targ'ib qilinishi.

Yaponiya aholisining milliy tarkibiga ko'ra tipik bir millatli (99% yapon) davlatdir.Yapon xalqining etnogenezi xaligacha to'liq aniqlanmagan.Yapon orollarida ilgari odam yashamagan, neolit davrida Indoneziya orollaridan ko'chib kelgan aynlar va qit'adan kelgan koreyslar aralashib murakkab etnik gruppani vujudga keltirgan.Mamlakatda yaponlardan tashqari koreyslar, xuasyalar va aynlar yashaydi.

Yapon tili juda o'ziga xos bo'lib, jahondagi til oilalaridan birontasiga kirmaydi.Yapon yozuvi tizimi ham ancha murakkab bo'lib, unda ieroglif hamda bo'g'inli harflar ishlatilinadi.

Yaponiyada ikki asosiy din mavjud bo'lib, ya'ni sintoizm (milliy din) va buddizm (jahon dini) odatda dindorlar har ikki dinga e'tiqod qiladilar.

Yaponiya-yuksak madaniyat va yoppasiga savodxon mamlakatdir.Savadxonlik darajasini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin.Yaponiyadagi universitetlar soni butun G'arbiy Evropadagidan ko'p, ilmiy hodimlar soni esa Buyuk Britaniya, Fransiya va GFR ni qo'shib hisoblaganda ham ko'p.Mamlakatda qadimgi madaniyat, badiiy va turmush an'analari yapon turmush tarzini ajralmas qismi bo'lib saqlanib qolgan.Masalan: ikebana, bonsoy, kalligrafiya, jonli manzaralar chizish, choy tantanasi, kimono ayollar kiyimi, sumo kurashi, dzyudo, yaponcha dasturxon yasatish, sakuraning gullashini tomosha qilish, zarang o'rmonida sayr, bahorgi va kuzgi tengkunlik bayramlari va x.k.Yaponiyada yiliga 40 dan ortiq turli-tuman festivallar o'tkaziladi.Ulardan eng mashhuri "oq orolda"gi qor festivalidir.

Yaponiya aholisining o'rtacha zichligi 1km$^2$ga 337 kishini (2003y.) tashkil etadi.Aholisining asosiy qismi mamlakat hududini 10 % ida yashaydi.Aholi eng zich yashaydigan erlar Xonsyu orolining janubidagi Tinch okeani sohillari va Ichki yapon dengizi sohillariga to'g'ri keladi.

Ilgari Yaponiyada aholi soni 30000 dan ortiq bo'lgan aholi punktlari shahar maqomini olgan bo'lsa, hozirda 50000.Urbanizasiya darajasi 76 % ni tashkil etadi.

Mamlakatda 200 dan ortiq yirik shaharlar bo'lib, ulardan 11 tasi millioner shaharlardir.Ular quyidagilar: Tokio (8mln.), Iokogama (3,3mln.), Osaka (2,6mln.), Nagoya (2,1mln.), Sapporo (1,7mln.), Kobe (1,4mln.), Kioto (1,4mln.), Fukuoka (1,3mln.), Kavasaki (1,2mln.), Xirosima (1,1mln.), Kitakyusyu (1,02mln.).

Tokio shahridan-Kobe shahrigacha 600 km masofada Tokaydo megapolisi joylashgan.Bu megapolis "katta uchlik" dan tashkil topgan bo'lib, ular quyidagilardir:
1.Tokio aglomerasiyasi o'z ichiga Tokio, Iokogama, Kavasaki, Tiba shaharlarini olgan bo'lib, ularda jami 27 mln. aholi yashaydi.

2.Xansin aglomerasiyasi o’z ichiga Osaka, Kobe, Kioto shag’arlarini olgan bo’lib, ularda jami 15 mln. aholi yashaydi.
3.Tyune aglomerasiyasi Nagoya shahri va uni atrofini o’z ichiga olgan bo’lib, unda 10,2 mln. aholi yashaydi.
Tokaydo megapolisida aholi zichligi 1km$^2$ga 800-1000 kishiga yetadi.Bu megapolis va uning atrofida (70000 km$^2$), Yaponiya aholisining 56 % i (70 mln.) yashaydi.

Umuman Tinch okean iva Ichki Yapon dengizi sohillaridagi urbanizasiyalashgan xudud mamlakat maydonini 1/3 qismini egallagan bo’lib, unda jami aholininng ¾ qismi yashaydi.

Yaponiyada yerlar juda qimmatli va taqchil resurs bo’lganligi sababli “osmon o’par binolar” va “yer osti” uylar qurishga yerishilinmoqda. Shuningdek, Yaponiya dengiz xisobiga o’z xududini kengaytirayotgan tipik davlat xisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida mamlakat aholisining asosiy qismi qishloq xo’jaligi va baliq ovlashda band edi. Hozirda esa bu tarmoqlarda iqtisodiy faol aholining 20% i, faqat qishloq xo’jaligining o’zida 5 % aholi band. Sanoat tarmoqlaridaesa 33% dan ortiq aholi band. Endilikda nomoddiy sohalarda ishlovchi xodimlar ya’ni: xizmatchilar, ilmiy xodimlar, ishbilarmonlar soni tez ortib bormoqda. Yaponiyada aholini hayot darajasi juda yuqori ya’ni jon boshiga IYAM 25000$.

Yaponiyada hozirga kelib ayollar sonini erkaklar soniga nisbatan ortishi kuzatilinmoqda.
4. Yaponiya – BMT,ASEAN va Xalqaro Valyuta Fondi (MVF) tashkilotlariga a’zo. Davlat tuzumiga ko’ra – konstitusion monarxiya bo’lib, amaldagi konstitusiya 1947 yil qabul qilingan. Davlat boshlig’i imperator (Axikito, 1989 yildan) faqat davlat “ramzi” deb tan olinadi. Xokimiyat boshlig’i rpimer-ministr (bosh vazir) ga berilgan. Yaponiya hududi siyosiy-ma’muriy jihatidan 47 ta prefekturaga bo’linadi. Tokio, Kioto, Osaka shaharlari, Xokkaydo va Okinava orollari alohida prefektura maqomiga ega.

Davlat tili-yapon tili, boshqa til – ayn tili.

Asosiy siyosiy partiyalari:
1. Liberal – demokratik partiya (LDP)1955 yil tuzilgan.
2. Yaponiya Demokratik partiyasi (YADP) 1960 yil tuzilgan.
3. “Sakigake” partiyasi 1964 yil tuzilgan.
4. “Komeyto” (Sof siyosat partiyasi) 1964 yil tarkib topgan.
5. Yaponiya kommunistik partiyasi (YAKP)1922 yil asos solingan.

5.Yaponlarning eng qadimgi madaniyati noolit davriga oid (eramizdan avvalgi)VI-Iming yilliklarda umumiy “dzemon” nomi bilan ma’lum.

Yaponiya xo’jaligi asosan XX asrda juda tez rivojlandi va rivojlanishi jihatidan xozirda jahon xo’jaligida yuqori o’rinlarga chiqib oldi. Bunday tez iqtisodiy o’sishga bir qator sabablar bor. Ular :

– II – jahon urushi yillarida eskirgan va ishdan chiqqan zavod jihozlari butunlay yangilandi va FTI ning eng yangi yutuqlari bilan ishlangan jihozlar bilan almashtyirikldi.
– Chetdan ko’plab patent va lisenziyalar avvalo AQSH va GFR dan sotib olindi va mahalliy sharoitga moslashtyirikldi.
– Ishchilar qattiq ekspluatasiya qilindi.
– Korxonalarni qayta tiklashga va yangisini qurishga ketadigan xarajatlarni asosiy qismini davlat o’z zimmasiga oldi. Monopoliyalarga kreditni ko’paytirdi va soliqni engillashtirdi.
– Xarbiylarga ketadigan xarajatlar kamaytyirikldi (demilitarizasiya) fanga, ilmiy-tadqiqot ishlariga fantalab ishlab chiqarishga e’tibor kuchaydi.

Yaponiya xo’jaligi juda qisqa muddatda fan, texnika, ta’lim, sanoat va savdoda juda katta yutuqlarga erishdi,ya’ni “iqtisodiy mo’jiza” yuz berdi. Yaponiya jahon miqyosidagi juda katta sarmoyachi davlatga aylandi. Yaponiya “iqtisodiy mo’jiza” sining asosiy manbayi mutaxassislar xulosasiga ko’ra, yapon millatining yuqori darajadagi mehnatsevarligi va mehnat intizomi, uyushqoqlik va sabr-toqat, ishga mas’uliyat xissi va tejamkorlik kabi ijtimoiy ko’rsatkichlardir, shuningdek, Yaponiyaning harbiy tayyorgarliklardan tiyilib borishidir.

Yaponiya sanoati dastlab (1950yillardan boshlab) evolyusion yo’ldan (tadrijiy) rivojlandi. Energetika, metallurgiya, avtomobilsozlik, kemasozlik, ximiya, neft-ximiya, qurilish sanoati kabi

“tayanch” tarmoqlar import yoqilg’i va xom-ashyo asosida butunlay yangidan barpo qilindi. Ular FTI ning eng yangi yutuqlari asosida rivoj topdi.
XX asrning 70-80-yillaridan boshlab sanoatda inqilobiy yo’l ustun turdi. Endilikda mamlakat yoqilg’i va xom-ashyo importiga bog’liq bo’lgan, energiya va metalni ko’p ishlatadigan ishlab chiqarishni tobora cheklab, fanni ko’p talab qiladigan eng yangi tarmoqlarga ko’p e’tibor berilmoqda. Yaponiyada elektrotexnika, robot texnikasi, biotexnologiya kabi sohalar etakchi mavqeini egallamoqda.

Ilgari Yaponiyaning ramzi Fudziyama, sakura, samuraylar hisoblangan bo’lsa, endilikda bunday ramz eng katta AES lar, metallurgiya kombinatlari, supertankerlar, ko’priklar, tunnellar, tezkor temir yo’llar, zamonaviy avtomobillar hisoblanadi. 1970 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab Yaponiyada YAIM yiliga o’rtacha 5 % danga o’sib keldi. Yaponiya fanga sarflanadigan mablag’ salmog’iga ko’ra jahonda rivojlangan davlatlar orasida 1-o’ringa chiqdi. 1$=110$
2000 yili aholi jon boshiga to’g’ri keluvchi IYAM qiymati bo’yicha dunyoda 2-o’rinni egalladi, yaeni 38200 AQSH dollari. Yalpi milliy daromad ko’rsatkichi bo’yicha 2000 yil Yaponiya dunyoda Evropa Ittifoqi, Xitoy va AQSH dan keyin 4- o’rinni egalladi.YAMD shu yili 5 trln.AQSH dollarini tashkil etdi.

Dunyo tashqi savdosi taqsimotini 9 % i Yaponiya xissasiga to’g’ri keladi.

Yaponiya xo’jaligining juda muhim xususiyati uning xalqaro iqtisodiy aloqalari nixoyatda kuchli ekanligidir. Byiriknchidan, mamlakat yoqilg’i va xom-ashyoni 90 % ini chetdan keltiradi, ikkinchidan mamlakat iqtisodiyotida tayyor mahsulotni eksport qilish ustun. Yaponiya Osiyo-Tinch okeani regionidagi barcha mamlakatlarning savdo bo’yicha bosh shergidir. Hatto AQSH passiv savdo balansiga ega, Yaponiya esa aktiv savdo balansiga ega.

6. Yaponiya sanoatidagi etakchi tarmoqlar:

Yoqilg’i – energetika sanoati. Yaponiyada neft va tabiiy gaz qazib olinsada u ehtiyojni qondirmaydi. Yaponiya dunyoda neft importi bo’yicha 2-o’rinda turadi. U yiliga 210-220 mln t. neft sotib oladi (umumjahon neft savdosini 14 % i ). Neftni asosan OPEK davlatlaridan keltiradi.

Ko’mirni asosan Avstraliya,JAR, AQSH va Kanadadan keltiradi.

Yaponiya elektr-energiyasi ishlab chiqarish bo’yicha dunyoda 2-o’rinda turadi. U yiliga 950 mlrd kVt/s elektr – energiyasi ishlab chiqaradi. Bu butun jahon elektr-energiyasini 7,5 % i demakdir. Mamlakatda gidro, geotermal, quyosh, qalqish va to’lqin elektro stansiyalari mavjud, lekin elektr-energiyasining asosiy qismini IES va AES lar beradi. Yaponiyada 30 dan ortiq AES lar bor, dunyodagi eng yirik AES (Fukusima) shu davlatda joylashgan.

Metallurgiya sanoati. Yaponiya po’lat ishlab chiqarish xajmi bo’yicha dunyoda 1-o’rinda turadi. U yiliga 98 mln t. po’lat eritadi, umumjahon po’latini 13,6 % i. Lekin po’lat eritish salmog’i yil sayin kamayib bormoqda. Masalan, Yaponiya 1990 yil 110 mln t. po’lat eritgan edi. Buning asosiy sababi mashinasozlikning metalga bog’liqligi kamayishi va fantalab sanoat tarmoqlarini kuchayishidir.

Organik sintez va neft-ximiya sanoati tarmoqlari asosan dengiz portlarida, ayniqsa Ichki Yapon dengizi bo’ylarida to’plangan. XX asrning 2-yarmida II-jahon urushiga qadar Yaponiyada avtomobilsozlik bo’lmagan edi, avtomobilsozlikda Yaponiya ulkan yutuqlarga erishgan. U avtomobil “jangi”da AQSH ni yutib chiqib dunyoda 1-o’rinni egalladi. Yaponiya yiliga 13 mln dona avtomobil ishlab chiqaradi, bu dunyo bo’yicha ishlab chiqarilgan (50 mln dona) avtomobillarni 26 % i demakdir. Yaponiyaning “Xonda”, “Nissan” va “Toyot” kabi zamonaviy avtomobillaridunyoga mashxur. Avtomobilsozlikni eng yirik markazlar: Tokio, Osaka,Nagoya,Kavasaki kabi shaharlar hisoblanadi.

Hozirgi Yaponiya iqtisodiyotining faxri va ramzi elektrotexnika va elektronika sanoatidir. Ayniqsa radioelektronika sanoati – rangli televizorlar, videomagnitofonlar, radiotexnikalar ishlab chiqarish ustunlikka ega. Televizorlar ishlab chiqarish bo’yicha Yaponiya dunyoda 3 – o’rinda turadi, u yiliga 15 mln donadan ortiq televizor ishlab chiqaradi.

Metal kesuvchi dastgohlar ishlab chiqarish bo’yicha Yaponiya dunyoda byiriknchi o’rinda (yiliga 195 mln dona), traktorlar ishlab chiqarish bo’yicha dunyoda ikkinchi o’rinda (yiliga 150 ming dona) turadi.

Yaponiyada ommaviy mashinasozlik mahsulotlari ishlab chiqarish bilan birga yuqori texnologiyaga asoslangan buyumlar ishlab chiqarish ustun. Mashinasozlik sanoati tarmoqlari eng rivojlangan xududi – Tokio rayoni bo'lib, u butun mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotni 3/1 qismini beradi.

Kema ishlab chiqarish bo'yicha Yaponiya dunyoda byiriknchi o'rinda turadi. Kemasozlik sanoatining eng yirik markazlari: Iokogama, Osaka, Kobe va Nagasaki kabi shaharlarda joylashgan. Ularda kemasozlikning xilma-xil tarmoqlari rivojlangan. Yaponiyada dunyodagi eng yirik supertankerlar, xilma-xil kit ovlovchi kemalar, traulerlar va kichik kemalar ishlab chiqariladi.

Ximiya sanoatining rivojlanishi va sanoat mahsulotining hajmiga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3- o'rinda turadi. Bu sanoatning asosiy xom ashyosi koks chiqindi, neft va tabiiy gaz hisoblanadi. Organik sintez ximiyasi keng ko'lamda rivojlanmoqda. Ximiya sanoatida; mineral o'g'itlar, medikamentlar, kosmetika, plastmassa, sun'iy tola, bo'yoqlar, noorganik ximikatlar ishlab chiqarish ustun turadi.

Qo'riq yerlar faqat Xokkaydo orolida saqlanib qolgan. Orollar meridional yo'nalishda joylashganligi uchun ularning iqlimiy sharoiti ham turlicha.

Yaponiya qishloq xo'jaligida ikkinchi jahon urushidan keyin o'tkazilgan agrar islohot keskin o'zgarish yasadi. Ya'ni yirik yer egaligi tugatilib, yerlar fermerlarga bo'lib berildi.

Hozirgi Yaponiya qishloq xo'jaligi yuqori rentabelligi va mehnat unumdorligi bilan ajralib turadi. Qishloq xo'jaligini ixtisoslashuvi va intensivligi jihatidan boshqa rivojlangan davlatlardan ancha ajralib turadi. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi yuqori darajada mexanizasiyalashganligi va ximiyalashganligi jihatidan Yaponiya dunyoda yuqori o'rinlarni egallaydi.

Yaponiya qishloq xo'jaligida jami aholining 4,7 %i (6mln kishi) bant, ishlanadigan erlar esa mamlakat maydonining 16 %ini tashkil etadi. Dehqonchilik chorvachilikdan 2 barobar ustun turadi. Jami ekin maydonini yarmiga sholi ekiladi. Mamlakatda yetishtyirikladigan jami g'alla hosilini 85-90% ini sholi tashkil etadi, yiliga 12-15 mln tonna atrofida sholi hosili yig'ib olinadi. O'zbekistonda 500 ming tonna. Sholi yalpi hosili bo'yicha Yaponiya dunyoda 8-o'rinda turadi, u Osiyoning "sholikor davlatlari" qatoriga kiradi. Lekin Yaponiya o'zini g'alla bilan ta'minlay olmaydi. Bug'doy importi bo'yicha bu davlat dunyoda 4- o'rinda turadi. Umumjahon bug'doy importini 6% i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Bug'doyni asosan AQSH,Kanada va Avstraliyadan keltiradi. Sholini esa janubi-sharqiy Osiyo va AQSH dan keltiradi. Yaponlarning asosiy "non"i haligacha sholi hisoblanadi. Engil sanoatning asosiy tarmoqlari ip-gazlama va sun'iy tola to'qimachiligidir. Paxta tolasi importi bo'yicha Yaponiya dunyoda Xitoydan keyin 2-o'rinda turadi. Dunyo bo'yicha barcha paxta importini 14 % i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Paxta tolasi asosan AQSH, Avstraliya va Janubiy Osiyo davlatlaridan keltyirikladi. Paxta tolasidan bo'lgan buyumlar eksporti bo'yicha Yaponiya dunyoda 4-o'rinda turadi. Jun gazlama va ipak gazlama sanoatlari deyarli o'smayapti.

O'rmon sanoati tarmoqlarini Shimoliy Xonsyu va Xokkaydo orollaridagi o'rmon massivlari xom-ashyo bilan qisman ta'minlaydi. O'rmon xom-ashyosini asosiy qismi chetdan (Braziliya, Tropik Afrika, Janubi-Sharqiy Osiyo) keltyirikladi. Yaponiya sanoatini xom-ashyo bilan ta'minlanishida importning salmog'i juda yuqoridir. Masalan : jami misning ¾ qismi, temir rudasining 9/10 qismi, toshko'mirning 8/10 qismi chetdan keltyirikladi. Shuning uchun ham keyingi vaqtlarda FTI ning eng so'ngi yutuqlariga tayangan holda dunyo okeani mineral resurslaridan foydalanish samarasi ortib bormoqda. Chunonchi , okean tubidan marganes qotishmalarini qazib olish, dengiz suvidan uran ajratib olish va h.k.

Qishloq xo'jaligi

Yaponiyaning tabiiy sharoiti qishloq xo'jaligini rivojlantyiriksh uchun qulaydir. Tog' yonbag'irlarida podzol va o'rmon qo'ng'ir tuproqlari tarqalgan. Sholi asosan Xonsyu orolini markaziy va janubiy hududlarida ekiladi, bug'doy, arpa, javdar esa Xonsyu orolini shimoli va Xokkaydo orolida ekiladi. Tog' yonbag'irlarida choy, tamaki, qand lavlagi, soya va sitrus mevalari etishtyirikladi. Shaharlar atrofida sabzavotlar va mevalar etishtyirikladi.

Yaponlar azaldan gulchilik bilan shug'ullanib keladilar. Yapon diniy (sintoizm) marosimlarida bonsey va ikebana tarixiy an'anaviy san'at hisoblanadi. Yaponiyada chorvachilik juda sust

rivojlangan, buning asosiy sababi yaylovlarning kamligidir. Butun er maydonining 1,6 % ini yaylovlar tashkil etadi. Chorvachiligidagi rivojlangan tarmoqlar: baliqchilik, broyler parrandachiligi, cho'chqachilik, sut-go'sht qoramolchiligi.

Baliq ovlash – Yaponiya xo'jaligining muhim tarmog'idir. Baliq asosan Yapon dengizi va Tinch okeanining shimoliy qismlaridan ovlanadi. Bulardan tashqari Yaponiya sohillari va Ichki Yapon dengizida marikultura, quruqlikda esa akvakultura usulida baliq va boshqa dengiz mahsulotlari etishtyirikladi. Yaponiya baliq ovlash bo'yicha dunyoda 1- o'rinda turadi(yiliga 13-14 mln t.). Mamlakat baliq ovlovchi flotida 10 minglab traulerlar mavjud. Eng yirik baliq ovlovchi portlari: Iokosuka, Kitakyusyu, Nagasaki, Kagosima, Niigata, Abasyirik kabilar.

Ikkinchi jahon urushiga qadar Yaponiya o'z ipakchiligi bilan dunyoga mashhur edi, endilikda ipakchilik inqirozga yuz tutdi.

Yaponiya sohillarida yashovchi aholi qadimdan molyuska chig'anoqlari orasidan marvarid (gavhar) yig'ish bilan shug'ullanib kelgan. Hozirda chig'anoqli molyuskalar okean sohillaridagi mahsus plantasiyalarda etishtyiriklmoqda. Bunday plantasiyalar ayniqsa Xonsyu orolini jinubiy sohillarida ko'p uchraydi. Ulardan yiliga 500 mln donadan ortiq marvarid chig'anoqlari yig'ilmoqda.

Shunday qilib Yaponiyada qishloq xo'jaligini boshqa rivojlangan davlatlar qishloq xo'jaligiga nisbatan yaxshi rivojlanganligiga asosiy sabab er resurslarini tanqisligidir. Ya'ni aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ekinzorlar maydoni AQSH da 80 sotix ni, Avstraliyada 3 gektarni tashkil etgani holda, bu ko'rsatkich Yaponiyada 4 sotixni tashkil etadi.

Transporti

Yaponiyada daryo va quvur transportidan tashqari barcha transport turlari yuqori darajada rivojlangan. Ichki yuk tashishda avtomobil, temir yo'l va kabataj kemalari asosiy o'rin tutadi.

Avtomobil yo'llarining umumiy uzunligi 1,2 mln km bo'lib (umumjahon avtoyo'llarning 4,8 %i) uning 43% i qattiq qoplamli, 5 ming km esa tez qatnov yo'llaridir. Avtomobillar soniga ko'ra Yaponiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi (1000 kishiga 500 ta). Mamlakatda tashiladigan jami yukning 7,4 %i, yo'lovchilarning 57 % i avtotransport hissasiga to'g'ri keladi.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi 30 ming km bo'lib, ularning yarmi elektrlashtyiriklgan. Eng muhim temir yo'li "Sinkansen" magestrali bo'lib, u Kyusyu orolidan Xonsyu orolini shimolidagi Aomori shahrigacha 1100 km ga cho'zilgan. Bu yo'lda qatnovchi "Poezd-o'q" ("Xikari") soatiga 240km tezlikda xarakatlanib, yiliga 120 mln yo'lovchi tashiydi. Bunda u 66 ta tunnel va 3000 ta ko'prikdan o'tadi. Xonsyu va Xokkaydo orollari orasidagi Sugari bo'g'oziga dunyodagi eng uzun (54 km li) tunnel qurilgan (1970-1988 yillar). Mazkur "Seykan" tunnelini 23 km suv ostidan o'tgan. Bu yo'l "Tokio- Sapporo" oralig'idagi poezd qatnovini ancha tezlashtirdi.

YAponiyada tashiladigan jami yukning 91,7 % i dengiz transportida, 7,4 % i avtomobil transportida, 0,7 % i temir yo'l transportida, 0,2% i havo transportida tashiladi.

YAponiyada tashiladigan jami yo'lovchining 56,9 % i avtomobil transportida, 33,9 % i temir yo'l transportida, 8,7% i havo transportida, 0,5 % i boshqa transport turlarida tashiladi.

Yaponiya yo'lovchi tashuvchi temir yo'llarning zichligiga ko'ra dunyoda 1- o'rinda turadi. Temir yo'llarning eng serqatnov qismi Tokio- Osaka oralig'idir.

Yaponiyaning tashqi va ichki aloqalarida dengiz transporti muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda tashiladigan barcha yukning 91,7 % ini dengiz transporti hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiya rivojlangan davlatlar orasida eng katta va eng zamonaviy savdo flotiga ega. U dunyoda yuk tashish tonnasi bo'yicha 6-o'rinda turadi (yiliga 22 mln reg. t.). mamlakatda 100 dan ortiq portlar bo'lib, ular ichida eng yiriklari Tokio, Tiba, Iokagama, Nagoya, Kobe, Kavasaki, Osaka, Xerosima, Kitakyusyu kabilardir. Dunyoda 2700 ta port bor.

Havo transporti mamlakatning asosiy xalqaro va ichki aloqalarida muhim ahamiyatga ega. Yaponiyada tashiladigan jami yukning 0,7 % i, yo'lovchining 8,7 % i havo transporti hissasiga to'g'ri keladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalar Yaponiya iqtisodida hayotiy ahamiyatga ega. Buning asosiy sababi mamlakat iqtisodini ko'p sohalarni chet el xom-ashyosiga tayanishi va tayyor sanoat mahsulotlarini eksport qilinishidir. Yaponiya jahonning juda ko'p mamlakatlari bilan iqtisodiy aloqalarni

rivojlantyirikb bormoqda. Mamlakat tashqi savdo aylanmasi (oborot) ning katta qismi (1/3 qismi) AQSH hissasiga to'g'ri keladi. Yaponiya eksportini 1/3 va importini ¼ qismi AQSH ga to'g'ri keladi. AQSH dan tashqari asosiy savdo sheriklari: Xitoy, Avstraliya, Germaniya,Indoneziya va "Osiyo yo'lbarslari" davlatlari.

XX asrning 50-60-yillaridan boshlab, Yaponiya eksportida kapitalning salmog'i to'xtovsiz oshib bormoqda. kapitalni asosiy qismi Janubi-Sharqiy Osiy davlatlari (avvalo "Yapon modeli" asosida rivojlanayotgan "Osiyo yo'lbarsi" davlatlari) G'arbiy Evropa davlatlari va AQSH ga to'g'ri keladi. Keyingi vaqtlarda Yaponiyada rivojlanayotgan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalari o'sib bormoqda.

Yaponiya milliy valyutasi-sena, erkin almashinadigan valyuta (SKV) bo'lib, u xalqaro valyutalar qatoriga kiradi. Uning qiymati xozirda (2006 yil 1- aprel ma'lumoti) quyidagicha: 1$ = 118,9 ien, 1¥ = 1s 26 tiyin.

O'zbekiston jahonning 140 dan ortiq davlati bilan iqtisodiy aloqalar olib bormoqda. qo'shma korxonalar soni 2003 yil 3539 taga etdi. O'zbekiston – Yaponiya hamkorligi bo'yicha 14 ta xujjat imzolangan. Ular asosan "ta'lim sohasida", "turizm", "mintaqaviy xavfsizlik", "iqtisodiy hamkorlik" kabi yo'nalishlarda. O'zbekiston iqtisodiyotiga Yaponiya tobora ko'proq investisiya kyiriktmoqda. Masalan: Qorovulbozor neftni qayta ishlash zavodi va Sho'rton gaz-kimyo majmuasi qurilishida Yaponiya faol ishtirok etdi. O'zbekistonga –Yaponiyadan texnologiya vositalari, tayyor iste'mol mahsulotlari, aloqa kommunikasiya vositalari import qilinsa, O'zbekistondan Yaponiyaga paxta, ipak, tog'-kon, metallurgiya maxsulotlari eksport qilinmoqda. 2001 yil ma'lumoti bo'yicha O'zbekistonga Yaponiyadan import qilingan mahsulotlar hajmi 100 mln AQSH dollaridan oshiqni tashkil etdi. O'zbekiston esa Yaponiyaga 10-20 mln AQSH dollari hajmida mahsulot eksport qilgan.

Dunyo bo'yicha import qilinayotgan yoqilg'i va xom-ashyoni 10 %idan ortig'i Yaponiya xissasiga to'g'ri keladi. Yoqilg'i va xom-ashyo importi bo'yicha bu mamlakat dunyoda AQSH va Germaniyadan keyin 3- o'rinda turadi. Yaponiyaning asosiy importi: yoqilg'ilar, rudalar va boshqa xom-ashyolar, oziq-ovqat, sanoat mahsulotlari, to'qimachilik, ximiya, mashina va asbob-uskunalar, o'rmon, qishloq xo'jalik mahsulotlari.

Asosiy eksporti: mashina va uskunalar, avtomobillar, qorametallurgiya mahsulotlari, kemalar, apteka, kapital, ximiya, to'qimachilik va ishlov beruvchi sanoatning boshqa mahsulotlari, ilmiy – tadqiqot ishlari uchun jihozlar, elektronika va elektrotexnika buyumlari.

Xo'jaligini iqtisodiy geografik farqlari.

Yaponiya aholisini joylashishi va xo'jaligini rivojlanish darajasi jihatidan xududi ikki qismga bo'linadi: ya'ni "tashqi" ("Quyoshli") va "ichki" ("Soyali").

"Tashqi" Yaponiyaga Xonsyu orolining markaziy qismidagi dengiz bo'yi pasttekisliklari kiradi. Bu qism Tinch okeani sohili bo'ylab (15-65 km) Kambar polosada joylashganligi uchun "Tinch okeani mintaqasi" ham deb ataladi. Bu mintaqa mamlakatning ijtimoiy – iqtisodiy o'zagidir. Mazkur o'zakda mamlakatning asosiy sanoat, savdo, transport, moliyaviy, ilmiy, energetika markazlari joylashgan. Qurilish maydonlari etishmaganligi uchun ko'plab yirik korxonalar "dengiz hisobida" gi joylarga qurilgan. Bu mintaqa mamlakatning faqat "sanoat mintaqasi" bo'libgina qolmay, balki muhim transpot va intensiv qishloq xo'jaligi rayoni hamdir.

Mamlakatning asosiy sanoat rayonlari (Tokio, Osaka,Nagoya, Kitakyusyu) va yirik shaharlari xullas, aholi va ishlab chiqarish shu mintaqada joylashgan. Tinch okeani mintaqasi butun mamlakat hududini 1/3 qismiga yaqinini egallagan, jami aholining 2/3 qismidan ortig'ini o'z ichiga oladi. Bu mintaqada Yaponiyada ishlab chiqarilgan jami sanoat mahsulotini 85 % i ishlab chiqariladi, elektr energiyasini 70 %, metallurgiya mahsulotini 80 % , jami qishloq xo'jalik mahsulotini 50% dan ortig'i etishtyirikladi.

Bu mintaqada Tokio, Osaka,Nagoya aglomerasiyalari va bir qator shaharlar o'zaro tutashib, Tokaydo megapoliysini tashkil etadi.

Quyida "tashqi" Yaponiyadagi ayrim shaharlar haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Tokio-Konto tekisligida joylashgan bo'lib, 1869 yildan buyon mamlakat poytaxti hisoblanadi. Dunyodagi eng yirik shaharlardan byirik bo'lib, shaharning o'zida 9 mln kishi, aglomerasiyasi bilan birga 20 mln

dan (24 mln kishi) ortiq aholi yashaydi. Tokio (yaponcha “Sharqiy poytaxt” demakdir) eng muhim sanoat, savdo, transport va madaniyat markazidir. Shaharda avtomobilsozlik, elektrotexnika, elektronika, neft-kimyo, poligrafiya, to’qimachilik, oziq-ovqat sanoat korxonalari, mamlakatdagi yirik ilmiy-tadqiqot markazlari joylashgan.

Iokagama – dengiz kanali orqali Tokio bilan qo’shilgan. Shaharda mamlakatning eng yirik kemasozlik markazi, neft-kimyo, po’lat eritish va ko’p metall talab mashinasozlik korxonalari joylashgan.

Nagoya shahrida yirik metallurgiya, og’ir mashinasozlik va kimyo sanoati majmuasi joylashgan. Shuningdek, to’qimachilik va avtomobilsogzlik rivojlangan.

Osaka shahrida to’qimachilik va to’qimachilik mashinasozligi, elektronika, kimyo, qora va rangli metallurgiya, elektrotexnika sanoatlari rivojlangan.

Kobe – qora metallurgiya va kemasozlik shahri. Po’latdan tashqari kimyo va mashinasozlik sanoatlari ham rivojlangan.

Kioto – Yaponiyaning ilgargi poytaxti bo’lib, xozirda bu shaharda mashinasozlik, kimyo va qorametallurgiya sanoatlari rivojlangan.

Kitakyusyu (Shimoliy Kyusyu) – yirik port shaharlardan byirik bo’lib, shaharda asosan qora metallurgiya, og’ir mashinasozlik, kimyo va to’qimachilik sanoatlari rivojlangan.

“Ichki” Yaponiyaga Janubiy Kyusyu, Shimoliy Xonsyu, Xokkaydo, Sikoku, Ryukyu orollari kiradi. Bu qismda avvalo aholi nisbatan siyrak joylashgan, sanoat korxonalari ayrim shaharlardagina mavjud. Ichki Yaponiyada qishloq xo’jaligi ustun turadi, undan tashqari tog’-kon sanoati va o’rmon xo’jaligi rivojlangan.

Xakodate (Xokkaydo oroli) va Nagasaki (Kyusyu oroli) shaharlarida mamlakatdagi eng yirik baliq konserva sanoati joylashgan.

So’ngi vaqtlarda Yaponiya davlati “ichki” qismini rivojlantyirikshga qaratilgan regional siyosat yuritmoqda. Tinch okeani mintaqasidagi ekologik va demografik vaziyatni yumshatish maqsadida texnopolislarni “ichki” qismda bunyod etilishi, Seykan temir yo’l tunnelini qurilishi regional siyosatni amalga oshirayotganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib biz Yaponiya xo’jaligi bilan tanishar ekanmiz, quyidagi xulosalar bilan o’z fikrimizni yakunlaymiz: maydoni O’zbekiston respublikasi maydonidan 77 000 $km^2$ ga kichkina, aholisi soniga ko’ra O’zbekistondan 5 barobar katta bo’lgan, yoqilg’i va xom-ashyoga juda kambag’al. Yaponiyani jahonning eng qudratli va nufuzli davlatga aylanishiga quyidagi yagona omil ya’ni o’ta malakali va ma’naviyatli xalqi sabab bo’ldi. Ayrim ko’rsatkichlar bo’yicha Yaponiya xatto AQSH dan ustun turadi. Bunga asosiy sabablar: ta’limning yuqori darajadligi, malakali ishchi kuchi, mehnatsevar xalqi, o’z ishiga o’ta mas’uliyat bilan qarashi, tartib-intizomliligi, dunyoda bolalar o’limining eng kamligi, aholisini umr ko’rishini eng yuqoriligi, bolalar tarbiyasiga yoshligidan katta e’tibor berilishi, fanga jaratiladigan mablag’larni juda ko’pligi (dunyo bo’yicha byiriknchi o’rinda), ilmiy xodimlar sonining ko’pligi (Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyani birga hisoblaganda ham Yaponiyada ulardan ko’p), universititetlarning ko’pligi (butun G’arbiy Evropadagi universititetlardan ko’p) kabilardir.

Shu boisdan ham prezidentimiz I.A. Karimov kadrlar masalasini 3-ustuvor yo’nalish tarqasida eng dolzarb masalalar qatoriga kyiriktdi. “Ta’lim to’g’risida” va kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’g’risidagi o’zbekiston respublikasi qonunlari, hamda O’zbekiston respublikasi prezidentining “ta’lim – tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to’g’risida” gi farmonini bajarish borasidagi asosiy ishlar davr talablariga to’liq javob beradigan yuqori malakali mutahassislarni tayyorlashdir.

**Mavzu: Rossiya federasiyasi**

Rossiya – Yevrosiyoda joylashgan, maydoniga ko'ra er sharidagi eng yirik mamlakat. Maydoni 17075,400 $km^2$ . Shahar aholisi 107,3 mln, qishloq aholisi – 39,3mln kishi. Rossiya federasiya sifatida 1917 yil 7 noyabrda tashkil topgan. Rossiya siyosiy – ma'muriy jihatdan 21 respublika, 7 o'lka, 49 oblast, 1 avtonom oblast, 10 avtonom okrug va 2 federal shahardan iborat.

Rossiya shimoldan janubga 2,5 -4 ming km gacha, g'arbdan sharqqa 9000 km ga cho'zilgan bo'lib, 3 ta okean suvlari bilan o'ralgan. Tabiiy resurslarga boyligi, ikki qit'ada joylashganligi (ayniqsa Evropada joylashganligi), 3 okean va 13 ta dengiz bilan o'ralganligi, quruqlik orqali MDH ning 7 mamlakati bilan va 5 ta xorijiy davlat bilan chegaradoshligi, suvlik orqali Yaponiya, AQSH va Xorijiy Evropa davlatlari bilan chegaradoshligi iqtisodiy geografik o'rnining qulayligidir. Rossiya hududining ¾ qismini dunyodagi eng yirik tekisliklar va pasttekisliklar egallagan. Misol: Sharqiy Evropa tekisligi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Sibir tekisliklari, Kaspiy bo'yi pasttekisligi (-27m). Tog'li territoriyalar mamlakat xududining janubida va sharqida joylashgan. Ular: Katta Kavkaz (Elbrus cho'qqisi 5642m. Rossiyadagi eng baland nuqta), Ural, Oltoy, Kuznesk Olatovi, Sayan; tizmalaridan : Yablonovoy, Verxoyansk, Cherski, Sixote Alin, Stanovoy, Kalima, Keryak va h.k.

Kamchatka yarim oroli va Kuril orollarida ko'plab harakatdagi vulqonlar bor. Ularning eng balanti: Klyuchevskaya Sopka 4750 m (4688m).

Rossiyada uzunligi 10 km dan oshiq bo'lgan 120 ming daryo bor, ularning umumiy uzunligi 2,3 mln km. Eng uzun daryolari : Ob (5410km), Amur, Lena, Enisey, Volga. Rossiyada 2 mln atrofida ko'llar bor. Eng muhimlari: Baykal (chuqurligi 1637m), Ladoga, Onega, Taymir, Chud. Yirik suv omborlari: Bratsk (169,3 $km^3$ ), Krasnoyarsk, Zey, Ust – Ilimsk, Kuybishev. O'rmonlar Rossiya hududining 41 % ni egallagan.

Rossiyaning shimoliy Arktika muz sahrolaridan janubda chala cho'llargacha davom etadi. Rossiya hududi asosan mo''tadil mintaqada joylashgan bo'lib, g'arbda dengiz iqlimi, dengiz – kontinental, kontinental va mussongacha. Qora dengiz sohillari subtropik. O'rtacha harorat: Rossiya g'arbida $0^0$ − $-5^0$ S gacha yanvarda Yakutskda $-40^0$ $-50^0$ S . Iyulning o'rtacha temperaturasi Sibirning shimolida $+1^0$ S, Kaspiy bo'yida $+24^0$ $+25^0$ S.

Chekka nuqtalari: Chelyuskin burni $77^0$ sh.k. Janubda Bazar-dyuzi tog'i $41^0$ sh.k, g'arbda Baltika posasi (Kaliningrad), sharqda Dejnyov burni $169^0$ g'.u.

Rossiya davlat chegarasining uzunligi 60,9 ming km bo'lib, shundan quruqlik chegarasi 14,5 ming km, dengiz chegarasi 38,8 ming km, daryo chegarasi 7,1 ming km, ko'l chegarasi 0,5 ming km.

Aholisi soniga ko'ra Rossiya jahonda byiriknchi o'nlik mamlakatlari qatoriga kiradi. (1986 yil 145,3 mln, 1999 yil 146,7 mln, 2006 yil 142 mln kishi). Tug'ilish – 1426000 kishi, o'lim – 2372000 kishi. O'rtacha umr 65 yosh. Tug'ilish koeffisienti 10‰ , o'lim 16‰ . Tabiiy o'sish – 0,6% (2006 y). 100 erkakga 113 ayol to'g'ri keladi. Aholisi juda notekis joylashgan bo'lib, zichligi 1 $km^2$ ga 8 kishi(2006 y).

Aholisining asosiy qismi mamlakatning Evropa qismida joylashgan. Osiyo qismida esa faqat janubiy qismida va daryolarning bo'ylaridagina yashaydi. Rossiyada 100 dan ortiq xalq va millatlar yashaydi. Shundan : ruslar – 81,5 %, tatarlar – 3,8 %, ukrainlar – 3 %, chuvashlar – 1,2 % , boshqirdlar – 0,9 %, beloruslar – 0,8 %, mordlar – 0,7 % chechenlar – 0,6 % , armanlar va evreylar – 0,4 % ni tashkil etadi.

Rossiya xududi 10 ta iqtisodiy rayonga bo'linadi. Elektr energiyasining asosiy qismini IES lar beradi.Tabiiy gaz Urengoy, Volgabo'yidan olinadi. Ko'mir Kuzbass, Kansk – Achinsk va Uzoq sharqdan olinadi.

Qora metallurgiya Ural, Volgabo'yi, KMA, Kuzbass da. Rangdor metallurgiya Ural, Janubiy Sibir, Norilskda. Mashinasozlik - Markaz, Volgabo'yi, Ural, Janubiy Sibir, Uzoq sharq.

Ximiya sanoati – Markaz, Volgabo'yi.

Sanoat mahsulotining 1/3 qismi yoqilg'i energetika majmuyi tarmoqlariga to'g'ri keladi. Energetika tarmog'i ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining jamiyat moddiy – texnika ba'zasini

yaratishning asosi hisoblanadi. Rossiyaning yoqilg'i energobloklari strukturasiga yoqilg'ini qazib chiqarish va ishlatishning taxminan 70% i neft va gazga to'g'ri keladi.

Xalq xo'jaligi: Rossiyada xalq xo'jaligining hamma tarmoqlari mavjud. Sanoati – mamlakat xo'jaligining etakchi tarmog'i. Mamlakatda barcha sanoat turlari mavjud.

Neft sanoati. Neft asosan Volgabo'yi, G'arbiy Sibir, Shimoliy Saxalindan olinadi. Konlardan qazib olingan neftning katta qismi mamlakat ichkarisidagi uzunligi 70 ming km ga yaqin bo'lgan neft quvurlari orqali tashiladi. Neft MDH davlatlariga, Sharqiy va G'arbiy Evropa davlatlariga eksport qilinadi. So'ngi yillarda o'rta hisobda yiliga 90 mln tonnadan 120 mln tonnagacha neft eksport qilinmoqda.

Mashinasozlikning yirik markazlari: Moskva, Leningrad, Uralda, Volgabo'yida, G'arbiy Sibirda. Temir yo'l mashinasozligining yirik korxonalari Nijniy, Novgorod, Sank-Peterburg, Ulan-Ude, Lyudinov, Murom shaharlarida joylashgan.

Dengiz va daryo kemasozligi, kema ta'mirlash Sankt- Peterburg, Astraxan, Nijniy, Novgorod, Tyumen, Xabarovsk va boshqa shaharlarda amalga oshyirikladi.

Samolyotsozlik Moskva, Qozon, Samara, Voronej, Saratov, Smolensk kabi yirik sanoat markazlarida joylashgan.

O'rmon sanoati mamlakatning shimoliy va sharqiy rayonlarida rivojlangan. Rossiyada o'rmonlar maydoni 766 mln ga. ni tashkil etadi. Sellyuloza qog'oz sanoati korxonalarini joylashtyirikshda xom ashyo omilining axamiyati katta. Hozirgi vaqtda bu tarmoqning asosiy markazlari shimoliy rayonda , Uralda, Volga – Vyatka rayonida joylashgan.

Qishloq xo'jaligi. 1986 yili qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti 1980 yildagiga nisbatan 18 % o'sdi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlar 218,5 mln ga, shu jumladan haydaladigan yerlar 134,0 mln. ga. (60% dan oshiq), pichanzorlar (23,7 mln ga.), yaylovlar 59,4 mln ga. (1986 y.)

Rossiya federasiyasi qishloq xo'jaligi asosini don etishtyiriksh tashkil qiladi. Bug'doy ekiladigan joylardan shimolroqda, o'rmonlar zonasida javdar ekiladi. Zig'ir Rossiyaning Yevropa qismining shimoli-g'arbida etishtyirikladi. Kungaboqar Rossiya xududining Yevropa qismining ancha quruq va serquyosh janubi-sharqiy dasht rayonlarida, Volgabo'yi dashtlarida etishtyirikladi.

Haydaladigan erlarning 4/5 qismi markaziy qoratuproq rayonlariga, Volgabo'yi, Shimoliy Kavkaz, Ural va G'arbiy Sibirga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligining yalpi mahsulotini 39% dan ziyodini dehqonchilik, qariyb 61 % ini chorvachilik beradi.

Asosan qishloq ekinlari : g'alla, qand lavlagi, kungaboqar, kartoshka, zig'ir.

Chorvachiligi go'sht-sut va go'sht-jun etishtyirikshga ixtisoslashgan. Mamlakat Evropa qismida o'rmon va o'rmon – dasht zonalarida hamda Sibirda sersut qoramol boqiladi.

Rossiyada transportning barcha turlari rivojlangan. Umumiy yuk tashish aylanmasida dengiz (13,0 %), quvur (29,0 %) transportning xissasi hozirga kelib ko'paydi, temir yo'l (52,7 %) va daryo (3,7 %) transportiki kamaydi.

Rossiyaning asosiy transporti temir yo'l transportidir. Temir yo'l tarmoqlari Moskvadan chekka o'lkalarga ketgan. Temir yo'llar uzunligi bo'yicha Rossiya dunyoda AQSH dan keyin 2-o'rinda turadi.

Temir yo'llarning umumiy uzunligi taxminan 90 ming km, ularning 3/1 qismi elektrlashtyiriklgan.

Suv transporti dengiz va daryo transportiga bo'linadi. Dengiz transportining geografiyasi va mamlakatni o'rab turadigan 14 dengiz bilan belgilanadi. Rossiya floti yuk ko'tarish qobiliyati jihatidan faqat 6 ta davlatdan keyin turadi:

| | |
|---|---|
| 1.Liberiya | 4. Norvegiya |
| 2. Yaponiya | 5. Gresiya |
| 3. Buyuk Britaniya | 6. Panama. |

Suv yo'llari sistemalari: Oq dengiz, Boltiq kanali, Moskva kanali, Volga – Don kanali, Volga – Boltiq suv yo'li, Kursk- Magnit – Anamaliyasi, G'arbiy Sibir, San, Jan, Yoqutiston va boshqalar. Yuk yuborish jihatidan Qora dengiz, Azov dengizi havza portlari 1-o'rinda turadi. Kema qatnovida 142 ming km daryo yo'llaridan foydalaniladi.

Rossiyada tashiladigan jami yukning 11,3 % i dengiz transportida, 4,7 % i avtomobil transportida, 55 % i temir yo'l transportida, 27,5 % i quvur transportida, 1,5 % i ichki suv transportida tashiladi. Rossiyada tashiladigan jami yo'lovchining 33 % i avtomobil transportida, 33,2 % i temir yo'l transportida, 18,6% i havo transportida, 15,2 % i boshqa transport turlarida tashiladi.

Rossiya tashqi aloqalarida MDH davlatlari, Xitoy va rivojlangan davlatlar muhim o'rin tutadi. Rossiya chetga yoqilg'i va elektr – energiyasi , ruda va konsenrtatlar, metallar va metal buyumlar, yog'och, taxta va sellyuloza qog'oz mahsulotlarini va boshqa tovarlarni eksport qiladi.

Importida mashina va jihozlar, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqa tovarlarni, paxtani chetdan oladi. Germaniya, Italiya, Fransiya, Avstriya, Polsha, Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Ruminiya va boshqa Evropa davlatlari Rossiya nefti va gazining asosiy iste'molchilaridir.